

301
2-99
65-2

NAZAR ESHONQUL



dk/
f-99

NAZAR ESHONQU

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

16.11.214
3.11.215
14.03.22.
10.04.22
5.12.22



Qissa va hikoyalar



Toshkent - 2021

UO'K: 821.512.133-31
KBK 84-44(50'zb)
E 99

URUSH ODAMLARI

(Qissa)

«...Men katta bo'ssam, miltiq sotib olaman».
«Miltiqni nima qilasan?»
«Otamni otaman!!»

E 99

Nazar Eshonqul
Urush odamlari (*qissa va hikoyalar*) / Nazar
Eshonqul. – Toshkent. «Ochun» nashriyoti, 2021. –

176 b.

Yozuvchi Nazar Eshonqul o'zbek adabiyotida o'z uslubiga, o'z imzosiga ega bo'gan adiblardan biridir. Ushbu to'plamdan yozuvchining "Urush odamlari" qissasi va hikoyalari o'rinn olgan. Yozuvchi kitobxonim har bir davrning mashaqqatlari, ziddiyatları, nohaqlıkları bilan yuzlashtıradı. O'quvchi beixtiyor qahramonlarining taqdirini o'laydi, qayg'uradi, muammolariga chora izlaydi. Har bir asar kutilmagan tarzda yakun topadi. Eng muhim, adib xulosani o'quvchi hukmiga havola etadi. Mazkur to'plam siz aziz kitobxonlarga manzur keladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.512.133-31
KBK 84-44(50'zb)

ISBN: 978-9943-6804-2-5

© «Ochun» nashriyoti, 2021-y.

I

Qirq to'rtinchchi yil dekabrining bosqlarida, qoraxat kelganidan so'sa bir yildan so'ng yog'in-sochinli kunlarning birida tersotalik Normat polvon bir oyog'idan ayrılib, urushdan qaytdi. Urushdan majruh bo'lib qaytish odatdag'i voqe'a bo'lib qolganligi uchun hech kim uning mayib bo'lib qaytganligiga ajablanmadı. So'nggi uch yil ichida urushga soppa-sog' ketib, biron muchasidan ajralib qaytish hodisasi tez-tez sodir bo'lib turardi. Urush boshlangan yiliyoq Yuqori Teraklidan usta Pirnazar qo'lidan ayrıilib qaytgandi. Ikki yil oldin esa Qo'rg'onosti qishlog'idan Mulla Turdi ko'zidan ayrıilib qaytdi. Shu yilning boshida Yangiboy hisobchi qishloqqa g'ildirakki aravada kirib keldi. Uning qu'llar urug'idan bo'gan xotini ikki-uch oy sochini yulib yurdi-yu, keyin ko'nikib qoldi. Biroq yoz bosqlari da otlanib, Qamashiga tushib ketdi, bir haftalardan keyin eski yuk mashinasida qaytbil kelib, erini qayooqqadir olib jo'nadi. O'n kunlardan so'ng bir o'zi yakka qaytdi. Odamlar uning erini Qarshidagi nogironlar uyiga tashlab kelganimi bilishi. Yangiboyning soqov uksasi yozning oxirida yangasini o'lesi qilib savaldi. Qo'shnilarini uni ertasi choshgoh mahali og'zi-burnidan qon keilib behush yotgan holda og'ilxonadan topib olishdi. Tersotaliklarga Yangiboy hisobchiga qaraqanda Normat polvonning mayibligi arzimas bo'lib tuyuldi. Uning faqat bir oyog'i, shunda ham to'pliqning usti kesib olingan va o'rninga yasama oyoq o'rnatilgan edi. Shu sababli cho'loqlanib bo'lsa ham u bernalol yura olardi. Ertasiga qishloq chekkasidagi katta ayvonli paxsa uyda kich-kina to'y bo'ldi. Qari bo'lsa ham anchagini semiz echki so'yildi.

Qaynoq sho'rvanining hidi Tersotaga yondosh Olma va Supa qishloqlarigacha taralib turdi.

Normal polvonni ko'rish uchun kelgan qishloqdoshlari o'zları tasavvur qilgan norg'ul, barvasta, umrida olishib ko'magan, lekin suyagi yirik bo'lgani uchun polvon deb nom olgan, qishloqning old chavandozlaridan biri, qomatidan kuch yog filib turgan, o'ttizdan endi oshgan o'ktam Normal polvonni emas, ozib, mushaklari shalvirab, bo'yin tomirlarida ajnlar paydo bo'lib, yara izlari qolgan, hali dorilarning badboy hidi ketmagan, ko'rnishidan ellikni bersa bo'ladigan, sochlari oqara boshlagan, o'zları eshitgan urushning tirik guvohini ko'rdilar. Qishloqdoshlari uning yuzidagi zahillikka, kuygan quloqlarining orti olakula bo'lib qolgan bo'yinkariga va tez-tez sarak-sarak qilib, silkinib turadigan boshiga hech ko'nika olmadilar.

Yig'ilganlar besh-oltita qari-qartangdan va onalari qoshida yoki hovlida o'yin boshlab yuborgan bolalardan tashqari aksariyati ayollar va kampirlar edi.

Joyni avval pechkali xonaning o'ng tarafidagi katta, keng sovuq xonaga solishgandi. Ammo kampirlar kelib, joyni issiqqina pechkali yotoq uuga o'tkazishdi.

– Shusiz ham Normalboyning mehmonxonasi borligini bilmiz. Bu yerda hech kim begona emas. Bizga shunisi ma'qul. Bearishta, to'zib yotgan uyda o'tirmasak, o'tirganday bo'lmaymiz, – deyishdi ular.

Pechkali xona ham keng edi, to'rda taxmonga kir-chir va quroqli ko'rpachalar, turli rangga bo'yalgan hosilot po'staklar, har xil gullar chizilgan namattar, qo'lda to'qilgan gilamlar yig'ib qo'yilgandi. Xonaning shifti baland, loysuvoq devorlarning ikki tomoniga qush, qiyiq, bir tuvak bodomongulni o'rta ga qo'yib, bir-biriga tikilib turgan yigit va qizning surati, qo'zilar o'tlab yurgan tog' etagining va ko'klam kunlarining tasviri solingen ikkita uzun mo'zana osilgandi. Kasltalar tagidan ikkita qizil gulli yashil ro'mol ilingan, ro'mollar ko'p vaqt turganidan devorning nusxi urib, rangsizlanib qolgandi. So'zanaga qaragan odam uni tikkan qiz chevar bo'lganini va bu kashtalarda o'sha chevarning qizlik orzu-umidari barq urib turganini, bular kelimlik sarpolar ekani ni sezar, bu kashtalarda balog'at orzularini ko'rib, beixtiyor epkinib qo'yardi.

Odatdagiday

urushdan qaytganlarga qilinadigan hurmat ma'nosida to'rda Normal yasama oyog'ini sog' oyoq'i ustiga qo'yib, uchta lo'labolishlarga suyanib o'tirar, uning ikki tomonida yonboshlagan yoki devorga suyanib olgan chollar Normatni shunchaki gapga solib o'tirishardi. Pechka atrofida esa kampirlar o'ng tomonda o'tirgan chollar tomon engashgancha qizg'in suhbatga berilgan edilar; gohida chollar shumlik qilib, sekin chimchilab olsa, ular ushshayib qolgan, ajin bosgan yuzlariga uyalgan tusini berishgancha tillarida «he, o!, qarib suyulmay, soqoling ostida qolgur», deb tishsiz og'izilarini ochihib hihilar; o'zları esa cholga yaqinroq surilib o'tirar, xotinlar ham go'yo bu yerga bir-biri bilan chug'urlashish uchun kelishganday edi: goh ajablanguagini, goh kursand bo'lganini, goh qayg'urishayotganini bildirish uchun yuzlarini burishtirib, qoshlarini yozib, yoqalarini ushlab, yana qo'yib yuborishib, lablarining bir chetidan «cho'lp» etib tovusih chiqarib, hayratlangan bo'fshar, hamishagidek kimlarnidir g'iybat qilishga kiritishib ketishgan edi. Tashqarida qozon-tovoqning darang-durungi, bolalarning «Bo'lmaydi, bo'lmaydi, qaytadan», – deb chuvillashayotgani va ayol kishining: «Ha, juvonnarg to'qol, ukangi o'ynamay, erlaring minan oynayapsanni?», – degan shang'i ovozi orasida Sharif ko'saning nimadir buyurgan yoki kimmingdir, af tidan, bolaning: «Hap, semimi, otangning iligiga... Shunday qilaber sang, qizimdi bermay qo'yaman», – degan biroz xirqiroq, quvnoq ovozi kelar, go'yo hamma bu yerga nima uchun kelgamini bir lah-zadyoq unutisinganday yoki unutishga harakat qilishayotganday tuyular edi. Normal esa qishloqdoshlarining yuzlariga so'zsiz, jum tikilib qo'yar, nimadandir iztirob yoki xijolat chekayotganday edi. Hammaning oldida cho'zilib yotishi ep ko'rmay, o'midan turib o'tirisga harakat qilar, biroq yasama oyog'i xalaqit berar, u yana awvalgiday cho'zilib olar, ikki kundan beri kelib-ketayotganlarining, qishloqdoshlarining yuzidagi achinish va hamdar dlik ifodalarini ko'rib, oyog'ini kesishayotganda boshlangan kamtsitigan det tuyg'u uni yana girdobiga olmoqda, ichkariga kirib-chiqib turgan, kechasi bilan uning ko'kraviga urib, oh-voh qilib, yig'lab chiqqan, hozir ham suluwligini yo'qotmagan xotinini jum kuzatar, undan to'rt yillik ayrılıq asoratini axtarar, lekin negadir izlayotganini ilg'amayoqgandek, bu asorat unga sababi noma'lum bo'lgan begonalik va tundlik bilan qoplangandek tuyular edi.

Normatga hamma narsadan ham xotinining ana shu tundligi yoqmayotgan edi.

- Ichkariga kirib olishinglar, ichkariga! – deb baqirdi tashqaridan Sharif ko'sa quvnoq ovozda. – Bepadarlar, silarga aftyapman. Normat bovalaringga ko'rsatib olishinglar, qani, yuringlar...

U ichkariga o'n-o'n bir yoshlardagi ikkita bolani yetaklab kirdi. Bolalarning biri yo'l-yo'leski beqasam chopon, barrateri qulochin, ikkinchisi qora satin chopon, aftidan, otasinki bo'lsa kerak, ko'kish, katta askariy telpak kiyib olgan, ikkalasi ham pishnashar, beo'xshov o'turgen Normatga hadik bilan qarab turishardi.

- Polvon bovasi, bularga duo bering, olishmoqchi, sizning qo'lingizdi olmoqchi, – dedi Sharifiko'sa Normatga qarab, bolalar ni o'rtaga, dasturxon yetmagan joyga itarib. – Dasturxonni qayrib turinglar... dasturxonni! Nega tumirskilanasi, sizga ayyappaman, Zubay boybicha, qaytarib turing, hech narsa qimaydi... Katta polvonlar bovasiga olishishni ko'rsatsin...

Normal polvon hamisha bolalarni olshtirish bilan boshlanadigan, endi negadir o'ziga juda uzoq xotira bo'lub tuyulayotgan to'yarni eslab, jilmayib qo'yidi.

Bolalar ham hadiksirab, chetdag'i odamlarga qarab yurdi-da, begona ko'rmagach, bir-biriga xuddi jo'jaxo'rozlarday hurpayib, kichik davrani aylana boshlashdi.

– Qani, xahl! – dedi Normalning oldida o'tirgan Keldiyor so'pi.

Askariy qulochchin kyган bola uning o'g'li edi. – Bergan tuzimni halollamasang, bugun kecha enangdi o'zim olib yotaman...

O'tirganlar uming gapiga qiyqirib kulib qo'yidilar.

– Ovvv! – quvilik bilan hayratlangan bo'ldi boyta Sharif ko'sa "Zubay boybicha" deb chaqirgan, bug'doyrang, o'ttiz beshlardagi ayol. – Enangdi otang bir kecha qo'yinda olib yotsa, keyin enang qo'yniga yopishib, chiqmay qoladi. Otangning qo'yindida jelimi bor...

Qulochchin kygan bola otasining gapidan dadillanib, Zubay boybicha o'qrayib qo'ydi-da, hujunga o'tdi, beqasam choponlining belidan quchqolab olib, orqaga itardi. Beqasam choponli da'fatdan hujumdan o'zini tutolmay orqasiga o'tirib qoldi. So'ping o'g'li uning ustiga o'zini tashladi. Sharif ko'sa ajrim qildi. Ikkinchi yana davra aylana boshladi.

– Ha, ukkag'ar yohiyo-e! – dedi yonboshlab mudrab o'turgen, o'rtada olish boshlanishi bilan sergaklangan Mulla Sattor. U el-

liklardan oshib qolgan bo'llishiga qaramay, ancha norg'ul edi. Bu yil ikki echki, uch qop oq un berib, Tinig kampirning o'n besh yashar yetim qiziga uylangach, yana yasharib ketgandi. – Nuqul g'irromlik qiladi-e, tirranchasidan tortib kattasigacha...

U nima uchun bunday deganini xamma tushundi. Beqasam choponli bola unga askariy telpaklisidan ko'ra yaqinroq edi.

Beqasam choponli qayta hujumda o'zini ancha tutib oldi, qip-qizarib, askariy telpakdining hamma chillardini oppa-oson qaytarib turdi. Askariy telpakli kuchi yetmasligiga ishongach, hiylaga o'tdi; beqasamlining yoqasidan ushab, qorniga oyoq tirab, oshirib yubordi. Biroq beqasamli yana bir yekkasi yiqlidi.

– Bo'ldi, – dedi Keidiyor so'pi. – Katta polvondi shuncha bo'ladi-da, shuytib yiqitganam katta gap.

– Bas-e, – dedi Mulla Sattor unga zarda bilan, – olish ko'rganmisiz? Dustaman qimassa polvonma?..

Sharif ko'sa ham uning gapini ma'qullab, bolalarni qaytadan olshtirdi. Askariy telpakli hiylasi o'tmagach, xor'ligi kelib, ko'zlarini qisib, yig'lamisirab, beqasam choponlini o'ng tomonidan quchoqlab oldi. Beqasam choponliga xuddi shu kerak edi. U askariy telpaklining chap qo'lini ikki qollab qisib, yonlama chilberdi. Askariy telpakli oshib ketdi-yu, orqasi bilan tushdi.

– Halol! – baqirib yubordi Sharifiko'sa. – Buni yiqitish deydi-da! Ulkag'ardi uli, choretim-ey, dustaman qildi-yal.. Hoy, Xayrulloboy!

– tasliqariga bo'y cho'zib chaqirdi. – Polvonding jiligini opkeling... Beqasam choponli tushib ketgan telpagini olib, boshiga kiydi-da, atrofoga g'olibona nazar tashlab, ketishni ham, ketmasligini ham bilmay turib qoldi. Askariy telpakli esa otasining oldiga o'tib, xo'rili kelganidan piq-piq etib yig'lab yubordi.

– Enangdan ayrilding, – dedi uning battar alamini keltirish uchun Zubay boybicha.

Bola yig'ili ko'zi bilan unga cho'chingqirab tikilib turdi-da, bir dan Zubay boybichani chapanilab so'kib berdi. Uning so'kishidan Zubay boybicha kulimsirab, tilini tishladi, qo'lini qaychi qilib:

– Hozir... kesib olaman, otang to'y qilaman, deb qynalib yurmaydi, – deb po'pisaladi.

Bola lip etib otasining orqasidan tashqariga chiqib ketdi. Ayvonga borgach, eshikdan bo'yinini cho'zib, onasidan o'rgangan laqabni aytdi:

- Zubay maymoq, cho'loq tovuq, - masxara qilib tilini chiqardi.
- Zubay o'midan taho'dilli ko'tarilgach, uming do'pir-do'pir qochib ketgani eshitildi.
- Shu yohiyoning bolasi ham juda jirtaki bo'ladi-da, - deb to'ng'illadi Mulla Sattor.
- Normal bovangdi oldiga o'tir, - dedi beqasam chonliga Sharif ko'sa. - Bovasi, endi unga qo'llingizdi bering Choretimding obro'yini endi shular himoya qilsin...
- Bola Normatga begonasirab qaradi-da, biroq g'olib bo'lgani uchun hamma joyda suyukli ekanini anglab, Normatning oldiga borib o'tirdi.
- Kimdi ulisan? - dedi Normal ham bolaning olishidan va o'ziga tanish odatlardan zavqlanib, bolaga mehr bilan jilmaygan ko'yvi tikiilib.
- Eshonqulding, - dedi Mulla Sattor bolaning o'ringa. - Qoni-da bor-da polvonlik...
- Normal o'zi bilan teng amakivachchasi, barvasta gavdali Eshonqulni esladи. U urushga boshidayoq ketgan, shundan beri hech qanday xabar yo'q edi.
- Normal bolaning kiftiga urib qo'ydi:
- Bundan hali zo'r polvon chiqadi...
- Masilding kuniga shu yarab yotibdi-da, - dedi Sharif ko'sa. - Oxbo'ta bobo, enangni menga ber desa, eshaginiñ dumidan o't qo'yib yuboribdi...
- O'tirganlar bolaning bu botirilgini ma'qullab kulib qo'yishdi. Bola o'zi haqida gapirishayotganidan, gapirishganda ham maqtashayotganidan erib ketdi.
- Mening otamdi urushda ko'rmadingizmi? - so'radi bola ham erkinanib.
- Normal uning soddaligidan kulib bosh chayqadi. So'ng bolaning ko'nglini nimadir deb ko'targisi keldi:
- Otang keladi, mana meni aytdi deysan, shu bahorda keladi, dedi xuddi o'zi ham qaytishiga ishongandek jiddiy ohangda. Bolaga katta ilik tekkach, bu mukofotni boshqalarga ko'rsatib, maqtanish uchun u yugurib tashqariga chiqib ketdi.
- Bolalar kurashidan so'ng suhbat jontanib qoldi. Kmdir o'g'lini maqtadi. Kmdir bolalarning kasali ko'payganini gapirdi.
- Hov. Zubay boybicha, - dedi Mulla Sattor gavdasini bolishdan ko'tarib, og'zidagi nosni gilamni qayririb tuflar ekan. - O'rindan xat-xabar bormi?
- Ha, tog'a, keldi, avvali kun keldi, - dedi Zubay o'zini ham eslaydig'an topilganidan xursand bo'lib. - Keldi. Zovut-pabrikada ishlashtgammish...
- O'ho', shunday katta ishga ko'tariilib ketibdimi?! - rostaka-miga hayratlanib so'radi qishloq podachisi Rajab ko'sa.
- Ha, aka, chin, - dedi Zubay. - O'zi shunday yozibdi, kichkina Sharipding uli o'qib berdi.
- O'zi bo'ladigan bola edi-da, - gapga aralashdi cho'nqayib yotib, Keldiyor so'pining yetti yashar qiziga boshidagi bitlarni tediroyotgan Qudurat kampir. - Nuqul o'rischalab so'kardi. O'ris miroblar minan ham qishloqda paqt shu gaplasha olardi. Hatto bir marta nachaylikning o'zi yelkasiga qoqib, luchchi uzbekski govor, chem ruski deb maqtaganini o'z ko'zim bilan kor'ganman...
- Bu nima degani ekan? - so'radi Mulla Sattor kampirning g'alati talaffuzda ayigan gaplariga tushunmay.
- Bu sen ruschani o'zbekchadan yaxshi bilarkansan degani, - dedi donolik bilan Keldiyor so'pi.
- A... - dedi yana multa bosh chayqab. - Unda zovut-pabrikda ishlasa ishlaydig'an ekan-da...
- Voy... qora bosgur... - birdan Qudurat kampir voy-voylab, bituni terayotgan qizni chimchilab oldi-da, boshimi qirt-qirt qashidi. - Ha, to'qalik, chochimdi yulib olding-ku! Haligacha choch ko'rishdi bilmaysan, seni kim ham olardi bu holingda. Ering urib o'ldiradi-ku...
- Normal ularning gapiga zavqi kelib, jilmayib qo'ydi. Unga bu soddalik va samimiyliklarning hammasi tanish, ham huzurli edi. U shu to'pori gaplarni sog'ingan, to'rt yil dunyo kezib, xilma-xil odamlarni ko'rib, hech qaerda ona qishlog'idagiday gurungu gashtaklarni ko'rмаган, eshitmag'an edi. Uning bu gaplardan yuragi orziqib ketayotgandi.
- Hoy, Keldiyor aka! - tashqaridan Tursun guj-gujining ovozi keldi. - Ullingizni tiyasizmi, yo'qma, ulimi enangdi... deb so'kib-di... He, otangning haligi... joyiga nashvatir... qani, kel.. Shu gaping uchun seni ishtonimding ichiga sop qo'yaman... keyin ko'rasan tomoshani...

Tashqarida kimdir quvgan, kimdir qochgan tovush eshitildi.

– Xayrullaboy, ushlab keling, og'ziga nosindi tupuray, – yana Tursun guji-gujining shang'i tovushi eshitildi. – Enangdi deydi-ya... oldin Sharip bovangdan ruxsat ol...

– Buncha sasimasang!.. – tashqaridan to'yga ham bakovullik, ham kayvonilik qilib yurgan Biydi momoning zaharli tovushi eshitildi. Ertalabdan beri kelnlarga ish, yumush buyuraverib, tanbeh beraverib charchagan, shekilli, tovushijuda horg'in chiqli va gapirib bo'lub oxirida uflab qo'ydi. – Bolang tengigayam shunday deysamni, uyatsiz. Sizlarda o'zi bet degan narsa qolmabdi.

– Ammom zaharlagini qo'ymadi-qo'ymadi-da, – dedi g'fijingandek Zubay boybicha past tovushda. – Bunday yoyilib gaplashib ham bo'lmaydi, shappa og'ziga uradi odamning.

– Qaliningning yarminni to'asa, mayli, men roziman, – o'tirgan joyida chiyilladi Sharif ko'sa Biydi momoning gapiga parvo ham qilmay xotiniga.

Normatining yuragiga yoqimli bir his yopirilibr kira boshladi. U hozir o'zini unutib, yana o'z tashvishlari, gaplariga berilib ketgan qishloqdoshlarini ko'rib, o'zida urush jarohatini yengishga quadrat sezdi, qalbi yangi, umidbaxsh tuyg'ularga to'ldi.

U izma-iz kelib-ketib turган qishloqdosh va qarindoshlarini ko'rganda ham, tushdan keyin boshqa qishloqlardan u tanigidan odamlar kelganda ham ana shu tuyg'uni his qildi. Nominga bosholangan to'y birdan xursandchilik, urushdan oldingidek quvnoqlik tusini olgandi. Kampirlarning ham so'lub qolgan tirish yuzlaridagi sho'x va quvnoq boquvchi ko'zları xuddi so'ligan otquloq bargiga tushgan ikki tomchi shudring kabi yaltiray boshtagandi.

– To'y to'yga o'xshasin-da! – dedi ertalabdan beri pechka oldida issiqqa yelkalarini toblab, chollarning gapiga qulq solib o'tirgan Bo'ston momo qaydandir yoriq chidrima toptirib keilib, taraq-turuq qilib, sho'x-sho'x chalib, miskinu sho'x ohangda qo'shiq boshab yubordi:

Shaftolining tagida
Shamollagan qaynonam.
Ko'p xotinming ichida
Jomonnagan qaynonam.

Erkaklar unga nash'a qilib, qiyqirib qo'ydlar. Childirmanning magomiga silkinib, o'rtaga Norbi kampir tushdi. Jelagini otib yubordi-da, qollarini qush yozish qilib o'ynay ketdi. Uning o'yiniga shawqi kelgan erkaklar yana qiyqirishib kulishdi. Keldiyor so'pi shu yil shaharga tushib o'rganib kelgan hushtagini chaldi. «Oh -ha-ha-hay, hushsh!». Norbi kampir oyoqlarini yengil ko'tarib, cho'ziq tovushda lapar boshladi:

Oh, og'akon, og'akon,
Tutni bukib o'tdingiz.
Mening ham kuragimdi
Tutday to'kib o'tdingaz...

Bir necha kelinchak derazadan bosh suqib qaradi. Eshik va ayvon bolalarga to'lub ketdi. Ular nimjongina, hozir to'kilib tushman deb turgan kampirning quşhday yengil o'yinidan qiqrilab kula boshladilar. Tezda xotin-xalajlar ayvonga chiqb, davrani katta qilishdi-da, qizlarni o'yinga tortishdi. Norbi kampir terma ayub turdi. Tersotalikkar to'rt yil davomida xursandchilik qilishmaganini va to'rt odam bir yerga yig'ilib subbat qurmaganini endi estab qolishganday alamlaridan chiqquncha xursandchilik qilishadigandek shashlari bor edi.

Ertalabki bolalarning olishida ham, gurunglarda ham, kamplarning ishshayishlarida ham, hammasida shu kayfiyat hukmron edi. G'am-alamga to'igan turli qalblar o'zlarini bir zum, aqallib bir nafas xursand qilishga urinishar, bir-biriming gapiga shaqirlab kular, yosh kelinchaklar eri qaytib kelib, oyog'i yengil bo'lub qolgan Anziratga qochirim gaplar qilishar, gaplari garchi kulgili bo'lmasa ham kulishar, bu kunning tezroq tugab qolishidan, yana urush xotiralari va vahimalari yoqgan uylariga qaytishdan, yana o'sha tashvishli yolg'iz, horg'in hayotlari boshanishidan cho'chi Shayotgandek ko'rini-shardi.

Aslida ham bu qalblarni bir varaq orqaga yoki oldinga varaqlasa, hali urushli hayot bor, har ikkala tomonda ham urush kezayotgan va bu qalblarning eng yaqin kishilari, erlari, bolalari, jigarlar, og'a-inilari ana shu urushda o'layotgan, majruh, nogiron bo'layotgan yoki biron narsasidan ayrılayotgan edi...

Kechga yaqin hamma uy-uyiga tarqaldi. Faqat uch-to'rtta erkak allamahalgacha gurunglashib o'tirdi. Axiyri ular ham Normatning mudrayotganini ko'rib, o'rinalidan turishdi. Normat cho'loqlanib, ularni kuzatishga chiqdi. U bugun juda horigan, bিroq o'sha o'zi qaytaman, deb o'yamagan urushdan oldingi hayotga qaytganidan yuragi yengilgina hapriqb turardi.

– Endi nima qilmoqchisan? – dedi hammadan oxirida qolgan Sharif ko'sa oshnasining qol'didan tutib, chetga boshlар ekan. – O'ylab ko'rdingmi?

– Yo'q..

– Senbop bir ish topilib turibdi. Agar yo'q demasang.. Obrolli ish..

– Qanday ish?!

– Brigadirlik. Ikki-uch qishloqqa...

Normat urushdan uyiga qaytganiga hali to'a ishongisi kelmay turgan bir lahzada uni eski turmush tashvishlari girdobiga olayotgan, shu sababli ikkilanayotgan, jur'atsiz kayfiyatda edi. Bularning barchasida qandaydir boshqa bir alomat bor edi. Bu alomat o'zini chorlab turgan urushsiz hayot ekaniga u hamon ishongisi kelmayotgandi.

– Bo'lmaydi, – dedi u nimanidir o'ylab. – Menga to'g'ri kelmaydi.

– Nega?! Aynan senbop.. Kolxozi beradi... sen paqat buyurib yurasan.

– Qo'y, o'zimizding dehqonchilik yaxshi. Yerdi sog'inganman... Tushlarimga kirib chiqadi yer... Urushda ko'p qon to'kdim, buni yuvishim kerak, bo'lmasa, odam qoni tutadi.

– Rais so'rab ko'r degandi.. Bu oyog minan tirikchilik o'tkaza zishing qiyin-ku?..

Normal og'ir tin oldi va oshnasining gapini eshitmagandek tunga suq bilan tikildi, o'pkasini to'dirib nafas oldi... Kechani tuman qoplagan,sovvuq edi. Qishloqda itlar akillar, ularning hujishlari narigi betdag'i zovlargacha yetib borar va ularda aks-sado olib qaytar edi.

– Qo'y, oshna, bizdan katta odam chiqmagan, urushdan yer haydayman, bug'doy ekaman deb qaytdim, ot minib yuraman deb emas, – dedi u orzumand tovushda.

Uyga kurganda Anzirat bolalarni pechka atrofida uxlatib, to'rga solingan ikki kishilik joyning bir chetida o'tirardi. Normat-

ning kргaniga parvo ham qilmadi. O'sha alfoz o'tiraverdi. Normat yechinib, to'shakka cho'ldi.

– Anzirat..

U qo'ng'iroqlarning qishloq udummini buzgan o'sha paytdagi yagona odam edi; xotinining ismini aytilb chaqirardi.

Xotini boshini ko'tarmay:

– Ha... – dedi sovuq ohangda.

Biroq Normat buni sezmadidi. U hozir seزادиган holatda emas edi. Uning qalbi ehtirosga to'lib bormoqda edi.

– Anzirat... – xotinini o'ziga tortdi. – U joylarda har kuni seni o'yladim. Bolalardi o'yladim... Xudoga yolbordim.. Shularding baxtiga meni omon asra, dedim. Uyda menin zo'r xotinim bor, dedim... bolalarim bor dedim... Anzirat... bir nima de! Keganim beri hech kuhmaysan... gapirmaysan.

Xotini o'zini to'shakka tashladi-yu, yig'lab yubordi. Normat gapangsib qoldi.

– Anzirat.. senga nima bo'ldi?..

Anzirat yotgancha piq-piq yig'ladı.

– Anzirat!..

– Hech narsa.. – bo'g'ilib javob berdi xotini. – Sizzdan qoraxat keldi.. o'ldi deyishdi..

Normal yengil tortdi. U xotini shu yig'lashi bilan o'ziga dahshatlari bir haqiqatni aytadi yoki oyog'ingiz bilan menga erlik qilasizmi, deb aytadi deb o'ylagandi. Qora xat kelgan paytdagi xotinin kayfiyatini tasavvur qilib, yengil tortdi. Anzirat ham uni sog'ingan. Xotinining sochimi siladi.

– Mana, endi oldingdaman-ku.. Endi hech qayqqaga silardi tashlab ketmayman.. Anzirat..

Anzirat boshini ko'tardi, yoshli ko'zlarini unga xuddi rahmi kelayorganday tikdi, chuquq xo'rsindi, so'ng turib, chiroqni paisaytrib keldi.

II

O'troq qo'ng'irotlar Hisor tog'ining etaklarida, uncha katta bo'lmasa ham negadir Kattasuv deb ataladigan daryo bo'yla-rida o'sha Bobotog' va Boysuntog'dan ko'chib kelganlardan beri muqim yashashadi. Katta daryo azally cho qqlaridan boshlanib, yuzlab qishloqni oralab, Pachkamarga quyiladi. Boshida to'polon

va shiddat bilan boshlangan daryo Langardan o'ta borib, kichkina soylikka aylanib qoladi. Daryoning bitta qilg'i bor: bahor kunlari to'polon qilib boqadi. Uning ichi xarsang, sangar toshlarga to'la, suv pasayganda toshlar xuddi ulkan tuxumlarga o'xshaydi. Bahor-da esa ular suvg'a yashirinib oлади. Sel paytlari unda odam oqsa, sog' chiqmaydi: toshlarning o'zi uni ado qiladi. Narigi bet bilan mutlaqo aloqa uзiladi. Ishi chiqib qolganlar daryoning ikki betida turib, bemalel gaplashsa bo'ladi, o'zan uncha katta emas. Bahor kunlari narigi betdag'i bolalarga bayram bo'ladi – maktab yopiladi, berigi betdag'i maktabga kelib o'qishning hech iloji yo'q. O qituv-chilarining narigi betga o'tgiları kelmaydi, daryodan qo'rqishadi.

Bundan yigirma yil oldin Olma qishlog'ilik Qobil cholning katta yerlarda o'qib kelgan o'g'li narigi qishloqlarga borib dars ber-gan deyishadi. Aytishlaricha, u Tersota qishlog'inining ro'parasi-dan, sayoz joydan ot bilan suzib o'tarkan. Bir kuni qattiq jala bo'ladi, itning uvlashidan ajablangan Qobil chol kechasi daryo bo'yiga – tomorqasining daryoga tutash joyidagi bodom daraxti ostiga borsa, odanga o'xshash ko'lankani ko'radi. Qo'rqib ketib, qishloqdoshlarini chaqirib borib ko'rsa, jasad o'zining o'g'lining jasadi ekan. Keyin Qobil chol qir ortidagi Yong'oqli (qo'ng'irotlar Jong'oqli deyishadi) qishlog'iga ko'chib ketdi.

Bahor kunlarini aytmasa, Kattasuvdek sokin va beozor daryo boshqa hech qaerda yo'q, uning suvi timiqligidan hattu muz ustidan ham tagjini ko'rsa bo'ladi. Katta daryo atrofiga kelib o'mnashib qol-gan o'troq qo'ng'irotlar ellik-oltmissiz qishloqni tashkil qiladi. Bu urug', asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Chorvachilik va dehqonchilik alohida-alohida emas, bir kishining o'zi ham dehqon, ham chorvador bo'lishi mumkin. Shu sababli bu urug'da o'ta boy ham, o'ta kambag'al ham bo'imagan. Kambag'al hisobiga kirganning ham yeri, ham moli bo'lgan.

Urug' boshqa urug'ga qiz bermaydi. Boshqa urug'ni o'zlari bilan teng ko'rismaydi. Shu sababli qir ortidagi tojik ovullari bilan yoshlarning urug' ham, til ham tanlamaydigan muhabbat mojarolar deb tez-tez janjallahish turishadi.

Aytishlaricha, qo'ng'irotlar bu yerlarga bir necha asr'lar oldin kelib qolishgan ekan. Nima uchun bu yerlarga kelib qolishgani ni bilishmaydi-yu, biroq urug' iuda to'zib, tarqalib, nihoyatda oz qismi kelib qolgan. Chollarning cho'pchaklariga qaraganda, av-

valgi yerlarida ular juda totuv va farovon yashashgan ekan. Ular uch narsani; yerni, olovni, suvni muqaddas tutishar, o'zlarini bu uch muqaddas marsaning farzandlari deb bilishar ekan. Shu sa-babli ularning orasida hech qachon ixtifof chiqmagan. Shu uchta muqaddas tuyg'u ularni birlashtirib turar ekan. Yerlari ham boy, serhosil ekan. Joylarini Nilufar vodiy deb atashar ekan. Urug'ni oqsoqollar boshqarishar, boy-kambag'al degan gapning o'zi yo'q eltan. Keyin nima bo'libdi-yu, ularning osoyishta hayotiga urush kirib kelibdi. Urush ularning hamma narsasini vayron etibdi, bir-biriga yov, dushman qilib qo'yibdi. Yer hosil bermay qo'yib-di, qurq'ochilik boshlanibdi, odamlar ochlikdan o'lib keta bosh-lashibdi. Urug' urug' bilan, aymoq aymoq bilan, aka uka bilan urushga kiradi. Urug' o'rtasida ixtiolfar chiga boshlaydi, ularning totuv turmushlari izdan chiqadi. Eski e'tiqodlaridan voz kechib, boylikka hirs qo'ya boshlaydilar. Boylik esa ularning bir-biriga muhabbatini o'g'irlab oladi.

Shunda o'sna davrlardagi urug' oqsoqoli Boyxun (balki, Boysundir) endi bu joylarda yashab bo'imasligini va qon to'kil-gan yer endi hosil bermay qo'ygannini, suv ham, oftob ham ular-dan yuz o'g'iganini, endi bu yerlardan urushsiz yurt izlab ketish keradigini aytibdi. Uning gapini hamma ma'qullabdi. Urug' turli tomonga: urushsiz yurt axtarib tarqalib ketibdi.

Boyxun boshchiligidagi o'troqlar esa quyosha, muqaddas olovg'a tomon yo'1 olibdi. Ular quyosh tomonda urushsiz yurt bor, deb o'ylab, tobora tikroqqa ko'tarlishibdi. Biroq ular qo'erga borsa, urush izlaridan quvlab yetar, ularning hayotiga xavf solar, qonlariga tobora singib borar ekan, oxiri shu Katta suv atrofiga kelib o'mnashib qolishibdi. Bu davrda Boyxun juda qarib, o'lim to'shagida yotar ekan. U: «Agar urushsiz yurtni topmasalaring, unda aka ukaga, do'st do'stga, xotin erga, odamlar bir-biriga xi-yonat qiladigan, bir-birini aldaydigan bo'lib qoladi. Qaerda qon oqsa, o'sha yerda xiyonat ko'p sodir bo'ladi, baxt u yerdan yuz o'giradi, odamlar yashash ilmini emas, bir-birini o'dirish ilmini o'rgana boshlaydilar, suv o'mniga qon ichadigan maxluqqa aylanadilar. Urush yer yuzidagi hamma ezgu narsani quritadi, sizlarni yer yuzidan supurib tashlaydi. Sizlar hammalarin johil va dashgan urush odamlariga aylanib qolasizlar. Shu sababli sizlar urushsiz yurtni topinglar, urushni oralariningdan haydanglar,

totuv yashashga o'rganinglar. Bilinglarki, odamizotning otasi bitta, onasi bitta - hamma bir-biriga jigar, kimki urushga qarshi bo'ssa, ular sizlarning jigarlariningiz - urushsiz yurt axtarib ketgan qo'ng'irotlar. Ularни qo'llanglar. Agar urushsiz yurt topsalaring, uлarni ham olib kelinglearring...» deb jon beribdi.

Shundan beri qancha zamonlar o'tibdi, qancha suvlar oqib ketibdi, lekin odamlar urushsiz yurtini topisha olmabdi, u hech qaerda yo'q ekan. Boshqa urug'doshlari ham topolmagan, shekilli, ulardan ham darak bo'imabdi. qo'nig'irotlar urushning qonli girdobida hamon yashab kelishar, urush ularni asta-sekin yer yuzidan supurib tashlayotgan ekan...

Bu cho'pchakning qanchalik haqiqatga yaqin ekanini hech kim bilmaydi, biroq hamma shunday bo'lganiga ishonadi, bolalariga Boyxun, Boysun deb ismlar qo'yishadi va qaerlardadir urushsiz yurt borligi haqida ertaklar aytishadi. O'troqlarning eng katta aymog'i - to'rt yetim aymog'ining o'zi o'ttiz-qirq qishloqni tashkil qiladi. Bu aymoq o'zining urushqoqligi va jangariligi, bir qolipga sig'masligi, ayollarining erkaklardek barcha masalaga aralashib ketishi, uzun va barvastaligi bilan nom qozongan, shu sababli boshqalar bu aymoqdagilarni ayiqdan tarqagan ham deyishadi. Bu aymoqdagilar yana sal ovsarroq xam. Ovsarliklari ko'proq mug'ombirlikka o'xshab ketadi, lekin rostdan ham esaroq. Tegrimondan qaytishda unni tuproqqa to'kib yuborib, uchungacha undan tuproqni ajrataman deb, shopirib o'tirgan mash'hur esar xuddi shu aymoqdan bo'lgan. Erkaklari ham, xotinlar ham juda baquvvat va basavlat bo'lishadi.

O'gan asrning oxirlarida Olma qishlog'didan choretum Ber-dishkurable qizil (bu laqabning bolbshiievicha "qizilga aloqasi yo'q, rang tus ma nosida) Bekkam oqsoqoldan Tersota sharsharasi os-tidagi yerlarni sotib olib, qishloq quradi. U ham ham har xil janjal-lardan, kelishmovchiliklardan, aymoqlar, qarindoshlar o'rta-sida-gi nizolaridan bezib, faqat o'g'llari va nevaralaridan iborat bitta totuv qishloq qurmoxchi bo'ladi. Urushgacha rostdan ham bu qishloq ahilligi bilan nom qozongan edi. Tuprog'i qora, hosildor bol'gan yer Berdi Shukurni ancha davlatmand odam qilib qo'yadi. Tersota asta-sekin boshqa aymoqliklar hisobiga ham kengaya bosholaydi. Urush arafasida qishloqda yigirma, yigirma besha ya-qin uy bor, lekin juda siyrak joylashgan, boshqa uydagilar ko'lan-

Buyerlarga qishnoyabning adog'ida yuzko'rsatadi. So'ng toki martning oxirigacha tog'da yagona hukmador bo'lib olib, xohlagan o'yinini o'ynay boshlaydi. Lekin ancha paytgacha daryolar muzla-maydi, buлоq suvlar issiq bo'lib qoladi. Ba'zi ба'zidagina, shun-dà ham chilla kirar va chiqar paytaridagina qorasovuq bo'lib, daraxtlarni sovuq uradi.

Bu yil qish dekabrning boshlarida yuz ko'rsatui. Avval inuz aralash qor uchqunladi. Keyin gupillagan qorga aylandi. Ertasiga ertalab odamlar uyg'onganlaridan so'ng tashqariga chiqib, hayrat bilan uzoq-uzoqlarga boqdilari: hammayoq oppoq qor edi, go'yobutun dunyo oppoq edi. Bu - shu yil hisobidan yoqqan birinchiquor edi...

Normal kelgandan buyon bitor Isuga qo'shi kuni... yo ichib, madorga kirdi. Ozida quvvat sezaga boshladi. Yurishni mashq qildi. Kuchga kirgach, Yangiboy oqsqolning minilmay yotgan qorato'shini nasiyaga oldi. Otda yurish unga ancha quylay edi. Otga o'zi minadigan bo'guncha biron yoqqqa chiqmadidi. Oyog'ining og'rishi qo'ygandek bo'lgach, ot minib aylanib keladigan bo'ldi. Biroq kelganidan beri yuragi xijl edi. Anzirat u bilan tortinib muomala qilar; oyoqsiz qaytgamimga shunday qilyaptimi, deb o'ylar va ezilar edi. Bolalari esa undan bir zum ajralmas, ayniqsa, Xolmat asta-sekin gapirish va ish qilishda unga taqlid qila bosqlagan edi. Kechqurun bolalari Normal polvonni o'rabi olib, nima uchun oyog'i bundayligini so'rayerverib, bezor qilib yuborar, keyin Hojar yelkasiqa chiqib olib, yerga o'zimi tashlar, bu Ishidan zavqlanib, qiqir-qiqir kular edi. Anzirat esa shu paytalar pechka oldida indamay urchuq yigirib o'tirar, ko'zlarida uni nimadir ezayotgandek ko'rindi. Uni ko'rib, Normal polvon ham ezelar, lekin yuzaga chiqarmas, sababi o'ziga taqalishidan va buning oshkor bo'lub qolishidan qo'rqrar edi.

ka bo'lib ko'zga tashlanar edi. Daraxtлari ham siyrap, archazor bilan o'rалган qishloq edi.

III

- deb so'radi. Anzirat bu gapni eshitib, ho'ngrab yig'lab yubordi.

Normal polvon nima qilishini bilmay qoldi:

- Senga nima bo'ldi? - dedi qo'rqib ketib. - A, nima qildi?

Anzirat anchadan keyin yig'idan to'xtadi-da, sekkingina, erkanlangan tovushda:

- Kaklik go'shti yegim kelyapti, - dedi.

Bu gapi urushdan oldingi Anziratning nozli gapiga o'xshagani uchun Normal xursand bo'lib ketdi.

Ertasiga Normal mitig'ini va qorato'shni olib kaklik oviga jo'nadi. Urush boshlanganidan beri kaklik ovlash odamlarning esidan chiqib ketgan, kakliklar ko'pdan bezovta bo'imay qo'ygan bo'lishiga qaramay, Normal Buxor zovlari gacha biron ta kaklik uchratmadidi... Buxor zovlariiga kelganda uning kaklik ovashi ham esidan chiqdi. U bu yerlarda o'tgan urushdan oldingi hayotini, tojik ovullaridan ko'pkaridan qaytganda to'xtaydigan buloqni qo'msab, o'sha endi sira qaytmaydigandek tuyulayotgan munavvar, sertashvish yigitlik-navqiton yillarining xotirasiga berilib ketdi. Bolaligidagi qo'zi haydab kelib, ustiga chiqib o'tiradigan katta qizil xarsangtoshni, bir-biriga tutashib ketgan zovlarni urushda ko'p qo'msardi. Zax okoplarda yotib, o'sha zovlarni yana bir ko'rsam armonim yo'q, deb o'ylar, hozir esa qalbida g'ayribiyy shuur uyg'onmoqda edi. U yigitlik va bolalilik xotiralariiga berilib, Buxor zovlariida uzoq kezdi. Zovlar orasida xiragina tuman bor edi. U viqor to'kib turgan qorni katta qirlarga yopishib olgan, tojik ovullari tarafdani esayotgan shabada bilan daryo tomon sil-jib bormoqda edi. Havoning avzoyi soliq, erinib yomg'ir yog'ardi. Ikki tomoni qirlar bilan o'ralgan arava yo'lli toyg'anoq bo'lib qolgan, yurish qiyin, ayniqsa, yo'l tepalikka ko'tarilganda yurish yana ham qiyinlashar, ot tuyog'i sirpalib ketaverar, shu sababli yo'l chekkasidagi sarg'ayib qolgan o'-o'anlar ustidan yurishga to'g'ri kelardi. Qorayib qolgan qirlar negadir g'amgin tusga kirgan, bu g'amginlik rangi so'la boshlagan archalarga qadar o'tgанди. Normalga archalar qora kiyib cho'nqayib o'tirgan kampirlarga o'xshab ketdi. U bolaligidagi ustiga chiqib o'tiradigan keksa archaning oldiga bordi. Archaning shoxlari tarvaqaylab ketgan, ba'zi shoxlari quriy boshlagan, tanasida po'stlog'i chirib, nimxush, achimsiq hid kelardi. Archaning shu turishi juda achinarli edi. «Qariyapmiz, oshna, - deb o'yladi ichida Normal. - Aslida, hammamiz ham yerdan oziq oladigan archa ekanmiz».

To'satdan zovlar ichidan kaklikning «qiyiq, qiyiq», degan zordanishi eshitildi, so'ng bu tovush ham qoyalar ichiga singib ketdi. Normalning yuragi yo'qotib qo'ygan omasini birdan ko'rib qolgan go'dakniqiday bezovta edi. Hatto eng kichik toshlar ham joy-joyida turgan bo'lsa-da, uning nazarida hamma narsa o'zgarlanday, o'z ruhiga mos simiqqanday edi.

Buxor zovlariidan o'tib, qotning ustidagi daraga bordi. Kevin Tersota soyi boy'lab, Chitga jo'nadi. Tog'da sokinlik hukmronlik qilar, o't-o'lanlar sarg'ayib, mevali daraxtlar qip-yalang'och yechingandi. Yo'l chetidagi yovvoyi bodomilar yetti-sakkiztacha mevani ushlaganicha, endi buni hech kimga bermaymiz, deyotganday silkinib-silkinib qo'yardi. Faqat archalar o'sha-o'sha - yam-yashil edi. Bular hammasi Normalga tinch, osuda hayotni eslatdi. U zavqi kelib, otini niqtadi. Soylilik boy'lab otda chopmoqchi bo'idi, biroq qari ot lo'k-lo'k etib yo'rg'aladi-yu, yana avvalgi yurishiga qaytdi. Normal yuragidagi tuyug'ularni boshqarolmay, he-e-ey, deb baqirdi. Uning tovushidan ot cho'chib, qulog'imi dik-kaytdi, zirk orqasidan qandaydir qush pir etib uchib ketdi. Baqirig'iga javoban zovlar aks-sado berdi. Aks-sado anchagacha timumadi, uning tovushini har xil qilib qaytarib turdi. Zovlarning bu erkalashi Normalga yoqib qolib, yana baqirdi... Aks-sadoga quloq tutib, yana boshqacharoq qilib baqirdi. Zovlar unga boshqacha javob qaytardi. Normal xursand bo'lib ketib, tovushiga yana xar xil tus berib baqira boshladи. Tomog'i xirillab qolgach, o'zini yengil sezdiyu, nima uchun kelgani esiga tushib, Qorato'shni iziga burdi. Normal kechgacha ikkita, shunda ham bittasi oqsinqaklik ovlay oldi. Kechga yaqin qishloq ustidagi buloqqa keidi, otni keksa archaga bog'lab, o'zi buloqning boshidagi nam tosnga o'tirdi. U butun urush davomida o'ylagan, orzu qilgan tinch, osundan hayotga qaytganini endi anglatdi. «Endi bu tinchligimni hech narsaga almashtayman, xotinimni hech ham o'ksitmayman, odamlarning ko'nglini olaman, mana shu tog'lar hurmati... endi xotinimni ham, meni intizorlik bilan kutib olgan odamlarni ham boshimda ko'tarib yuraman. Bir umr ularning izzatini qilaman, mening uchun endi urush, qon, o'llim, degan narsalar tugadi», deb o'yladi. Kelganimidan beri hech ishommayotgan, hech o'zini ko'nik-tura olmayotgan, xuddi birovning o'rnida yashayotganday tuyulayotgan hayoti o'ziniki ekanini, begonadek bo'lib qolgan Anzirat

ham, mana shu tog'lar ham, shu tog'larda yashovchi odamlar ham faqat o'ziniki ekamini va dunyodagi hamma narsa uning baxti, quvonchi uchun yaratilganini tuydi, endi bu narsalarni hech narsaga almashtmayman: bular mening hayotimdan ham aziz, menga hayot baxsh etdi, deb o'yaldi. U shu daf'a xotinim meni qanday kutib oladi, degan hadigi endi o'tib ketganimi, xotimi dunyodagi eng yaxshi xotin ekanini his etdi. Ko'ngil darchalarini yashnab-yashnab kelayotgan hayotga tamom lang ochib qo'ydi.

Shu kuni Normatning uyida salkam bayram bo'ldi. Anzirat ham ochilib-sochilib gaplashib o'tirdi. Uning tovushi xushnud va jarangdor chiqqa boshladi. Bolalari Normatni o'rab olib nemislar haqidagi gapirib berishini so'raydi, uni ot qilib minishadi, Anzirat ularni havas va mehr bilan kuzatadi, ularga qo'shilib kula boshlaysdi.

- Pashist nimaga o'xshaydi? - deb so'raydi Xolmat. - Malimiz bo'riga o'xshaydi, deydi.

Normal nima deyishimi bilmaydi. Bizga o'xshagan odam, desa o'g'llining tassawvuriga putur yetadigan, ko'ngli cho'kadiganga o'xshaydi, o'g'llining sazasi o'masin, deydi.

- Ha, Malik bovongding itiga o'xshaydi, - deydi.

Xolmat Malik cho'ponning ko'ringanga quturgandek tashlanadigan itini ko'z oldiga keltiradi. Tushunganga o'xshaydi. Lekin yana so'raydi:

- Ularam to'rt oyooqlimi-a?

Normal polvon o'g'llining sergapligidan, farosatidan g'ururlanadi:

- Ha, ularam to'rt oyoqli, ikki oyog'ida yursa, ikki oyog'ida ajal olibyuradi...

Anzirat ularga jilmayib, o'z hayotidan, baxtidan minnatdor bo'lib qarab o'tiradi.

IV

Normal polvon kaklik ovidan qaytgach, hech qayoqqa chiqmadidi. Buzilib qolgan cholg'i, o'roqlarni tuzatgan bo'lib, o'zini avrab yurdi. Yarasi gazak olib ketmaslik uchun tashqarida ham ko'p yurmas, qorasovuq va ob-havoning birdan o'zgarishi uning yarasiga ta'sir qilgan, yiringlay boshlagandi. Faqt ba'zi kunlari qorato shni minib, Qotning ustiga - har yili dehqonchilik qiladigan yeriga bir chiqib tushar edi.

- Yer ishlannay qotib ketibdi, - der edi u tog'dan qaytgan dan so'ng. - Chakkalakzor bo'lib qolibdi. Sug'urib tashladim. Biroq tonirlari hali ham odamni rosa qiyaydi.

Normatni dehqonchilik tashvishlari tobora yashartirib bor-moqda edi. U ombordagi zanglab yotgan omochni topib olib, uning mix-cho'plarini qayttadan qoqdi va ko'klamga sozlab qo'ydi.

Ammo bu ishlilar tez tugab qoldi. Unga deyarli yumush yo'q edi. Molxonani Anzirat yoki Xolmat kurab qo'yardi. O'tin yorish ham Xolmatning bo'yinida edi. Normat esa kуни uyda qamalib, eski choriqlarni yamash, uchi singan choymaklarga tumshuq o'rnatish bilan o'tkazardi. Bekor paytлari pechkha yonida uxlab yoldi orqasini pechkaga berib o'ylanib yotardi. U xayolga berilib, mudrab yotganda uning oromimi buzishga hech kim jur'at etolmasdi. Ba'zi kunlari u yo'q yerdagi ermakni o'ylab topardi. Bir kuni tashqaridan loy olib keldi-da, tuyaga o'xshatib, ichini kovak qildi. Ikki-uch joydan yana teshik qoldirib, ajabtovur maxluq yadi va pechkanning ostiga tiqib qo'ydi.

- Ota, bu nima? - deb so'radi hayron bo'lib, uni kuzatib o'tirgan Xolmat.

- Hali ko'rasan, - dedi u sirli qilib, katta ish qilganday jilmaydi. Yarim soatlardan keyin pechkanning ostida qurigan "maxluq"ni olib, tuzatgan bo'lib, og'ziga solib, pufladi. «Maxluq»dan ingichka, ammo yoyqimli tovush chiqqa boshladi.

Boshiga katta ro'mol o'rab olgan Hojar shodlanganidan qiy-qirib yubordi-da, Normatning qo'liga tashlandi.

- Menga beying, - dedi xursandligidan o'zini yo'qotib. - Menga beying, menga.. menga...

- Sen chalishni bilmaysan, - dedi Xolmat uni orqaga itarib. - Otam menga yasab berdi.

- Yo'q, menga, - deya chiyilladi Hojar va Xolmatning qo'lidan itarib, Jonholatda hushtakka intildi.

Normal esa ularning quvonib ketganini ko'rib, o'zi ham suyunib, xunuk qilib, hirlinglay boshladi. Uning hirlinglashini ko'rib, Anziratning yuragi orqaga tortib ketdi: mulla Abdullaning gunung o'g'li Xayrulloni biror yelksiga qoqib maqtasa, shunday yarim tentak hirlinglari esiga tushdi.

Ertasiga Normal xayolga berilib yotdi-da, so'ng nimanidir es-legenday, xamir qorayotgan Anziratga qaradi:

- He-ey, iyirgan iping yo'qmi?

Anzirat unga yalt etib qaradi-yu, gapiga tushunmagandek,

unga tikilib qoldi.

- Ipnii nima qilasiz?

- To'qiyman.

Anzirat eriga ajablanib qaradi.

- Nima qilasiz? - ishonqiramay so'radi.

- To'qiyman, - dedi Normat sirli qilib.

- Endi bir kaminingiz ip iyirishingiz qolgandi, - dedi va jilmayib

qarab qo'ydi.

Normatni ip yigirib o'tirgan qiyofada tasavvur qidi-yu, sharaqlab kulib yubordi. Ozini kulgidan to'xtata olmay, devorga suyanib qoldi. So'ng birdan Normatga qarab, jiddiy tortdi-da:

- Urchuq ham iyirasizmi? - deb so'radi.

Normat uning ayyorona tikilib turishidan kelinchakligidagidek biron mug'ombirlikni o'ylaganini sezib, xafa bo'llib, xo'mraxydi.

- Senga hazillashayotganim yo'q, - dedi xafa alfozda. - Iping bo'lsa, bachalarga qo'jilop to'qib beraman.

Yana kulib yubormaslik uchun Anzirat unga sinovchan qaradi: - Balkim, gilamam to'qisiz? - deb so'radi u yana o'sha sho'x va kinoyali ohangda.

- Yo'q, - dedi soddadilik bilan Normat. - Sen ishonmayapsan. Biz u yoqlarda, gospitalda yotganimizda, duxtur qiz zerikib qolmasligimiz uchun ipdan har xil parsalar to'qishni o'rgatardi. Savat, soldatlarga jilop, qo'jilop to'qirdik. Ba'zilar o'zlariga egnilik ham to'qib olgan edi.

Anzirat Normatning zerikayotganini, ishga o'rgangan odamning bo'sh turgisi kelmayotganini anglar, biroq o'zi ham erini zekirkirmaslikning chorasini topishga ojiz edi.

- Siz ham bunday mehmmon-sehmmon bo'llib qidirsangiz-chi? - derdi unga qarab o'tirib, achinib ketgan Anzirat. - Boring, ko'ring, odamning taftini odam oladi. Yotaversangiz, xunnayib, hamma-dan ajrab qolasiz-ku!

- Mening borgim kelmaydi deyapsamni! - zorlandi Normat. - Borsam odamlar so'rayerishadi, so'rayerishadi. Falon emish, chinmi, pismadon emish, chinmi, odam qoni daryo bo'llib oqib, shaharlarni seldek oqizipti, chinmi, deb. Urushni eslasam, ko'nglim ayniydigan bo'p qolgan. Eslasam, boshim aylanadi, yu-

ragim kuylib ketaberadi. Xuddi meni birov hozir otib ketadigan-dek tuyulaveradi. E... qo'y, bahorgacha uyda bo'p turay... keyin bir borib davolanib kelaman...

Anzirat bunday paytda erini tushunardi. Normat nomusli odam edi. O'zining ojizligidän uyalishni va bundan niyoyatda qlynalishini billardi. Shu sababli u Normatga mehmondorchilik to'g'risida boshqa gapirmadi. Xolmat bilan Hojar Normatning yolg'iz ovunchog'i edi. Kolmat bo'sh bo'ldi deguncha, otasining oldidan jilmas, u to'qiyotgan paypoqlarga havas bilan qarab turar, so'ng otasining qolidan olib, o'zi ham to'qimoqchi bo'lardi. Shunday paythari Anzirat nomus qilgan bo'lardi.

Holar yuzi lo'ppi, Normatning opalariga tortigan, lo'mboq to'liqidan kelgan qiz edi. Esini endi taniy boshlagan Hojar otasining sevimli «mushugi» edi. U otasining qo'yndan chiqmas, uni ot qilb o'ynar, yurganda yelkasidan tushmas, kechalari hur-hur etib, Normatning qo'yndida uxlab qolar, Anzirat uni o'z joyida yotibga zo'rig'a ko'ndirar va uni "otasining mushugi" deb erkalar edi. Normat urushdan kelgamidan beri bolalalariga ayricha mehr bilan qarardi U Xolmat dars qiliyaptimi, yo'qmi - muntazam tekshirat, Xolmatdan bilimi va o'qimishli odam chiqishini istardi.

- Qani endi shu bolalar ham katta bo'llib qolsa-yu, sen bilan men bularning rohatini ko'rib cho'zilib yotsak, - derdi Normat qarlyalardek orzu qilib. - Men u yoqlarda yurib, Xolmatimni katta bo'lsa, kemachilikka o'qishga qo'yaman, Hojardi esa duxturlikka qo'yaman, deb havas qillardim. Bizza kemachilar bor edi. Matrosslar deyshardi, ular juda hurmatli, obro'yiz zo'r edi. Doim kemada yurishardi, hatto bozorga ham kemada borib kelsa bo'lardi. Men Xolmat katar bo'lsa kemachilar o'qishiga qo'yaman derdim.

Normatning bolalarcha orzu qilishi qolmagan edi. Balki, shu sababli ham hayotga tashmalik bilan boqgandir? Har qalay, u bolalarning katta, o'qimishli odamlar bo'lismini istardi. «Axir, kema yaxshi-dal - deb o'ylardi u. - Daryo bo'lsa bor, shartta o'tiradi-yu, istagan tarfga ketaberadi». U faqat bu daryyoda kema suzmasligi haqida o'ylab ko'rmagandi. Orzulari unga hayotga tik va haqqoniy qarashga xalaqit berardi.

Bir kuni tong mahal Normat polvonnikiga Sharif ko'sa otlanib, qo'liga miltiq va ancha tashvishli qiyofada kelib qoldi.

- Normat, seni Sho'ro chaqiryapti, miltig'ingni olib borarkan-san.

- Nima gap?! – deb so'radi Normat hayron bo'lib, sho'ro rai-sining o'zini bunchalik kech eslaganiga hayron bo'lib.

Sharif ko'sa Anzirat turgan tomonga imo qilib, Normatga ko'z qisdi. Shunda Normat biron muhim narsa yuz bergarteni angladi.

- Issiqroq kiyinib ol, – dedi Sharif ko'sa. – Kechgacha kelmasak kerak.

- Aka, choy ichib olsalaringiz bo'lardi, – dedi Anzirat Sharif ko'saga, uning tong-saharlab, yana miltiq bilan kelganiga tu-shunolmay, xavotirlanib.

- Choyga bosha vaqt. Bizni Olma qilog'ida – idorada kutib turishibdi.

- Eshitgan bo'lsang kerak, Hotam chavandoz urushdan qo-chib keluvdi, – dedi Sharif ko'sa yo'liga chiqqach. – Uch yildan beri ushlay olishmayotgandi. Tojistikonda, tog'larda qochib yuribdi ekan. Kecha yarim kechasi Sapor o'g'ri xabar berdi, uyga kelgan emish. Bugun ushlamasak, yana qo'ldan chiqadi. Rais seni front ko'rgan, opkel dedi. Yana voenkomatdan uch kishi bor.

Terakilik Hotam chavandozning urushdan qochgani va qayerlardadir qochib yurganini Normat ilgari eshitgandi. Biroq bir-dan yuragi xijil bo'ldi. «Nahotki, endi ham tinch qo'yishmasa?!» deb o'yaldi u ko'nning bir chetida norozi bo'lib.

Idora oldida to'rt kishi ularni kutib turardi. Ikkita qozoq sol-dat, harbiy komissariatda ishlaydigan no'g'ay kapitan va qish-loq sho'rosining raisi Mirzaqul ham bor edi. Normat uni negadir urushdan oldin Rais bo'lgan paytidanoq yoqtirmasdi. Normat qaytgandan so'ng uni Norsapar bechoraning janozasida ko'rgan va «Buncha semirib ketibdi?», deb o'ylagandi.

- Normat, voy, zang'ar-ey, senam hech ko'rinish berasanmi o'zi, – dedi Mirzaqul yarim chin, yarim hazil do'q urib. – Xotining qo'ynidan chiqmay yotaberasanmi?

- Rais bova, shu mensiz ham ko'p ekansizlar, bormasamni, deb edim. Oyog'imsovuuqqa chidamaydigan bo'p qolgan, – dedi tavakkaliga bahona qilib.

- Hu-u! – tovushiga rasmiy tus berib, qo'lini paxsa qildi Mirzaqul. U negadir Normatni ko'rib, tipirchilab qolgandi. – Mening tomorqamga ishga borayotganing yo'q. Hukumatding buyrug'ini

balaryapsan... Senga o'xhash zang'ar urushdan qochib, hamman-mizni sharmanda qildi.

- Choretimliklar hali hech kindi sharmanda qilmagan, og'iz-sina qarab gapiring, rais bova, – dedi Sharif ko'sa o'ksingan va haqoratlangan qiyofada.

U juda orkash, lekin sipo odam edi. O'zi brigadirlik qiladigan qishloqlar haqida yomon fikr bo'lishmini istamasdi.

Bu ish shu darajada tez yuz berdiki. Mirzaqul tanishlarini ora ga sololmay ham qoldi. Oshmasining frontga jo'nattlganini eshitib va kolxzor raisining ishdan ketganidan qo'rqib yurgan kunlarida unga ham chaqiruv qog'oz'i berildi. Unga urush davrida qilgan katta xizmatlari evazigagina sud bo'lishdan xalos etilib, o'z ixtiyori bilan frontga jo'natlilayotganini aytishdi.

Anziratning kaltaklanishi va uning chala tug'ib qo'yganini, Normatning uyini tashlab ketgani, lekin o'yamashi kimligi noma'lum ekanligi, choryetimliklarning boshqqa urug' ichida boshini ko'tara olmay qolishgani, ularning tutantiriqday tutab yotganligi haqidagi mish-mishlar qo'shilib-chatiib, uning qulog'iga yetib kelgach, u da'atan esankirab qoldi. Lekin Anziratning miq etmagani va o'z nomi sirligicha qolganini bilgach, ko'ngli sal tinchidi. Anziratning olim to'shagida yotganini eshitgach, uning ko'ngli o'zi ham tushunmas bir mehrga to'ldi.

Urushga ketisidan oldin u Anziratni ko'p qo'msadi. Agar o'lib ketsam, u meni hamisha qarg'ab o'tadi, yuragimda armon qoladi, deb o'yladi. Oxirgi marta uning qatiq hidi keladigan sochini hidlagisi, umrining eng shirin damlarini bir zum qayta his qilgisi keldi: "Agar shunday qilsam, urushga armonsiz ketaman", deb o'yladi. Normalning uyini tashlab, boshqa uyda yashayotgani unga umid bag'ishladi.

Urushga ketish oldidan Anziratni ko'rish istagi uning butun vujudini qamrab oldi va oxiri bu maqsadga, yovvoyi va yana o'sha tiyiqsiz maqsadga aylandi.

"Tersotadan boshlangan mish-mishlar jilg'asi asta-sekin menyib, juda katta to'lqingga avlanti va tog'u tosh demay bir necha haf'a ichida butun qo'ng'irot elini qamrab oldi. Bu to'lqin shu davolada shiddati va ohanrabo ediki, uning suviga yuz yuvma-jum odam deyarli qolmad. Mish-mishlar to'lqini ulkan daryoga oylinib, xuddi bahor paytidagidek quturib, qop-qora bo'llib, yo'llida uchrangan to'siqlarni yiqitib, shiddat bilan qishloqma-qishloq hostirib kira boshlad. Tersotadan kichkina jilg'a bo'llib chiqqan bu dayo tezda Hisor tizmalaridagi qishloqlarning yarmini bosib olib bahaybat ko'iga aylandi. Bu ko'l o'z chegarasini asta-sekin hengaytira borardi.

Har kim bu mish-mishlar sharini kuchi boricha puflab, shishirishga harakat qilar, urushdan charchagan odamlarga bu shar juda qulay ermak edi. Voqealar pufagi shu darajada semirib ketdilek, oxir-oqibatda odamlar bu voqeal qaysi qishloqda, qay mahal, qay tarzda sodir bo'lganini ham esdan chiqarib, quruv voqeanning o'zini hikoya qila boshladilar. Falon qishloqda, falon kishi urushdan uyiga qaytib kelsa, xotini o'yamashi bilan yotgan emish, u alamidan o'zini osib qo'yibdi... Yoki falon kishi urushdan qaytsa, xotini o'ynashidan bola orttirib o'tirgannish, u bola-sola bilan xotinini uyiga qo'shib, yoyqib yuboribdi... Falon kishi urushdan kelsa, xotini boshqa birovga tegib ketibdi, bechora nomusga chiday olmay yana urushga qaytib ketibdi va hokazo...

Biroq Normatning o'ziga yuz bergan hodisaga ishongisi qandaydir yomon tush va men tush ko'ryapman, tezda uyg'onib ketaman, hammasi birato'la tugaydi, deb o'yldi. Amno bu tush uzoq va so'ngsiz tushga o'xshardi, uni azoblar, o'zini o'ngarib olsiga imkon bermasdi. U o'sha kuni nimalar qilganini eslay olmas, Anziratni bo'g'dimi yoki urdimi, hammasi alang-jalang esida qelgan, boshidagi jarohat qo'zib, xotirasini zaiflashtirib qo'yganidi. Uning aldangan ko'ngilda xilma-xil rejalar kezar, bular ham aldangan va xo'rangan kishining rejalari edi. Bu sharmandalikka chiday olmay, qayoqquadir bosh olib ketgisi kelardi. Uning xayolda dam-badam "Bu nomussizliklarni ko'rguncha, nega o'sha yodqlarda o'lib ketmadim, nega men qabrini Xudo ham unutgan kishilarning biri bo'imadim", degan afsus va nadomat kezar edi. U:

"Elim-yurttim, bolam-chaqam deb, qirg'inlardan omon qaytdim, boshqalarday begona xotinlarga ko'z olaytirmadim, xotinimni o'yladim, uni eng vafodor, deb bildim, unga xiyonat qilmadim, uni deb yetib kelsam-u, men sig'ingan el meni mana bunday kutib oldii!", deb o'ylar, o'kinar, o'ksinar edi. Shunday paytlar oyog'ini kesgan vrachni, uning daldalarini, urallik soldatni va doimo "Sizlar bu yerdan turib o'z yerlaringni, bola-chaqalarini himoya qilijapsizlar, g'olib bo'sangiz, ellaring sizlarni poyondoz to'shab kutib oladi, mag'fub bo'salarining, sizlarni quvib haydaydi" – deb tashviq qiladigan zampointni eslar ekan, ularning hammasi uni aldagandek va gaplari ham bema'ni, keraksiz narsaga, o'zingning ustidan kulish uchun ataylab to'qilgan matallarga o'xshab qolgan edi. "Meni, avvalo, urushga bor, deb aldashgan, keyin urushda aldashgan, xotinimni yo'ldan urish uchun meni urushga yuborishgan – urushda ishlarni bitkazish uchun aldashgan, meni hamma aldagani, ko'rgan har bir kishi aldagani, kelgan birinchi kunlarmidayoq aldashgan, yo'llarda aldashgan, gospitalda aldashgan, mana shu mash'um voqeani ko'rsatish uchun uyimga qaytarishgan, so'ng ustimidan kulib yurishgan, meni hamisha aldab kelishgan", deb o'ylar edi. Kelgan kunlari odamlarning jil-mayishlari ham, harakatlari – hamma-hammasi mana shu narsadan dark bo'gan. U esa ularning masxaraomuz jilmayishlariga ko'r-ko'rona qo'shilib, jilmayib yuravergan.

Yuragi tub-tubidan og'irdi. Bu og'riq asablarini ezib tashlayotgan va boshidagi yara ham og'riy boshlagandi. Nimadir ignaga o'xshash narsalar uning yuragiga keilib urilar, ichi, bo'g'zi yonib, quruqshab, achishib borar, boshidagi og'riq tobora kuchayotgan edi. Kimdir uning miyasini timmay changallar – ezk'ilar edi. U qayrgan kunlari Anziratda allanechuk begonasirash sezgan, lekin buni urushga va ko'rishmagan to'rt yilga yo'yan edi. U Anziratga xos bo'lgan ko'ngilchanlik va o'ziga yarashadigan nozli ishvalaridan endi qandaydir yengiltaklik topganday, u butun umr bir buzuq xotin bilan o'zini bulg'ab kelganday, qo'ynda illonni saqlab yurganday bo'lardi. Anziratning avvallari unga yo'qdigan barcha kelinlik odatlari endiunga o'sha buzuqligidan darakchidek tuyulardi. Uning ojiz va beqaror qalbi yana urushda yurgan kuniqidagi tushkun holatga qaytgan, ishonchisizlik va qayg'uga to'lgan edi.

U bog' to'ridagi uch yildan beri qarovsiz yotgan Biydi momo ning kenja o'g'lining uyida yashay boshlagach, boshqa hech qayqqoq qa chiqmay qo'ydi. Uning bosh ko'tarib yurishga qurbi yetmas edi. Uni kam kishilar yo'qlab kelardi. Ba'zida issiqsovug'dan xabar olgani Biydi momo yoki katta kelini va Sharif ko'sa kelardi. Biydi momo unga javrab-javrab ketardi. Keyingi kunlarda Normatning shu ammasidan bo'lak yaqin kishisi qolmagani uchun u ammasi dan kuyinchak bo'slib yaratilganini, uylansa bo'ldi. Anziratdan munosib o'ch olgan bo'lishini aytilib, Normatni holi joniga qo'ymasdi. Normat esa boshqa uylanishni xayoliga ham keltirmasti. U shunday paytlari yolg'izlukni istardi. Uyerga kigiz, po'stak to'shab tashlangan keng xonada yolg'iz yotar ekan, ichi sovib borayotganini, ko'ksida qandaydir muz paydo bo'lganini, unga hammasidan ham shu muz ko'p azob berishini his qilar, muz esa tobora kattalashib borardi. Xonaning chirog'ini ham yoqmay yotarkan, muzlab yotgan vujudida qandaydir o'limtik his kezayotganini sezar, o'zini dunyodagi eng baxtsiz kishi deb hisoblardi.

Ba'zi-ba'zida uni Sharif ko'sa yo'qlab kelardi, eski gapdan og'iz ochib, oshnasining ko'ngliga ozor bergisi kelmay, uning oldida koatlab o'tirib ketardi. Normat uni ko'rib g'ijinib o'tirar, gaplarini istamay eshitar, xo'mrayib olar, o'zining ojizligini ko'rsatmaslik uchun shunday qilardi. U hali ham o'zini bechora, taqdirga tanbergan kishi qilib ko'rsatishni istamasdi.

– Bu yil sherkchilikka ekamizmi? – so'rardi oradagi sovuqlikni yumshatish uchun Sharif ko'sa. – Yer rosa tobga kelyapti-da. Jonivor qor izma-iz yog'di-ya! – shunday deya Normatga o'grinchicha nazar tashhardi.

– Men o'zin ekmoqchiman, – dedi Normat uning hafsalasini pir qilib.

– Qayerga? Hamishagi joyinggami?

– Ha.

– No'xat ekasamni, no'xat bozorda qimmat deyishadi. |Bir torozsiga bir eechki berayotgan emish. Yoki zig'ir ekasamni?..

– Ha! – baqirib berardi o'mridan dast ko'tarilib Normat – No'xat ham ekaman, qovun-tarvuz ham... Hammasini ekaman, to'lgan edi.

tinch qo'yasanmi, yo'qmi?! Nega menga kanaga o'xshab yopishib olding?!

– Nega baqirasan! – Sharif ko'saniki ham tutib ketardi. – Nega menga baqirasan?! Nima, otangni men o'dirdimmi? Senma faqat.. shunday bo'lgan?! Odamlarning bolasi, otasi o'lib kelyapti! Ular senga o'xshab tarkidunyo qilib olgani yo'q, erkakmisan o'zi, bunday bovuringdi ko'tari.. Yotishingni qara.. He, menga desa o'lib ketmaysamni?!

Sharif ko'sa xafa bo'lganday chiqib ketar, baribir, yana gunoh-kordek: «Ha, yotibsamni, ota uli», – deb kirib kelardi.

– Balki, hammasi bo'lmag'ur gapdir, a, Normat? – dedi bir kuni o'tirib-o'tirib Sharif ko'sa. – Balki, shunchaki ayollarning va-himasidir. Hech kim birona bilan ko'rmanag'-ku.

Normal unga hafsalasizlik bilan qaradi. Uham bir necha kunden beri shunday shubbaga borar, biroq uni o'zi oldin yuzaga chiqarishga qo'r姜ardi.

– Kim aytdi bu gapni? – deb so'radi jahl bilan.

– Hamma, butun qishloq ayyapti.

– Xotiningam shunday deyaptima?

Sharif ko'sa ensasi qotgandek qo'l silkidi:

– Xotinlarning hammasi shunday, vahimachi bo'ladi. Ayollar nima, sigir nima, mish-mishni kavsh qaytarib turmasa, yeganları hazm bo'lmaydi.

Shunday paytlarda Normalning qorong'i va zulmat bosgan ichida xira bir chiroq yonganday bo'lardi. Ichii yorisha boshlardi. Bu nur hali kuchisz va zaif bo'lsa ham vujudi allanechuk isirdi.

XIII

Anzirat qorlar erib, kunlar isiy boshlagachgina zo'rg'a turib yuradigan, tashqariga o'zi chiqib kiradigan bo'ldi. U ozib ket-gan, avalgi chiroyidan asar ham yo'q, sochi birdan oqarib, qarib qolgandi. Homilasi tushganidan keyin ko'p qon yo'qotaverib, sarak-sarak kasalli boshlangandi. Boshini tik tutib yurolmas, doim mushtipar tikilar, yuzida qoni yo'qligidan oppoq yuzi murdanikidek sovuq edi. Ko'zları cho'kib kirtaygan, kosasi qo-rayib ketgan, atrofga matnisiz va ittijoli ko'z yugurtitar, boshi qaltrayvergandan uning qayerga va nima uchun tikilayotganini qilib bo'imasdi. Uning o'zi ham bir narsani yaxshilab ko'rib olish

uehun uzoq tikilib turgandan so'nggina anglar edi. Xuddi bir naradan uyalayotganday, bir kafti bilan tez-tez yuzini yashirib, kafhlari orasidan nozlanayotganga o'xshab qarar, sekin, zaif to-yushda, voy, men o'lay, deb qo'yardi. Uning bu qiligi yarash-madgina emas, kishida qandaydir achinish tuyg'usini tug'dirar edi. Uni avval ko'rgan kishilar bu o'sha Anzirat ekaniga daf atan sira ishongilar kelmasdi. Uning ko'zları shu darajada beparvo yiltillardiki, go'yo ikkita chuqur g'orda nochorgia yonib tur-gan moychiroqlarga o'xshardi. Hatto Xolmat bilan Hojarni ham zo'rg'a, ancha tikiilib turgandan so'nggina tanirdi. Yurganda ham xuddi surinib ketishdan qo'rqqan yoki suv to'la idish ko'tarib bo-rayotgan-u, suvning to'kilishidan qo'rqqib, ataylab sekin va ehtiyyot bo'lub yurayotgandek qadam tashlardi.

Ikki oydan beri boshida o'tirib chiqqan Xanifa ham unga qarab boshini chayqar va labini qattiq tishlab, yig'lab yubormaslik uchun ko'zlarini tizzasiga bosardi. Ko'rgani kelgan kelinchak-lar unga ko'zları tushishi bilan tashqariga yugurib chiqib ketar, ton orqasiga o'tib, yig'lashar, qishloqdoshlari uning ikki oyda burchalik qarib va cho'p-ustuxon bo'lub qolganiga ajablanishar, biroq hech kim biron narsa deya olmasdi. Mulla Xidir ham qizning kimdandir bola ortirganini, Normalning uyini tashlab chiqib ketganini eshitgach, kelmay turiboaq: «Mening unday qizim yo'q, oq qildim», – deb ovoza qildi. Otasining oq qilgani Anziratga, ayniqsa, qattiq ta'sir qildi, U bir hafta hech narsa yemay, hech kimga gapirmay shiftga tikilib yotdi. Bir haftadan keyin boshini ko'tarib, "Otam kelmadimi?" – deb so'radi. Kelma-qanini eshitgach, niyoyat, so'ngi bir oy ichida ko'ziga yosh olib: "Men otam keldi, deb, ko'zimni ochibman", – dedi-yu, yig'lab yubordi. U o'mnidan turib yura boshlagach ham madorsiz edi. Sal narsaga yiqilib tushay der, oyog'ini sal ioto'g'ri bossa ham dovdirab ketar, yurganda qo'llarini oldinga cho'zib, xuddi hech harha ko'rmayotganday lapanglab, zo'rg'a yurardi. Qo'llari ham timisiz qaltilrab turar, doim nimanidir izlayotganday yoki kim-nidir ko'rishni istaganday atrofiga ham qo'rquiv, ham umid bilan tuktardi.

Qo'iliga tekkan narsani sekin ko'tarib ko'rар, so'ng hafsalasi pir bo'lub tashlar va yana nimandir izlay boshlardi. "Nimani izlayap-siz?" – degan savolga javob ham bermas, timirkilay-timirkilay,

qo'llari tolgach, horib, qo'llarini ko'rpa ostiga tiqar, ko'zini yumar, shu holatda uzoq yotar, so'ng yana nimanidir izlab, qo'llari timirkilanar edi.

– Nimani izlaysapsiz? – so'radi Xanifa uning juda bezovta bo'layotganini sezib.

– Yo q-yo'q... hech narsa... – derdi u va qo'llarini ko'rpa yashirar, Xanifaga sinovchan ko'z tashlar, unga uzoq tikilgach, xuddi to'satdan tanib qolganidek: – Tumorim qani?... – derdi zaif tovushda. – Ko'k tumorim... Otam Boqoxon eshonbobodan oberib edi... qizginanga...qizginanga deb, oberib edi... otajonginam...

Xanifa nima qilishimi bilmas, lablarini qonatguday bo'llib tishlar, xonaga ko'z yogurtirib:

– Men uni olib qo'ydim... yo'qolib qolmasin deb olib qo'ydim, – derdi o'ylab topgan gapidan xursand bo'llib ketib. – Sal madorga kirsangiz, taqib yurasiz.

– Otam, buseni balo-qazolardan asraydi, deb obbergandi. Sen mening yolg'iz qizimsan, shuni taqib yursang, hamma ko'rgilik sendan nari yuradi, deb, obbergandi...

– Otangiz ko'p yaxshi odam... – Xanifa iloji boricha uning ko'nglini qoldirgisi kelmasdi. – Hali sizga ko'p tumorilar obberadi, siz hech narsani ko'rmaganday bo'p ketasiz...

– Enam... meni ko'rgani ham kemaysan, dermish tushimda... Men yaqinda ko'rgali boraman, enajon, faqat tumorimni topib olay, dermishman. Taqib yurmasam, otam xafa bo'ladi, depman... – Yaxshilikka bo'lsin, iloyo, yaxshilikka bo'lsin! – Xanifa ko'zlaridagi yoshni artardi.

– Siz yig'laysapsizmi? – so'rardi birdan avzoyini o'zgartirib Anzirat. – Menga achinib yig'laysapsizmi? Peshonam sho'r ekan, nima qilay, opajon... – birdan ko'zidan yosh quyilib kelardi. – Meni Xudo urgan ekan azaldan... opajon... Sizdan yaxshiliklar ko'rdim... Agar men dumalab ketsam, Xolmat bilan Hojar hovar*da (asli tekislik, lekin shevada "tashlandiq", "kimsasiz" degani) qolmasin, opajon...

– Voy, unday demang, aylanay, hali bu dardardi ko'rmaniday bo'p ketasiz.

– Bilaman... opa, kumim kalta... har kecha enam tezroq kelsang-chi, sochim bittab ketdi deb, boshini titib turadi... Kunim kaltalgini bilaman, opajon.

– Yomon xayol qilmang, aylanay. Hali bolalaringizning roha! ili ko'rasiz.

– Men ham umrim bo'yи shuni orzu qilardim. Nima qilay, ni-

yatunga yetmaydiganga o'xshayman...

– Yetasiz, hali bu kurnardi ko'rмагандай bo'p ketasiz...

Anziratga hech kim Normat haqida gapirmsasi. Undan hol so'lagan keleganlar faqat o'z tashvishlarini gapirib, Anziratning ko'nglini ovlagan bo'lishardi-da, shu bilan burchularini bajargan bo'llib, iziga qaytishardi. Kelinchaklarning hammasi Anziratning oldida quvnoq bo'lishga, uni oz bo'sa ham nimadandir quvonti tilishga harakat qilishardi.

Biroq u kundan-kunga ozib, madorsizlanib, holdan toyib bo'ndi. Ikki oy ichida uning tanasi cho'pga ko'ylik kiygizib qo'yildi. Shu qurib qoldi. Ko'kish tusga kirgan sochlari juda tez oqarmoqda edi. Uni birinchi ko'rgan kishi elliklarga borib qolgan bo'lsa kerak deb gumon qilardi.

O'nidan turib yura boshlagandan bir haftalar keyin uning kasalliy qayta o'ringa yotqizib qo'ydi. Endi uning butun tanasi ko'kara boshlagandi. Dastlab chakka tomirlar ko'kardi. So'ng limodosh kelinchak unga ko'zi tushar-tushmas, serrayib qotib qoldi va yugurib ayvonga chiqib, yig'lab yubordi.

– Ayollarning sho'ri qurisin! – yig'lar edi u devor mushlab. – Un o'ylab topganlarning hammassini qora yer yutsin, iloyim! Ey, Xudo, biz senga nima gunoh qib edi, bizga buncha azob yuklaysin! Xudo yim, bu nimasi?! Tirik murdaning o'zi-ku!.. Shunchayun azob bo'ladi mi?!

Anzirat uni ko'rgani kelgan no'g'ay feldsher dorilar tashlab ketgach, yana qayta yura boshladi.

Otasining opasini urib, yana ularni tashlab ketib, o'zi Biydi momonikida yurganiga hech tushunolmagan Xolmat juda muhazzall bola bo'llib qolgan edi. Opsi kasal bo'gamidan beri ubialalar bilan o'ynamas, Hojarni ovutar, onasiga issiq suv qaynab, choy ichir, pechka yoqar, uy supurar, molxona tozalar, o'tin yorardi. Kechalari opasining boshida o'tirib, shu holatda ulab qolar; opasining yotib qolgani uni birdan katta odan qilib ip'yan edi.

- Bolam, sen ham tashqariga chiqib, o'ynab kelsang-chi, -
derdi Anzirat bolasining yolg'iz o'ynab o'tirganidan ezip.
- Bormayman, - derdi Xolmat xo'nrayib. - Bolalar masxara
qiladi...

Anzirat uning gaplaridan uyalib ketar, shosha-pisha o'zini
ko'rpa ichiga tortar va yig'lab yuboradi.

- Hali sizlarga ham azob beryapmanmi? - deb Xolmatga
tikilib, uzoq yig'lardi. - Illoyo, bu kundan onang o'lsin, o'g'lim,
silarni sharmanda qilmay, opang o'lsin... o'lim tilal Onanga o'lim
tilanglar!..

- Siz buzuq emassiz, shundayimi? - derdi Xolmat uning
yig'layotganidan o'zining ham yig'lagisi kelib. - Men bilaman!
- Yo'q, buzuq emasman, - yig'lardi ona Xolmatni quchib.

Sen ishonsang.. buzuq emasman.

- Ona, hammasini anavi yalmog'iz qilgan. Bilaman, bizzdan
otamni tortib olish uchun shunday qilgan. Men bilaman. O'sha
ning nabirasi birinchi boshhladi «onasi buzuq bilan o'ynamay-
man», deb.

- Ularga quloq solma, - o'pkasini bosolmasdi Anzirat. - Men
ga ishonsang bo'ldi. Buzuq emasman, ularning o'zları buzuq.

- Ular bilan hech o'ynamayman, ular meni yetimcha ham de-
yishadi, yana aytishadiki..

- Qo'y, bolam, qo'y, aytma...

Anzirat Xolmatni quchganicha o'kirib yig'lar, hozir o'g'i o'zining
boshqqa bir aybini aytib yuborishidan qo'rqiб, uniig og'zini yopar-
di. U qilgan xato faqat o'zini emas, bolalarini ham, otasini va butun
qishloqning tilini qisq, sharmanda qilganini anglar va bunday no-
musga chiday olmay o'ziga o'llim tilardi. Yolg'iz o'lim... Bolalarining
tashqariga chiqmay qo'yganimi, ularning siqilib o'tirganini ko'rgan
sayin ezilib, yig'lab, azob va nomus uni tobora yeb, uning butun ma-
dorini sug'urib borar, uni yana to'shakka mixlab tashhardi.

U endi o'midan turib yura boshlagan paytlarda bir kuni Xol-
mat uyga yugurib kirib keldi. Uning ust-boshi ho', yuzi qizariб
ketgan, xuddi bir ayb qilib qo'ygandaloy ko'zlar bejo chaqnar,
tashqariga qarab-qarab qo'yardi.

- Ni'ma bo'idi, o'g'lim? - so'radi qo'rqiб ketgan Anzirat uning
vajohatini ko'rib.

- Urdim, - dedi hansirab Xolmat.

U gapirib bo'lmasdan eshikdan Ne'mat siringning uzun, burni
tojik bashara xotini ko'rindi. U qo'liga tol xivich ko'tarib olgan,
qo'rqiб anib kelardi. U eshikdan kira solib: «Hali quturib qolding-
ni sen yetimcha?», - deb, xivich bilan Xolmatning yuzi aralash
tuhibdi. Xolmat chiyillab yig'lagancha Anziratning orqasiga o'tib
yashindi.

- Nega birovding bolasini urasiz? - birdan tutaqib baqirdi
Anzirat. Uning kela solib, yuz-ko'zi demay, o'g'lini savalab qol-
gan, xuddi u yo'qday, xuddi u o'lganday, bolalari ko'chada qol-
landay qilib savalagani alam qilib ketdi. - Nega urasiz? - yana
baqirdi bo'g'ilib va tuyqus yo'tali tutib qoldi. - Nega urasiz?!.
Uhu, uhu-hu-hu, nima? Uhu, uhu... men hali shunday oyoq ostida
qeldimmi? Uhu, uhu, nima qildi sizga?..

- Ni'ma gunoh qilganimi o'zidan so'rang, kelin, - dedi aylol
shabari va kinoyali tovushda. - Bolajoningizidan so'rang, qonga
bu'yo'bo tashlabdi-ku, yana nima qilishi kerak?

- O'zi «onang buzuq», dedi, masxara qildi, - dedi Xolmat ona-
ning ortidan yig'lab... - Shunday degach, uraman-dal..

- Voy, o'rgildim sizday enasining himoyachisidan! - shang'il-
kali Ne'mat siringning xotini. - Ni'ma, enangning buzuqligi yolg'on-
ma? Ana, enangdan so'ra yolg'on bo'lsa, buzuqni buzuq deydi,
koi'mi ko'r, karni kar deydi-da! Ham g'arlik, ham shang'illik degani
shu'da. Ana, yolg'on bo'lsa, opangdan so'ra juvomnarg ketgur...

Yashiringan joyidan chiqib Xolmat onasiga qaradi. U onasi-
ning buzuq emasligini manavi raqibning onasiga ko'rsatib
qo'yishdi, buzuq emasligini isbotlashni istardi. Anzirat dovdirab
qo'ldi. Ne'mat siringning xotinidan ko'zlarini olib qochdi. O'g'lining
binhini quchoqlab olib, qalitiroq tovushda.

- Unday demang! - dedi u zaif va alamli tovushda. - Unday
debi bolani buzmang. Hali tirik ekanman, hech kimga urishga
yol qo'ymayman, eshitapsizmi? Yo'l qo'ymayman.. Hech kim-
ga holtattib ham qo'ymayman... Men o'ganimdan keyin urasiz
bulardi!..

- Ohoh! - dedi Ne'mat siringning xotini butun qishloq eshitsin
degonday qo'llarini beliga qo'yib, gavdasini likillatib, battar
ishoni illay boshhladi. - Oho, hali men oppoqman ham dersiz, hali
bulani ham sen tug'ding, dersiz? Yo'q, nega ham g'arlik qilib, ham
tahand kelesan... - U birdan sensiray boshhladi. - Bolani men emas,

sen tug'gansan, buzuqlikni sen qilgansan, yana bolangni ham busan, birovlarini ur, deb o'rgatasan!.. O'yinash orttirib, qishloqni sharmanda qilganing yetmaganday, bolangni ham bosmachilikka o'rgatasan, senga kim qo'yibdi gapirishni?! Oldin etagingdagidog'ni yuvib ol. Keyin gapirasani. Oldin bolaringni tiyib yur, katta bo'lsa, bularniyam o'ynashilikka o'rgatasan...

- Bas qiling!.. - telbalar day o'kirib o'midan turdi Anzirat.

Unga oxirgi gap juda o'tib ketgan, u dag'-dag' titrar edi. Ko'zlaridan yosh quyilib oqar, lekin artishni xayoliga ham keltirmasdi.

- Bas qiling hozz-zir chopib tashlayman! - U pechkaning oldida turgan boltaga tashlandi. - Chopib tashlayman... jomimdan to'yib ketdim. - Boltani ko'tarib oldinga yugurdidi. - Tinch qo'yassanni, yo'qmi? Nega meni uyinga bostirib kirib, ayg'oqchilik qilasan...

Nega bolalarimga kun bermaysilar? Men senlarga nima gunoh qidim, nima ayb qildim... senlarga... arpalarimgi xom o'rdim.

- Uning vajohati qo'rinchli edi. Ko'zlar quturganday qizartib ketgan, ro'moli tushib, oqish sochlari to'zib ketgandi. Lablari g'a' zabdan titrar, qo'llari qaltilar edi. - Hammang meni gap qilasan, hammang alamingni mendan olasan! Nima, o'zlarining oppoqmi? O'zlarining hech ayb qilmagan misanlar? Aybimni bilmaydi deb o'yalsizlarimi? Hammangni o'idiraman... o'diraman!..

U serrayib qolgan Ne'mat sirriming xotiniga qarab boltani ko'tardi. Ne'mat sirriming xotini uning avzoyini ko'rib, qo'rqib ketdi va orqaga chekina boshladi...

- Voy, odamlar, o'dirib qo'yadi! Jinni bo'p qoptil! - degancha tashqariga yugurib chiqib ketdi. - O'dirib qo'yadi... qutqaring...

lar... voydod, odamlar!..

U tashqarida to'plangan uch-to'rt odamning orasiga o'zini urdi va baland ovozda shang'ilay boshladi:

- Bu qishloqda turib bo'lmay qoldi, bu buzuq hammani sharmanda qildi! O'yinash orttirib, endi zo'ravonlik qilyapti. Ishtoni boshiga kiyib olgan bu. Bolasini ham buzuqlikka o'rgatyapti.. Bu bilan bir qishloqda yashab bo'lmay qoldi. Yo u tursin bu yerda, yobiz turaylik, bu nima sharmandalik?..

Anzirat u chiqib ketgach, eshikning ichidan tambaladi-da, boltani chetga uloqtirib, o'zini pechkaning yonidagi po'stakka tashlab, ho'ngrab yubordi, og'ir va baland tovushda taqdirini, qis-

matini qarg'ab, uzoq yig'ladı. U xo'rangan, haqorat etilgan, dun-yidän umid uzgan, orzu-umidlari parchinlangan, zabun, keraksiz kishi bo'lib qolgan alfozda, tokî hushidan ketguncha, o'zini bosolmay, ho'ngrab-ho'ngrab yig'ladı.

Hushidan ketib qolgach, uni ovuta olmay o'tirgan Xolmat lishqariga yugurib chiqdi-da: «Onam o'lib qoldi», deb baqirgan-chu yig'lab, Xanifanikiga qarab jomholatda yugurib ketdi...

Kunlar illy boshlagach, Anzirat kasaldan tez tuzala boshladi. No'g'ay feldsher tashlab ketgan dorilar unga kor qildi. Qishloq kelincholdari uni yolg'iz qoldirmay navbatma-navbat kelib turishdi. Ular o'zlarining sho'x va samimiy kulgilari bilan Anziratning otomishini oz bo'lsa ham unutib, hayotga havas bilan qarashga majbur qilishdi.

XIV

Normatning keyingi kunlarda qishloqda turgisi kelmay qoldi. U o'zining hayotidan xabardor bo'lgan kishilarni ko'rgisi, ularning hamdardonaya yoki masxaraomuz tiryayishlariga chidab, ko'nglini buzgisi kelmas edi. Ov militig'ini olib, qorato'shda qishloqma-qishloq kezib yurar, yuragini shunday qilib biroz yozgan bo'ldi. Tog'lar esa uni goh tumanli, goh ochilib, goh xo'mrayib hothib olar, uning ko'ngliga mos ravishda gung va soqov edi. O'g'riyellian erkak qalbi kimga yorilsin? Tog'u tashlargami? Yo'llargani yoldi asriy, bunaqa dardlarni ko'raverib, afti ham, peshonasi ham tirisib ketgan archalargami? Ular og'riq nima ekanini qayordan bilsin? Erkak qalbini qayerdan tushunsin? Qayerdan angin?!

Normal deyarli ov qilmasdi. Faqat oldidan chiqib qolganda yoki zavqi kelgandagina ov qilar, nomigaina miltiq yelkasida yurardi. U haftalab qishloqqa kelmas, tog-dan-tog'ga o'tib, tanish qishloqlarda yoki eski g'orlarda tunab yurardi. Hamma joydan u ishlashmay ketib, kutlimaganda paydo bo'lib qolardi.

Asta-selkin u boshiga tushgan kulfatni biroz unutgan, shunday so'qqabosh yashashga ko'nika boshlagan bo'lsa ham, Xolmat bilan Itolarni sog'inardi. Shu sababli achishgan yuragiga malham ieler, biroq dunyoda unday malham yo'q edi. Aslida, qishloqqa u hujahini uzoqdan bo'lsa ham bir ko'rish uchungina kelar, ulami eng'salomat ko'rgach, yana ovga chiqib ketardi.

Qishning o'talarida u qishloqda bir haftacha turdi-yu, oyning oxirlarida yana ovga jo'nab ketdi. U bu gal Boshchorbog' tomonlardagi adirlarg'a jo'nadi. Kechga yaqin o'zi ham nomini bilmaydig'an to'rt-beshta uyning chirog'i yonib turgan kichkina qishloqqa kirib bordi. Uning qorni juda ochgan, qorato'sh ham charchab surina boshlagan edi. Bugun shu qishloqda dam olmoqchi bo'ldi va daraga tutash yalangda joylashgan, hayoti kattagina, ko'proq terak ekilgan bog'i bor, eski bir uya otini burdi. Uyga yetmasdan uni katta olapar it butun darani larzaga solib, hurib kutib oldi. Itning ko'rinishiyoyq vahimali edi: junlari uzun va hurpaygan, o'zi naq eshakday keladigan, tovushi dag'al, odamga tikka tashlanadigan orlon kuchuk edi. U Normatni o'ziga qarashli mulkda ko'rgach, qorni sachratib yugurib keldi. Uning sharpasidan qora-to'sh hurkib, quloqlarini ding qildi va to'xtab qoldi. It kela solib, otning dumiga tashlandi-yu, o'ziga o'girilgan miltiqni ko'rgach, irillab, pichoq tishlarimi ko'rsatib, orqaga tislandi. Qorato'shning oldini to'sdi.

- Olapar, mah-mah, jum bo'l, - dedi Normat uning tusiga qa'rab, tavakkaliga. - Kim, he... harom qotgur, tanimayapsamni?!

It uning tovushini eshitib, battar vovillay boshladidi. It qayyoqqa o'tsa, Normat o'sha yoqqoq miltiqni burardi. It aylana turib, bir dan otning tumshug'iga tashlandi: qo'rqib ketgan ot o'zimi birdan orqaga olib, oldingi oyoqlarini tikka ko'tardi-da, kishnab yubordi, sal bo'limasa Normat egardan uchib ketayozdi.

- Olapar... To'rkko'z... kim bor?!.. - dedi ujonholatda itning nomini topishga harakat qilib. - Ko'r bo'lgur, jum bo'll..

Pastakkina uyning eshiq'i ochilib, bir kishining qorasi ko'rindan izidan xiragina fonus chiqdi. Uy egasi fonusni bo'y'i barobar ko'tarib:

- Kim u? - deb so'radi ingichka tovushda.

Normalitning o'zini joyidan qimirlatmay qo'yanidan boshiqotib turar edi, tovushni eshitib, xursand bo'ldi:

- Qarindosh, itingizni chaqirib oling, toza ovora qildi-ku.

It esa egasining tovushini eshitishi bilan dadillanib, qayta hujunga o'tgan, otni aylanib battar hura boshlagan edi.

- Sirtlon, mah-mah, tur, joyingga bor. He, o'l, bor!..

It dumini likillatib bir-ikki hundi-da, otga yo'l berdi, bog' devorning bir chetiga borib, kuzatib turdi.

Qishning o'talarida u qishloqda bir haftacha turdi-yu, oyning oxirlarida yana ovga jo'nab ketdi. U bu gal Boshchorbog' tomonlardagi adirlarg'a jo'nadi. Kechga yaqin o'zi ham nomini bilmaydig'an to'rt-beshta uyning chirog'i yonib turgan kichkina qishloqqa kirib bordi. Uning qorni juda ochgan, qorato'sh ham charchab surina boshlagan edi. Bugun shu qishloqda dam olmoqchi bo'ldi va daraga tutash yalangda joylashgan, hayoti kattagina, ko'proq terak ekilgan bog'i bor, eski bir uya otini burdi. Uyga yetmasdan uni katta olapar it butun darani larzaga solib, hurib kutib oldi. Itning ko'rinishiyoyq vahimali edi: junlari uzun va hurpaygan, o'zi naq eshakday keladigan, tovushi dag'al, odamga tikka tashlanadigan orlon kuchuk edi. U Normatni o'ziga qarashli mulkda ko'rgach, qorni sachratib yugurib keldi. Uning sharpasidan qora-to'sh hurkib, quloqlarini ding qildi va to'xtab qoldi. It kela solib, otning dumiga tashlandi-yu, o'ziga o'girilgan miltiqni ko'rgach, irillab, pichoq tishlarimi ko'rsatib, orqaga tislandi. Qorato'shning oldini to'sdi.

Mehmon kerak emasmi? - so'radi Normat yengil tortib, hishuning oldidagi supada otdan tushar ekan, fonus ko'targan hishuning siyrak soqol, oriqqina kishi ekanini ko'rди.

- Qaysi o'zbek mehmonni quvlabdiki, biz quvlasak, - dedi quvonq va muloyim tovushda fonus ko'targan kishi. - Qani, otinli bering, siz ichkariga kiravering... Eshmat! - deb chaqirdi ichkariga qarab. - Qani, chiq, mehmonni uyga boshla... - uy egasi fonusi chap qo'lda ko'tarib, otni bog'ning etagida qorayib ko'ringan mokxona tarafga yetaklab ketdi. Ichkaridan chiqqan o'n bir yasharlardagi bola avval unga hayron bo'lib qarab turdi-da, in'li uyalinqirab salom berdi va Normatni uyga boshladidi. Uy yevoniz, birinchi eshikdan dahlizga kirilar, dahlizning ikki tomonida ikki eshigi bor edi. Bola dahlizza katta, ichi kigiz etigini yechdi-da, Normatning oyog'iga bir qarab, o'ng tomondagi eshikni itardi. Normat yasama oyog'idagi etigini zo'rig'a yechib, ichkariga, torgina, lekin shifti baland, kiraverishiga tunuka pechka o'matilgan xonaga kirdi. Xonada ikkita bola va bir qiz bor edi: binalar eakkiz va besh yoshlarda, qiz esa o'n uchlar atrofida edi. Hololarning kattasi bilan qiz pechka oldida, besh yoshlardagi siyof uyning o'rutasida katta yog'och kosaga qatiq solib, ichib o'tirotti. Qiz bilan bola Normat kirishi bilan pechka atrofimi unga holishatib berishdi. Normat oldiga qatiq qo'yib o'tirgan bolaga ko'z qoldi va beso'naqay holatda yasama oyog'ini sal egib, pechka oldidiq po'stakka cho'kdi. Bola qatiqu ni oyoqlarining orasiga olib, yon'bo'ch qoshilqeda xo'rillatib ichdi-da, Normatga bir qarab, uni obidan ko'zdan kechirgach, yana qatig'imi icha boshladidi. Qizil baxmal do'ppi koygan, ozgingina qiz sharaqlab qaynagan qumg'omni poylikta ustidän olar ekan, Normatning oyog'iga ajablaniq qaradi, sur'ing uyallib ko'zlarini olib qochdi.

Komuning to'riga ko'rpa-yostiq taxlangan, yakkayu yago'na dorazaga ayol kishining chroponi ilinib, sovuqdan to'sigan, hujiga taxmoni oldida katta yug'och sandiq turar, sandiq yuzidagi fannlarni bola chizgani o'xshovsizroq gullaridan ko'riniq turar, yerg'inga kotta qufl osilgan, devorlarga kashtalar ilib tashlangan, yerg'inga hujiga undan namatlар to'shalgan, qatig' ichib o'tirgan bolanining hujiga kucha qora idishda yovg'on qaynar, yovg'onga qurt solingenan bo'lsa hujiga, hudi xonani tutgandi. Pechka oldidagi cholma*ni (qotirilg'ini tezak) aytmasa, xona ancha shinam va toza edi.

- Adashib qoldingizmi? - so'radi undan boyadan beri oyog'i¹ dan ko'z umzay o'tirgan, otasi "Eshmat" deb chaqirgan bola.

- Qayerdan bilding?

- Bu yerlarda ko'p adashishadi, - dedi bola katta odamlardek.

- Boshchorbog' bozoridan qaytayotganlar adashib, bizning qish² loqqa kelib qolishadi. Sizni ittimiz qanday o'tkazib yubordi? U ha-yotdan beriga hech kimni o'tkazmaydi....

- Bilmay qolgan bo'lsa kerak, - dedi Normat. - Bog'ga kir-ganimda ko'rib qoldi.

- Ittimiz bo'ri tutdi, - dedi boyadan beri Normatdan cho'chi-yotganday begonasirab o'tirgan sakkiz yoshlardagi, otasidek sarg'ish bola.

- Bo'rini ittimiz tutgani yo'q, - dedi Eshmat unga "jim o'tir" deganday qarab. - Bo'rining o'zi muzlab qopti. Kimdir oyog'idan otgan ekan. Qishlog'imizgacha sudralib kelibdi.

- Itlaring zo'r ekan-da, - dedi Normat Eshmatning gapga e'tlib ham bermay sariq bolaga qarab. Bolaning qayeridir Xolmatni eslatardi. Normalt bolalarini eslab yuragi orziqdi. - It semikimi?

Bola Eshmatga bir qarab oldi-da:

- Ha, - dedi ishonchisizroq qilib, yana Eshmatga qaradi.

- Aldayapti, aldayapti! - dedi Eshmat. - It meniki, men uni o'zim yo'idan topib olgan edim.

- E, chatoq-ku, - dedi Normat sarg'imir bolaga qarab. - Se-

ning hech narsang yo'q, shekilli?

Bola xafa bo'lganday boshini egdi-yu, xo'mrayib oldi.

- Toyxori bor, - dedi uning o'rniga Eshmat. - Otam shu bu yil olib berdi.

- Zo'rakan toyxorning bo'lsa, - dedi Normat qitmirlik bilan bo-laning ko'nglimi ko'tarib. - Hangimi?..

- Urg'ochi, urg'ochi! - chiyilladi Eshmat qiqirlab kulib.

- Urg'ochi bo'lsa, yanayan zo'r, - dedi Normat Eshmatga ko'z qisib. Sarg'ish bola ikkoviga xavfsirab qaradi. - Yigitlikki urg'ochi bo'lishi kerak...

Eshmat kulib yubordi. Uning kulgisi beg'ubor va samimiy ed.

Bu samimiylik Normatning ham qalbiga o'tdi. U ham so'nggi oy-larda birinchi marta yayrab jilmayib qo'ydi.

Ozg'ingina qiz o'rtaga choyni keltirib, suvi qochgan ikkita non qo'ygach, eshikdan fonus ko'tarib uy egasi kirib keldi. Tutab

uning qorachiroy nurida Normat uning o'rta bo'y, siyrak soql, qindirga yaqintashib qolgan kishi ekanini ko'rdi.

= U... mehmon-ey, shuni aytadi-da chaqirilmagan mehmon bali, deb! - dedi u fonusning piligini pasaytirib, bir chekkaga qo'yin ekan. - Buni qarang, bugun o'zimdan-o'zim oq sho'rva qil, deb taynlagandim. Qadamning xosiyatlil ekan...

Oly egasi kir choponini yechib, pechka ustidagi qoziqqa ilib qo'ydi va Normatni dasturxonqa taklif qildi.

= Ko'sh, mehmon, yo'l bo'lsin, asli qayerlik siz? - deb so'radi u illishishach.

Normat qayerlik ekanini aytdi.

- Qarindosh ekanmiz-da, - dedi uy egasi unga muloyim ko'z lajihlab, - Shuni aytadilar-da bilmasdan uchratmas, deb. Biz ham jigo'llar ko'kabuloqda o'tirardik. Qani, qizim, keltirchi ovqating-ni. Mehmon, kimlardan bo'lasiz?

- Mamat merganning o'g'iliman.

= O'troq! Mamat merganningmi?

= Ha,

= Ko'rnaganman-u, lekin zap odam o'tgan deyishadi. Qani,

ovqatdan oling, qurutni o'zim qo'lim bilan qilganman.

Ovqatdan keyin bolalar pechka atrofiga o'tib uxlab qolishdi. Normat uy egasi o'zi bilan to'rga, yuk taxmonining oldiga joy sotdi. Uy egasi ancha sarishitali odam ekan. Timib-tinchimasligi, hujug'ligi otdiqligi o'ng'in, ko'sa yuzidanoq bilinib turardi. Gapirgan-dan doimo birovning ko'ngliga ozor berishdan qo'rqqandek mu-hayim va yumshoq qilib gapirardi. Uning harakatidan, gaplaridan ohan ajanmaslik, begonasiramaslik odati borligi bilimb turardi. Ko'rinichidan kuyinchak odama o'xshardi.

= Roja yangam ko'rinnaydi deb so'radingiz, - dedi yotganlar-ka uy oglasi. - Yangangiz bechora qazo qildilar. Bir yildan oshdi. O'ani yelb qo'ydi bechora. Nomusiga chiday olmadı... qayg'u olib ketdi... Hammasiga mana shu la'natı urush sababchi. Siz oyoqdan olib qaytibsiz, odamlarga ko'ringali tuyalyapman, deyapsiz, urush nimalar qilmadi? Uning keltirgan kulfatini sanab bo'ladimi! Mana, o'zingiz aytинг, biz dehqonlarning odam o'ldirish tushimiz-ge... hinchidomi? Majbur qildirishdi - o'ldirdik! Hozir o'dirgan omonlari tushimdayam tinch qo'ymaydi. Kechasi bilan bo'g'ib chiqdi. Halli aytdim, asli Ko'kabuloqdammiz, deb. Agar Mulla Tur-

di deganni eshitgan bo'lsangiz, o'sha kishining jiyamiman, yetim o'sgammiz.

– Mulla Turdining?! – ajablandi Normat. – Unda bizga ham jiyayn bo'larkansizs-da. Sizni Ko'kabuloqda ko'rmagan ekanman.

– Ocharchilik yillarida bu yerlarga kelib qolgandik. Ko'ka buloqqa faqat mehmon bo'lib borgannan. Avval cho'pon, keyin qishloq sho'rosida aravakash bo'ldim.

– Buni qarang, sizni hech to'ylarda ham ko'rmagan ekanman.

Aytganday, bu qo'lingiz urushda mayib bo'lganmi?

Mezbon bosh chayqadi. U gapdon va negadir, ichidagini bl-rato'la aytgisi kelayotgan odamga o'xshardi. Bu Normatga erish tuyuldi. Lekin mezbon ichida gap yotmaydigan oqko'ngil edi. Normal buni sezib, jilmayib qo'ydi. Bunaqa odamlar bilan zerik maysan. Hammasini o'zlar aytib beradi.

– To'qiz yil arava hayyadim. Dehqonobod, Shahrisabz, Kitob yo'llari menga besh qolday tanish... Urush boshlanar yilli nima bo'ldi-yu, Langarota dovonidan arava ag'darilib, besh qop bug'doy daryoga tushib ketdi. Daryo quturgan payt edi, hech narsa qilolmadim. Borib raisga aytdim. U menga do'q urdi. Qamata-man, dedi, o'sha besh qop bug'doyni bo'yninga yukladi. O'zingiz o'ylang, o'zim aravakash bo'lsam, besh qop bug'doyni kimdan olaman? Meni rosa tergashdi, idorama-idora sudrashdi. Keyin to'satdan urush boshanib qoldi-yu, meni urushga jo'natib yuborishdi. Orqamda yangangiz to'rt bolasi bilan chirqillab qolaverdi. Uch yil urush kezdim. Qancha odam o'ldirdim, bilmayman, sanab o'tiradigan payt emasdi. Oxiri o'zimni ham yarador qilishi. Chap qo'llim ishamay qoldi. Do'xtirlar, asta-sekin ishab ketadi, deb uysa javob berishdi.

Mezbon negadir xomush bo'lib qoldi va uflab qo'ydi.

– Yanga urushdaligingizda qazo qilibdimi? – so'radi Normat uning xomush bo'lib qolganidan ta'sirlanib.

Mezbon bosh chayqadi. Keyin yana o'sha ochiq-sochiqligiga qaytib, uflagancha gapini davom ettirdi.

– Uydan uch yildan beri xat olganim yo'q deng, savod yo'qed. Uyga kelsam, nimaniko'rdim deng, huvillab yotgan uyimni! Hech kim yo'q. Qo'shnilaridan so'rasmam, seni o'idi deb eshitidik, og'irchilik xotiningni ezib qo'ydi. Noloi bir hisobchiga tegib ketdi, deyishdi. Rosa g'azabim qaynadi. Xotinimdi borib o'ldirmoq

chi bo'ldim ham. E, bor-e, deb o'russ shaharlariiga qaytit ketmoqchi ham bo'ldim. Lekin ko'nglim bo'lmadi. Xotinimni-ku ko'rarga hech xayolindan ketmadi. Kechalar tushlarimga kirib chiqadi. Ayniqsa, kenjam!.. Men ketayotganda endi «atta-atta» deyishni o'rgangandi. Uxlasam ham uni ko'raman, yursam ham. Tushimda ham u «atta-atta» deyayotganday bo'ladi. Oxiri bo'ladi. «Mal-hboy, sen shuncha qonni kim uchun kechding, xotiningga uchunni yoki bolalaring uchunumi, xotiningga o'chakishib bolalaringni tirik yetim qilmoqchimisan, o'rgidim senday nomusli odamdan», deb o'yladim-u, shartta Yontoqliga jo'nadim. Idoraga kirib, raisiga shunday-shunday, hisobching mening xotinimdi yo'ldan urib, uyliga keltirib olibdi, agar yaxshilikcha ko'nsa ko'nsin, bo'limsa yenetkomatga borib aytaman, dedim. Rais qo'rqib ketdi. Meni hisobching uyg'a o'zi boshlab bordi. O'sha yerda xotinimni ko'rdim: bechora ozib-to'zib, bir holatda bo'p qopti, ustida o'choq ho'yot, kasalmand, zo'rg'a oyoqda yuribdi. Hisobchi uni ikkinchi xotin qilib olgan ekan. Meni ko'rib, serrayib qoldi: arvoymil ko'rdim, deb o'ylagan ekan. Qizim ham molxonada ekan, meni ko'ru solib yugurib keldi. «Otajon, otajon», – deya bo'yninga o'zini tashhadi. Uydan Eshmat ulim ham yugurib chiqdi. U ham kela solib, menga o'zini otdi. Ularning quvongannini ko'rib, xotininga bo'lgan g'azabim ham o'z-o'zidan o'chib qoldi. Faqat ikki ulim tovuiqxonaning oldida menga hayron bo'lib qarab turardi. Hisobchiha bir narsa demay, bolalarimni oldim-u, xotinimning qo'lidan yetaklab jo'nadim. Yugurib chiqqan hisobchi nimadir dedi, meni ishitmadim, eshitish holatida emasdum. Rais uni urishib berdi. Ishunday qilib xotinimni, bolalarimni uysa qaytarib keldim. Xotinim borchora ko'p yig'ladı, ko'p azob chekdi. Doim: «Ulyingizning chiroqini o'chirdim», – deb yig'lardi. Men biror marta ham aybbi ni yashashga solmadim. Avval qanday bo'lsam, o'zimni shunday tutdim. Itolalarim qaytib kelib, bag'rim to'idi, ko'nglimdan dardlar sindi, ular menga hayot berdi. Men endi shular uchun yashashim kerakligini tushundim. O'zingiz o'ylang, bizzan bu dunyoda nima qoladi? Shular-dal! Bularning oldida har qanday gunohimi kechirsa he'jad, qolgan hamma narsa o'tkinchi. Xotinim olti oy ham bir-til yashhamadi. O'igan qishida yotib qoldi-yu, qaytib turmadı. Buning uylab qarasangiz, ulargayam qiyin bo'lgan: nima bo'lsayam

Xudoning ojizalari-da, urush ularniyam shunday qilishga majbur qilgan. Biz erkaklar biroz shoshib hukm chiqaramiz. Men hozir xotinimning o'limiga men sababchi bo'ldim, deb o'yayman. Agar men kengfe'l bo'lib, uning ko'ngliga shubha solmaganimda, u tu-zalib ketarmidi? Endi o'z yog'imga o'zim qovrilaman. Yaxshiyam bolalarim bor. Bo'limsa, allaqachon bu yerlardan bosh olib ketgan bo'lardim. Endi mana shu sakkiz juft qorako'zni birovning qo'lliga qaratmay o'stirsam, shu mening umrim, deb o'yayman...

Uy egasi jum bo'ldi. Keyin o'midan turib tashqariga chiqib ketdi. Normalt bu odamning gaplaridan keyin birdan o'zidan uyaldi. Mallaboy unga shuncha kunlar ikkilanib yurgan va yuragini tirmayotgan savollarga xuddi uning kelishimi bilganday, o'zining taqdiri bilan birpasda javob topib berган edi.

Mallaboy qayrib kirdi. Normalt u bilan ortiq gaplashgisi yo'q edi. Agar yana gaplashsa, o'zining nimalaridir fosh bo'lib qolishi dan qo'rilib, ko'zharini yumib yotdi. Mallaboy uni uxlagan deb o'ylab, ustiga choponini oldi-da, pishillagancha dam u yoqqa, dam bu yoqqa o'girilib yotdi.

Normalt ko'z yumib, uning qynalilib nafas olishini eshitib turardi. O'zining ham uyqusi kelmadı, o'zinikiga o'xshab ketadigan bu odamning qismatida negadir u o'z taqdirini ko'rdi. Bu o'xshash tuyg'u bolalarni ko'rgandayoq boshlangan, endi ko'ksini lovlilatib kuydirmoqda edi. Mallaboyning o'zidek sodda, ko'rimsiž, muloyim hukmi uning balandparvoz xayollarini parchalab tashlagandi. Bu hukm garchi boshqa bir paytda qaror topgan taomil mezoniga muvofiq kelmasa-da, shu tobdaadolatlvi va insonparvar edi. Ana shu insonparvarligi Normaltning shu vaqtgacha sig'inib kelgan nomus, oriyat, sha'n va g'urur degan tushunchalaridan ustunroq edi.

Ertasiga Mallaboy bilan xayrashmay ham tong qorong'isida chiqib ketdi. Qishloqqa qaytdi-yu, martning adog'igacha ovgo chiqmadi.

O'n besh kunlar o'tgandan kevin kechga yaqin Biydi momoni kiga o'zi kirib bordi. U hammasini o'ylab, taroziga solib ko'rgan va qat'iy qarorga kelgan edi. Uning aziyatlari va xasta qalbi urushdan oldingi oriyati Normalt polvonni sindirib tashlagan, oddiy, urush kulfatari ezib tashlagan, unga taslim bo'lgan, ko'nikkun, taqdirligaga tan bergen edi. U mana shu qarorni, mana shu oddiy haqiqat-

ni tog' u toshlardan, aslida, o'zi ikki oydan buyon izlab yurganini foydali Mallaboyning gaplaridan so'nggina anglagan edi.
U kirib borganda Biydi momo boshiga eski qora choponni tashlab, surg'ayib ketgan junni oldida taroqdan o'tkarib olmoqda edi. Kichik kelin yalang bosh bo'lib olib, to'nda, oldiga kichkina quroqli bo'xchani yozib, ichidagi kiyimlarni taxlayotgan edi. U Normatni ko'rdi-yu, dik etib o'midan turdi va yerda yotgan ro'molni olib, boshiga ildi, shosha-pisha bo'xchani o'rav boshla-

di.

– Yedirdim, ichirdim, – derdi Biydi momo kirib kelganga ham e'libor bermay, boshini taroqdan ko'tarmasdan. – Ko'zimning nomi deb o'stirdim, qariganda tepkilab ko'mishadi, deb o'ylabman men bechora, endi esa huzurini begonalar ko'rdi. Begona yurtlarida o'lib ketdi. Odamlarnikiday hech qursa bittasiyam tirik qolma-di. Boshimni azaldan o'zi sho'r qilib yaratgan ekan... Ketsang, bor, ketaver. Seni ushlab turganim yo'q, sizlar o'zi shundaysizlar, binning boshiga ko'rgulik tushsa, darrov qo'shilib tepkilaysizlar. Hoh, tezroq jo'na. Hamma lash-lushlaringniyam opket, hammasi ni hoturib jo'na...

– Anna, – dedi kichkina kelin Normatga bir qarab, xijolat bilgonday. – Bo'ldi endi...

– Nimasি bo'ldi! – jag'-jag'ladi unga qarab Biydi momo. – Yo'li! Gap yoqmaydi-da, ering o'gan bo'lsa, gunohkor menim? Neqa menga zarda qilasan? Yo senam birontani topdingmi? Topqan bo'tsang bor, ketaver, meni sharmanda qilmasdan ket, qorangiym ko'rmayin.

– Anna, – dedi yana xijolatlili qilib kichik kelin, Normatga yana hir qo'radi-yu, duv qizarib, yuzharini yashirib, yig'lab yubordi.

– Yana yig'lashing nimasi, yig'lab ko'nglimni bo'shataman deyapsammi?! Ovora bo'ima, o'zi tosh bo'p kelegan bu yurak, – bijid momo shaxd bilan jumni taroqdan o'tkazar ekan, qo'llari qaltili taroqqa barmog'ini urib oldi. – He, sagano qol senam, taroq bo'limay! – dedi qonagan barmog'iga titrab-qaqshab jun bosar qish, taroqni olib, pechkuning orqasiga uloqtirdi, – avvalasiyam fushonam qursin, bo'limasa, kumin shulargaga qolarmidil! Kelib-kechish shularning qo'llida xor bo'lib o'lib ketamamni?..

Normalt noqulay paytda kirib qolganidan xijolat bo'lib yo'talgan qaytdi. Momo qonayotgan barmog'ini siqib ushlab, boshini

ko'tardi-da, uni ko'rib tumshayib oldi. Indamay oldidagi junlarni yig'ishtira boshladi.

– Mana, yana bittasi keldi, – to'ng'iladi u o'ziga o'zi gapirayotgandek. – Hammasi boshiga g'äm tushganda Biydi eslashadi, boshqa vaqt esigayam kelmaydi.

– Ha, amma, – dedi Normat o'zini xursand ko'rsatib, oradagi noqulaylikdan chiqish uchun. – To'ningizdi teskarri kiyib opsiy, nima balo, jezda*m (pochcha demoqchi) tushingizga kirdimi?..

– Eh, awali o'sha Buxor polvon qurib ketsin, – javray boshla* di Biydi momo. – Menga shuncha yetimchani qoldirdi, o'zi jo haddi-bordi. Endi esa uning yetimlari, bolalariniyam menga qoldirib ketmoqchi. Go'yo Biydining butun umriga qora mehnat yozilgan day... Sen nima qip turipsan?! – dedi piq-piq yig'layotgan keliniga qarab. – Mehmonga choy-poy qo'y, keyin qilasan nozimoyishingni.

Kichik kelin burnini tortib, ko'zidan yoshini ham artmay, tok-chadagi dasturxonni olib, pechkaning oldiga yozdi. So'ng Normat ga qayrilib ham qaramay katta, ko'kish, siri ko'chgan choynakko pechkaning ustida shaqillab qaynayotgan qumg'omni ag'dardi. – Ko'zingning yoshini art, – dedi Biydi momo unga g'ijunib qarab. – Hozir choynakka oqib tushadi.

Kichik kelin boshini chetga burdi-da, yana piq-piq yig'lay boshladi.

– Menda nima gunoh? – dedi u yig'lay turib, alamli tovushda. – To'rt yil kutdum ulingizni... To'rt yil... Odamlarga o'xshab, bl'r oy ham bunday kelin bo'llib yashaganim yo'q. Kelganimdan beri qora mehnatdan boshim chiqmaydi. Odamlarday aqallli bir oy kelin bo'isam ham mayli edi. Bir oy ham bo'imadim. Peshonam sho'rligidan... Endi qarib, so'lilb qolganimda kimga kerak bo'lam... man... o'ldirib bo'ldi-ku meni bu uy...

– Ko'zingga qara, choy to'kilyapti, – dedi tahdid bilan Biydi momo unga. – Bo'imasra, eringni besh-olti oy qo'yningda yashirib yot edi-da, shunda odamlarday eringning isiga to'yarding...

Kichik kelin choyni dasturxonqa keltirib qo'yib, boyagi joyiga borib, izillab yig'lab yubordi.

– Bo'ldi, bo'ldi! – dedi qaynonasi jerkib. – Uyda mehmondan uyalmaydi-ya bu, tavba!

Normat etigini yechmay, yasama oyog'ini sal bukib, po'stak-

nini utliga yorboshladi-da, nima deyarini bilmay, Biydi momo weqan choyni ho'play boshladi. Oraga yana jumlilik cho'kdi. Kichik kelin hamon izillab yig'ardi. Pechkaning orqasida yotgan mushuk non isini sezib, o'rnidan turib kerishdi, miyovlab, Normatning atrofini aylana boshladi. Biydi momo o'rnidan turib, yuq usmoniga bordi va nimanadir «tir» etib yirtib, so'ng qo'liga bog'ildi, qaytib, Normatning qarsisiga o'tirdi.

– Pish-e! – dedi zarda bilan oyog'iga borib suykalayotgan mushukning qulog'iga urib.

Nabira "maxluq" bilan awal nayzada, keyin to'qmoqda "kuchi" sinashdi: har ikkala holatda ham vaziyat "maxluq" – Sanchoning foydasiga hal bo'ldi, zotan u oltmish yildan oshiq mol izidan tayoq sudrab yuraverib, so'yilni ishlatishtning piri bo'lib ketgan di: nabirasingin etigidan tortib, yuzigacha so'yil qoldirgan qizib o'yoq izlari bilan to'lib toshdi – bu o'yinning uning g'alabasi bilan yakun topishidan, nabiraning mag'lub bo'layotganidan darak berardi.

Qishloq masjidida xufton namozi o'qib bo'linib, qari-qartang'lar uy-uylariga tarqalishayotganda nabira deyarli to'plagan bar'cha "joni" dan mahrum bo'lgandi. Bobosining tayoq, to'qmoqlar ni bunday ustamoniлик bilan ishlata olishimi nabiraning o'zi ham kutmagandi, shu sababli orqada bolalardan kimir "Faqat bitta joni qoldi", – deganda qaltilrab ketdi: uning butun vujudi, lablar, ko'zları, qorachiqlari titrardi.

– Men, baribir, g'alaba qilaman! – dedi u hansirab bobosiga xuddi haqiqiy odamxo'r qarshisida qosidlik niyatida turgan ovchidek.

Nabira yana qorong'ilik qa'rida g'oyib bo'ldi: uning oxirgi imkoniyati qolgandi. Agar yana bir marta bobosining so'yilning bo'yalgan uchi tegsa, bo'ldi, Sancho o'yin g'olibi – supermen bo'lardi. Nabira esa bunday yakunga taylor emasdi, zotan u hamisha g'oliblik nashidasini surib o'rgangan, kelib-kelib, Xudo nazaridan qolgan chet qishloqda, garchi bobosi deb tanishtirishgan bo'sha ham, qishloqda aqli noraso deb tan olingan jimitdan yengilish unga o'ta sharmandalikday tuyulardi.

O'yin kutilmagan tomonga burligandi: endi faqat tomoshabin ga aylongan bolalar yurak yutib, yakunni kutishardi.

Nabirasingin hujumini poylab turaverib, Sanchoning uyqu-ni kelib ketdi: qanchalik ko'ngli bola bo'imasin, yoshi allaqachon marrani qoralab qolgan, tanasi bunday uzoq cho'zilgan jimoniy zo'riqishga dosh berolmasdi. U o'zining toliqanini, unvida eng uzoq o'ynagan o'yini shu ekanini his qildi. Shuning uchun xayolan nabiram paydo bo'lsa, unga yengilib beraman, o'zimni himoya qilib o'tirmayman deb o'yladı. Xuddi shu qator bilan so'yilga suyangancha tin oldi, ko'zlarini yundi. Uni oyqu bosib kelardi. "Nabiramni chaqiraman, yengildim, sen yengilding deyman!", – deb rejalashtirdi u ichida. Ammo uning qo'llidagi o'yplashari oxirga yetmadi: yarim soatcha yo'qolib hetqon nabira xuddi hayot-mamot jangiga kirishgan jangchiday qorong'ulik qa'ridan o'qday otlib chiqdi va qo'llida qoldan oxirig quroq – xanjarini "maxluq" – Sanchoning qorniga sanchdi". Bu shunchalik tez sodir bo'ldiki, bolalar ham, Sancho ham nabira qayoqdan va qanday paydo bo'lganini ilg'amat ham qoldilar. Sancho esa zarangdan uchi sumak qilib yasalgan xanjar qorniga qadalganda nabirasingin g'oliblik aks etgan yuzningina ko'rdi, nafaqt yuzi, balki ko'zları ham echkini bosib olib emayotganda o'ljasini tappa bosgan bo'riva chhani eslatdigan otasining ko'zlariga juda o'xshab ketishini sezib qoldi, bu ko'zlarida unga yot, begona,sovulq, yovvoysi bir ifoda ham batqib turardi. U nabirasinga yengiganini e'tirof etishga chiq'landi, amma gaprishiga ulug'madi – butun tanasini og'riq qonrab oldi va u nabirasi "sanchgan" "xanjar" ni ikki qo'llab uchligancha yiqildi.

Uning juda tabiiy yiqilganini ko'rib, bolalar kulib yuborishdi: humaq yiqilishi, "o'lib berishlarni" Sancho qoyillatardi. Nabira esa bobosiga qaragancha qotib qolgan, uning ko'zlarida humun, telbavor g'oliblik zuhur etardi.

– Lu zuhurot asta-sekin uning yuziga o'tdi, keyin lablariga ko'chdi.
U yerda yiqilib yotgan Sanchoga qarab turib, bolalar tomon o'girildi va telbalarcha shivirladi:
Unga ikki tig'li xanjarni urdim. Men "maxluq"ni yengdim!
Men supermenman!

Bolalar uni qutlashga kirishib ketdi: birov quchoqlar, yoshi kattaroqlari kelib yelkasiga urib qo'yardi. Qolganlari qo'llini sil qishdi. Endi tarqashsa ham bo'lardi. O'yin tugagan, nihoyat bish halilik o'yining yagona g'olib aniqlangandi.

Faqat Sancho hali ham o'midan turmagandi. Buni Soli Boy mirning nabirasi birinchchi bo'lib anglatdi. U yerda qormini ushlab yotgan Sanchoning oldiga borib, unga bir pas qarab turdi.

- Sancho! Turing. Hammasini o'xshatdingiz. "O'lganiningiza" ishondik, - dedi u kulgancha oyog'i bilan oyog'iga tepib.

Sancho javob qilmadi. Soli Boy mirning nabirasi avval Sanchoning yelkasidan turtdi, keyin tovushini baland qilib, noxushlikni sezgandek qalitiroq ovozda baqrib yubordi:

- Sancho! Niha balo, rostdanam o'lib qoldingizmi?

Uning ovozini eshitgan bolalar nabirani qutlashdan to'xtashdi. Ularning ko'zi hali ham yerda qorni bilan qapishib, yuztuban yotgan Sanchoga tushdi. Malik kelib Sanchoning boshini ko'tardi va uning yuzzini osmonga o'girdi. Sancho ko'zlarini yumib yotardi.

- Sancho! Bo'idi, ketamiz. O'yin tugadi.

U shunday deb, turishga yordam bermoqchi bo'lib, qormidagi zarang xanijarni ushlab turgan Sanchoning qo'lliga olib bordi-yu, birdan seskanib tushdi va shoshib kaftiga qaradi. Uning barmoqlari qon edi. Shundagina hammaning ko'zi zarang "xanjar" qadal-gan joydan sizib chiqayotgan qonga tushdi...

Ertasiga Sanchoni so'nggi yo'lga kuzatish uchun barcha tersotalik bolalar chiqishdi: ular uydan toki Azlartepagacha qator turib olishib, tobutga yelka tutishar, yelkaga lopillab o'tayotgan tobutni sekin silab qo'yishar, shu bilan kattalar dun-yosidagi oxirgi tengdoshlari bilan so'zsilidalar, kattalar esa bu o'llimi katta yo'qotish deb hisoblashmayotgan bo'lsa-da, ammo har biri o'zlarini bir umr mayna qilib kelgan, avval Boyqul, keyin bir umr Sancho bo'lib yashagan, o'zlarini bir umr aqli noqis deb hisoblagan qishloqdochlari bilan birga Tersotaning bolalik davri ham tugaganini ich-ichlarida his etib, tobut izidan boshla-rini egib borishardi.

Tamom.

Q01

Ana shu ikki laqabli Salom bir kuni do'ppisini olib, bundoq sonchot qilsa, keyingi haftada uyida oziq-ovqatga odatdagidagi lajlbardan ko'proq xarajat qilinganday tuyuldi. Xaltadagi un ham aldingi oya qaraganda anche oldin bo'shadi. Yog', piyoz, karbosha ham mo'haldan oldin tugab qoldi. Bundan tashqari, u holalarining qorni to'ymay qolayotganini sezardi: ovqatdan so'ng yana non va shakarga ruju qo'ya boshlashdi. Shunda buning sahibini aniqlashga kirishdi. Xotini yeguliklarni hamishagidan kam nisqida qilmayotganini aytdi. Balki, bolalari katta bo'lib qolib, nisqayonlari ko'proq ovqat talab qilayotgandir? Balki, bironqasi holiqalarining haqini ham bildirmasdan ikki hissa paqqos tushish yovkondir? Ana shu shubhada tandirchi ovqat mahali oиласи ham huj og'izni birma-bir kuzata boshladi. Bolalari ham keyingi moydu qorinlari ovqatga to'ymayotgani uchunmi, oldiga qo'yilishni ukondan bosh ko'tarmay paqqos tushirishga o'tishgandi.

Tandirchi kuzata turib, ko'zlariga ishonmadi - oilada olita jan, ammo ovqatda yettinchi qo'l ham bor edi - anavilar to'ng'ich, qo'tancha bolalarining qo'llari, bunisi xotiminiki, kenja o'g'liniki ni hali qo'l ham deb bo'lmaydi - katta qoshiqqa o'xshaydi. Lenin anuvi qo'l kimmiki? U bordan hushyor tortdi: ko'zlarini yu-mio'chdi. Nazarida bolalarining va ayolining qo'lidan tashqari yana bir begona qo'l ovqatga sherik bo'layotgan edi. U qo'llini aniqlari olib turardi: eng qizig'i, qo'l bor edi, ammo egasi ko'rinnasdi. qo'lham ovqat olayotganda paydo bo'lib, keyin g'oyib bo'lardi.

Salom tandirchi qo'lni ko'r-gach, dastlab, aqdan ozmayapmanmi, deb o'yaldi. Ammo boshqa kunlari ham u xotinining, o'zining qo'liga o'xshamaydigan begona qo'lni aniq ko'rdi. Qo'l bolalari bilan qo'shilib, kaftini to'ldirib ovqat olar, bo'g'iz barobar ko'tarilganda taom xuddi havoga singib ketgandek g'oyib bo'lardi. Ovqat bilan ovora bo'lgan na bolalari, na xotini buni sezardi. Dastlab tandirchi bu shubhasini oshkor qilib, bola-chaqasi oldida kulgiga qolgisi kelindi. U bir necha kun obdan kuzatdi. Yo'q. Begona qo'l rostdan ham mavjud edi. Ular bilan qo'shilib, ovqat yer, sindirilgan nonni olar, go'shtga sherik bo'lar, hatto mevalardan ham tatif ko'r-rar, dasturxonda yegulik qolmasa, g'oyib bo'fardi. Salom tandirchi mening ko'zimga ko'rinyapti, deb o'ylab, xotini ga bildirmay o'zini mulla Abzalga o'qittib ham keldi. Ammo o'qish ta'sir qilmadi: qo'l baribir unga xuddi ko'zga chiqqan chipqondek ko'rinvaverdi. Salom tandirchi bir kuni axiyri jazm qildi: u payt poylab turib, bolalarining qo'llari orasida turgan, qovoq matidan olib havo barobar ko'tarilayotgan qo'lni shartta ushlab oldi.

- Bu kunning qo'li? - deb so'radi u qo'rquv va hayajon bilan. Hamma uy sohibining qahrili ovvozidan bir saphhib tushdi va shoshib o'z qo'llariga, keyin, hech narsa tushummay, ovoz egasiga qarashdi va otalari ushlab turgan qo'iga ko'zlarini tushdi.

Tandirchi uzun, nozik, ayni paytda shapaloqday qo'lni ushlab turar, loy qoriyverib, muskullari pishib ketgan baquvvat panjalar orasida qo'l xuddi qanchi kabi bilonglardi.

Ana shunda butun oila egasijo'y q qo'lni ko'rdilar va qo'rqqan-laridan baqirrib yuborishdi. Salom tandirchi ichida yengil tortdi; demnak, qo'l hammaga ko'rinyapti, gap o'zida emas. Qo'ning bilakdan pasti ko'rini turar, go'yo kesib tashlangan qo'iga o'xshardi. Ammo qo'l kesilgan emasdi, shunchaki tirsakdan narrog'i havoda ko'rinnmay turardi. Egasija esa umuman ko'rinnmasdi. Bu hol avval bolalarni vahimaga soldi: kenja o'gil bir o'zining qo'liga, bir egasiz qo'iga qarab turib, yig'lab yubordi: u yaqinlaridan birinинг qo'lji uzilib tushgan degan xayolga bordi, chog'i. Xotinining esa tili kalimaga kelmasdi. Hamma dasturxonadan u-bu yegulik olib, ko'tarilayotgan qo'iga vahima va qo'rquv bilan tikilib turardi. Salmon tadirching umri og'ir mehnatda o'tgani bois ziqna bo'lsa ham jasur odam edi. U bu yerdagi sir yoki biron vahima ko'rmadi: qo'lni ushlab oldi-da, loymi yerga urib pishitadigan-

muhibbador qo'li bilan qattiq qisidi. Qo'l iloisiz bilongladi, so'ng bu hujuvat panjalarga kuchi yetmasligini angladi, chamasi, xuddi qo'li ketgandek havoda g'oyib bo'ldi. Hamma og'zi ochilgancha qoldi. Salom shu bilan qo'ldan qutuldidi, deb o'ylagandi. Ammo bekihi ovqatda qo'l yana paydo bo'ldi: xuddi hech narsa bo'Ima-jundek, boshqa qo'llar bilan taomga uzaldi. U ovqatni olar, bo'g'iz hamnha ko'tarar, xuddi ko'zga ko'rinnmas yuhodek havoning o'zidagi ovqat g'oyib bo'lar, keyin qo'l pastga tushib, yana taomga illalardи.

Hutun olla endi ovqatlariga begona qo'l sherik bo'layotganligi juvoh bo'lib turishardi. Salom bir necha marta begona qo'lni ushlab oldi, uni jazolash uchun har xil usullarni sinab ko'rdi: bir qoldida ushlagancha ikkinchchi qo'li bilan must shifl tugganda yoni oldindan yoniga keltirib qo'yan bolta, pichoq, qamchiga yoni uzalganda yoxud yonib turgan pechkaning ichiga tiqmoqchi qo'l o'z-o'zidan g'oyib bo'lar, keyingi ovqat payti esa buch narsa ko'rmagandalay yana dasturxonada paydo bo'lardi. U bilan kurashishning natijasi shu bo'ldiki, qo'l tezda oila a'zolaridan biniga aylandi: endi hatto kenja o'g'il ham uni ko'rsa, vahimaga ushmas, aksincha, qo'lni hammaga ko'rsatib, unning harakkatlari bo'lib qirqilab kular, qo'l esa o'zini mehribon ko'rsatib, ba'zida bo'larning boshtini mehr bilan silab qolardi: bolalar ham asta-sekin unning boshtlarini silashlariga o'rganib borayotgan edi. Uning yebon ymasligi, bir o'zi uch kishining ovqatini yeyotganini, oilaning molyasiga, turikchiliiking yo'rig'iga zarar yetkazayotganini aytinma, u bezozor qo'l edi.

U sal bo'limasa, begonalar oldida ham o'zini fosh qilib qo'yayozdi: hamisha bir yangilik qilib, o'zining mahalla raisilagini o'shatib turadigan Azim oqsoql ota-ona bolalarga dars qilishga qanday sharoit yaratganini tekshirish uchun mahalla nomidan leshi-da, oshxonani hisobga olmasa, ham yotoq, ham mehnmon sona, ham darsxona, ham bolalar xonasi vazifasini o'tayotgan ikki xonanining birida sandalga oyoqlarini tiqqancha kitobdan hisob ko'tarmay o'turgan (mahalla raisi kelishimi boshqa xonadonlidan eshitishgani uchun darsliklar va daftarlari bir haftadan beri sandal ustidan olinmas, hammasi maktab va mahalla hamkorligi takablariga moslashtirilib, taxt qilib qo'yilgan, tandirchi ham go'yo har kuni bolalar shunday sergo'sht taom yeyisha-

yotganday qassobdan sersuyak bo'lsa ham go'sht olib, tushdan so'ng pilik-pirmosga osdirib qo'yan, darvoza taqillab, Bo'ynoq burishi bilan hammasi oldindan kelishilgandek sandal atrofiga kelib o'tirilgandi) bolalarga ko'zi tushib, qonitqish hosiil qilgan bo'ldi va odatiga ko'ra dars qilinayotgan xonani birrov ko'zdan kechirdi-da, tandirchining "Bir piyola choy ichib keting", - degan taklifiiga "odamgarchilik yuzasidan" yo'q demadi. Uy bekasi yagona suyakni birato'la suzib kela qoldi. Go'sht hil-hil pishgan ekan. Azim rais ortiqcha manziratni kutmasdan ovqatga qo'l cho'zdi: tandirchi go'sht qozondan endi olingani, shuning uchun salsovutib yeyilsa, mazasi boshqacha bo'lishi haqida ogohlantirishga ham ulgurmadi - rais katta suyakni ikki qo'llab olib, tishini botirdi - o'qib yurgen yillarida besh yil yotoqxonada yashagan, shuning uchun har qanday taomni ko'z ochib-yumguncha oshqozoniga joylashning xo'b hadisini olgan, bu odatning afzalligini bilgani uchun haligacha tark etgisi kelmas, mahallaga rais qilib saylangach esa bu qobiliyatinining yangi qirralarini namoyon bo'la boshlagan edi. Salom tandirchi uning go'sht yeyishiga qarab, labini yalab turganda, lip etib paydo bo'lgan qo'lni ko'rди va aytadigan gapi esidan chiqib, birpas esankirab qoldi. Yaramas qo'l hech qursa mehmonlar bor payti istihola qilsa kerak, deb o'ylagandi, yo'q, unga, aftidan, mehmonni, boshqasimi, farqi yo'q edi, das-turxon yozilishi bilan o'zining ulushini undirish uchun shiraga aylangan pashshaday paydo bo'lardi. Qo'l Azim raisning bolalarga shapaloq tushiraverib, yildan-yilga kattalashib ketgan yirik pan-jalari orasida turgentilik tonon intildi. Qo'l toki yetib borguncha ilkinning to'piqlari katta tishlar orasida so'rila boshladi. Bu kutilmagan chaqqonlikdan qo'l ham birpas havoda muallaq turib qoldi: u o'zidan ham abjir qo'l, toshni ham hazm qilib yuboradigan oshqozon borligidan ajablani, havoda garangsib turib qolgandi. Tandirchi paytdan foydalanim qo'ni ushlab oldi-da, tagiga bosib o'tirib oldi: ammo qo'ni tagida ushlab turolmad - u tandirching tagida havoga aylanib, g'oyib bo'lib, yana dasturxon boshida paydo bo'ldi. Bu orada rais kosadagi shovrani ham ko'tarasiga ichib, bo'shatib ulgurgen, endi huzur qilib, ko'zini dasturxonidan uzmag'an holatda qo'lini bir-biriga ishqab turardi. Yaxshiyam ikki ko'zi dasturxonada bo'lgani uchun boshida osilib turgan qo'ni ko'rmadi.

Ha, mayli, - dedi niroyat Azim rais dasturxonada yeyishi mumkin bo'lgan boshqa tansiqroq narsaga ko'zi tushmagach, - indi bizga ruxsat.

Keyin har doingiday nasihatgo'ylik qilishni esdan chiqarma-

di:

- Holalarni hamisha shunday taomlar bilan ovqatlantiring, illi to'q, miyasi to'liq bo'ladi. Miyasi to'liq bo'lsa, maktabda yaxshi o'siqydi, maktabda yaxshi o'qisa, oliv o'quv yurtlariga kirib, matnining obro'sini oshiradi.

Tandirchi soxta jilmayib, bosh irg'agan bo'ldi, ammo ichida zil hattu: u rais paqqos tushirgan kattagina ustixoni ham mehmon, ham butun olla uchun mo'hjallab turgandi. Endi esa dasturxon da to'pig'gacha so'rib tashlangan ilik kiyimi shir yechib olingan yahong' och boladay bo'lib yotar; hatto kekirdak joyi ham chaynab tashlangandi. Har qalay, chuldirak bo'lsa ham sho'rvasi qoldi-ku, shunisiga ham shukur, deb o'yaldi tandirchi.

Azin rais yuziga fotiha qilgan bo'ldi-da, o'mridan turib, narin sonada dars qilayotgan bolalarga yana bir ko'z tashladi. Keyin munum jilmaydi.

- Mayli, dars qilaverishsin, xalaqit bermay chiqib ketaman.

Tandirchining baxtiga rais dasturxonqa qaramasdan chiqib keteta boshladi: agar qaraganda "bu ochofatdan biron yegulik qolamlik?" degan umidda dasturxon ustida timirkilanayotgan ejisiz qo'lni ko'rishi mumkin edi.

Shundan so'ng tandirchi uyiga mehmon ham aymaydigan bo'ldi: u qo'idan tashvishda edi. Agar bironarsi ko'rib qolsa, qishloqda qancha gap-so'z paydo bo'lishini tasavvur ham qilmasdi: hamma tandirchining uyidan jin chiqqanday o'zini olib qochdi, yana qancha g'iybatlar ko'payadi, yana qancha malomatlar yoki'ladi.

Tandirchi bolalariga ham, xotiniga ham qo'l haqidagi birov-ga g'ing demaslikni tayinladi: eshitigan odam tandirchining xo-nadoni ustidan ketini ushlab kulishlari aniq edi. Qolaversa, qo'l qonday paydo bo'lgan bolsa, shunday g'oyib bo'lar, degan umid ham yo'q emasdi. Biroq oradan ikki hafta o'tsa ham qo'l g'oyib bo'lmadi: u o'riaga taomga uzalgan oltita qo'lning yettinginchisi bo'lb, xuddi o'z uyida taomlanayotganday g'oyibdag'i qorniga neqatni paqqos tashlayverardi, "tushirardi" emas, ayman tashlar-

di: qo'l panjalari yoki kaftuni to'ldirib olgan taom bir odamning og'zi barobar ko'tarildi-da, xuddi yutib yuborilgandek g'oylb bo'lardi. Ba'zida tandirchi g'ira-shira, xuddi xira tumandek bijur lab turgan bahaybat, meshday qorinini ko'rib qolgandek bo'lat. "Bu qorinni to'ydurquncha, men adoyi tamom bo'laman-ku", degan wahima bosardi. Qo'ning paydo bo'lishi oilaviy xarajatlar ni bir hissaga ko'paytirgan bo'lsa-da, biroq tandirchining sabiq qilishdan boshqa iloji yo'q dedi. Aslini olganda, u bu baloni birovga qanday gapirib berishni bilmasdi: tabiiyki, eshitgan har bir odam tandirchining sog'ligiga shubha bilan qaray boshlaydi.

Tandirchi qo'l bilan kurashib oxiri charchadi. Endi u birinch marta bo'ganidek qo'lni ushlab, jazzolashga urinmasdi, zero bu ning foydasi yo'qligini ham bilardi.

Salom tandirchi va xotini bu ins-jinslarning ishi deb, uyda qilmagan irim-sirimi qolmadni. Xotini folbinni ham, qo'shnochni ham, avval isitib, keyin sovituvchini ham yoki soviganini isituuchi ni ham boshlab kelishdi.

Folbin keksa ayol edi: u shabko'r bo'lsa ham o'rtaga tashlan-gan qand-qurslarni maza qilib terayotgan panjalarni ko'rib qoldi va qo'nga xuddi tanishini ko'rganday bir zum ajablannmasdan qarab turdi-da, "Yo piray, bu otangning qo'li-kul!", – deb yubordi to'satdan. Avvaliga er-xotin sirlari fosh bo'ganidan dovdirab qolishdi, keyin, bu esi kirdi-chiqdi bo'lib qolgan kampirning gapiga baribir hech kim ishonmaydi, degan o'ya duga unga qo'l haqidagi bor gapni aytib berishdi. Folbin tezda xo'roz so'yib, mushkulku shod qilishni, yettita kampirni chaqirib, is chiqarishni maslahat berdi. "Bu aniq otangning qo'li. Arvohi chirqillab qolibdi. Ochga o'xshaydi. Is chiqarsang, kelmay qoladi!", – dedi. Salom tandirchi kam-pirga otasining chap qo'l o'rta barmog'ining yarmi bo'igananini, yoshligida o'roq yulib ketganini, bu qo'ning o'rta barmog'i esa boshqa barmoqlardan bir en uzun bo'llib, ko'zga xunuk ko'rind chiqib turganini aytib o'tirmadi: otasining qo'li bo'masa, biron avlod-aidodining qo'lidir, hozir buning nima farqi bor?! Tegrimonchi otasining qo'lini kampir qanday taniganini surishtirib o'tirmadi, kampir aytgan irimni ham qilib ko'rishta qaror qildi. Bir oyog'i go'rda turgan yettita kampir, ularni yetaklab kelgan yana yettiha kelinchak, is chiqishini eshitib, bexabar qolishsa, xafa bo'lishi hisobga olib qo'shimcha chaqirilgan o'ntacha xotin-xalajlar, jami

ayolning is kuni yeb-ichgani tandirchining yarim yil-lik mi ab-avaylaganini havoga uchirdi. Kampirlarning nafasi ham, dilarning qo'ldagi yonayotgan paxta ham surbet qo'lni cho'chita umudi, lekin kampirlar yoqqan paxtalarni deb uyi sal bo'lmassa yonli hetayozdi – olov pardaga tutashganda tandirchi kirib qoldi ga pardani uzib olib, oshxonadagi suv to'la paqirga tiqdi, oqibatda le chiqorishning asorati bo'lib, uy devorining yarmi qorayib qoldi. Shundan so'ng ma'lum bo'ldiki, qo'ning arvohanga aloqasi yo'q, u boshqa bir narsaning atomati edi: unga hech narsa, hatto hodi qo'zib, o'rnidan turolmay yotgan Mulla Ablazning bir kosa nuv orqali yuborgan duyu nafasi – "dami" ham kor qilindi, zero tunumi, barakasini yo'qqa chiqarish, uni kafangado qilish uchun o'si'rliga qarg'ishdek kirib kelgandi.

Salom bu tang vaziyatdan qanday chiqib ketishni bilmasdi: qo'lni har ko'rganda bu balo o'ziga qayerdan yopishgani, Xudoga yopmaydigan nima gunoh qilgani haqida og'ir o'yea cho'mar, bu tun umrini taftish qilar, keyin bir paytlar o'tasiga qattiq gapirib, the'ha ketib qolganini, o'zining aybini tushunib qaytib kelganda nasi bu dunyo bilan xayr-xo'sh qilib bo'lganini, otasining ko'ngilidagi unga mana shunday jazo jo'natgandir? Ammo tandirchi ichi-shudo unga mana shunday jazo jo'natgandir? Amma tandirchi ichidagi tashiga chiqarolmas, zero otasi haqidagi xotirani o'zidan va otasidan boshqa hech kim bilmasdi: tandirchi o'z yog'iga o'zi qovrilib yotardi.

Ondan ikki oy o'tib, bo'shab qolgan unxalta-yu, yog' idishlar-ni ko'rgach, tandirchining sabri chidamadi. "Bu qanday adolatsiz-zili – deb o'yaldi u jahl bilan. – Men bolalarim bilan kun uzog'i loy tepib, bir tishlam nomni zo'rg'a topsam-da, bir tekinxo'r teng sherk bo'llib o'tirs...", Oxiri u kirib kelgan to'ng'iz yilning xo'siyatidagi haqida bashorat qilib, Rajab cho'ponning ola qo'zisi junida "Allah" degen yozuv alomatini anglagan mulla Keldiyorga hor gapni aytadigan bo'ldi.

Tandirchi Rajab cho'ponning uyiga buriladigan muylulishdag'i tashunga o'tirvilib, qishloqqa kelayotgan har bir mashinani tas-hibiga tashlab o'gitrib o'tirgan mulanni muborak chorshanba kuni-jin tushihida – xudoyi oshga taklif qildi. Osh kechagi qizil tayoqli keltiyor «galning – bugungi mullaning jonu dili edi; bir paytar

Keldiyor Qiziltepa postida turganda ba'zida jarimaga "choyxona oshi jazosi"ni ham qo'llardi: shu sababli osh bo'lgan joydan bo'yin tovlamas, buni butun qishloq ahli yaxshi bilardi. Salomning az-

za-bazza taklifidan so'ng mulla naq tush payti borishini bildirdi.

Chorshamba kuni belgilangan vaqtida mulla yetib keldi. O'rta-

ga sergo'sht osh tortildi. Oshni ko'rib, mullaning ko'zları yonlib ketdi va yeng shimarib, oshga tashlandi. U uch-to'rt kaft oshni ko'zlarini yungancha, mazasini totib, chaynab bo'lgandi hamda kuttirib qo'ymay qo'l ham paydo bo'ldi. Dastavval mulla uchini chi qo'nga e'tibor bermadi: har kaft og'ziga borganda huzur qilib,

ko'zlarini yumib, chaynagancha, mazasini olar, keyin og'zidagini yutib yuborib, ko'zlarini ochar, oshning eng sergo'sht joylari-

ga kaftini botirardi. U qo'lni anchadan keyin ko'rib qoldi: xuddi o'zidek eng sergo'sht joylariga kafft botirayotgan, mulallik humma-

tini qilmayotgan surbet qo'lni kor'ib, bunaqa beadablikdan jah-

lanib boshimi ko'tardi. Afusuki, kutgandek, zahrini isochish yoki

biron diniy naql aytib, odobga chaqirish uchun qo'l legasiga ko'zi

tushmad. Bir qo'nga, bir tandirchiga qarab og'zi ochilib qoldi va hayajonlaganidanmi yo qo'rqqanidanmi, og'zidagini chaynayan yutib yubordi va tuyulib qoldi. Yotalib, nafasi tiqilayozdi. Tandir-

chi o'mnidan turib, yelkasiga urdi. Shundan so'ng mulla sal o'zi-

ga keldi. Qo'l esa ularga e'tibor bermay oshni "paqqos tushirar", ya'ni xuddi mulla kabi kaftiga sergo'sht oshni joylab, og'iz barobar

ko'tarar, kaftda turgan bir uyum osh ko'rinnayotgan "og'iz" da

g'oyib bo'lardi. Qizarib-bo'zarib keegan, amri-ma'rufida qiyomat belgilarini bashorat qilganda ham bunchalik alomatni ko'raman deb o'ylamagan mulla chamasi o'n martalar "astagfirulloh" dedi.

Ko'zlarini yumib-ochdi. "Menga shunday ko'rinyaptit!", deb o'yla-

di, chog'i, tandirchiga ilinj bilan qaradi, lekin obro'si tushib ket-

masligi uchun og'iz ochmad. Yana uch marta "astagfirulloh" dedi,

- Sizga ham ko'rinyaptimi?! - dedi tandirchi uni xijolatdan

qutqarish uchun.

- Ko'rinyaptimi, deysizmi? - mulla tandirchiga sir boy ber-

may qaradi. - Nima ko'rinyapti?

- Qo'll! - dedi tandirchi. - Egasi ko'rinnaydigan qo'l...

Mulla shundagina biroz o'ziga keldi. Ko'zlarini lo'q qilib, hali ham osh "yeishida" davom etayotgan qo'nga baqrayib qarab turdi

- Ha, ko'rinyapti... Bu kimming qo'lli?

= Hilmadim... Lekin ovqat yeyishda bizning olla bir tomon, bu qo'l bir tomon. Har qanday taomni olib shunday havoga ko'tarsa hili, g'oyib bo'ladi...

= Itosdanam egasi yo'qmi? Umuman ko'rinnaydimi?

Tandirchi bosh irg'adi.

- Aslida, sizni shuning uchun chaqirigandim, mulla aka, - dedi tandochi itojisiz ohangda. - Uyimizda shunday balo paydo bo'ldi.

lli oydan beri ketmaydi. Bizni kasod qilyapti bu ochofat.

Mulla bir tandirchiga, bir qo'nga qarab uzoq turib qoldi.

= Shunga bir o'qib qo'ysangiz... Zora yo'qolsa... Mulla Abzal dam solgan suvning kuchi yetmadi. Sizni unga qaraganda nafasi o'tko' deyishdi.

= Shaytonning qo'li bu! Astagfirulloh! - dedi Keldiyor niroyat o'zingning mulalligi esiga tushgandek. - Qarang, odamning qo'liga o'shamaydi. Shaytonni layinniki... Bu aniq...

= Yo'g'e, - dedi tandirchi. - Oddiy qo'l-ku...

= Oddiy qo'l emas! - dedi qat'iy qilib mulla. - Bu shaytonning qo'l. Taomingizga shayton sherik bo'lyapti... Go'shti halolmidি?

- Ha, - dedi Salom. - Absalim qassobdan olganman...

Mulla baribir bosh chayqadi.

= Oxirzamonning shunaqa alomatlar bo'rdi eshitgan edim... Egasi yo'q qollar, egasi yo'q boshlar, egasi yo'q ko'zlar,

egasi yo'q oyoqlar egasini qidirib, osmonda uchib yurarkan. Bu qo'l ham egasini qidirib kelgani aniq. Salombek, oxirzamon ya-

qina o'xshaydi.

Mullaning bu qat'iy xulosasi qo'nga yoqmadni chog'i, u lagan-

ga koft bosishdan to'xtab, zabit bilan havoga ko'tarildi va avval ko'runkich barmog'i bilan o'rta barmog'i orasiga bosh barmog'ini yashhilab joylashtirib oldi, keyin mullaning naq burni tagiga olib kelib ko'rsatdi. Mulla shundoq ko'ziga tegay deb turgan ikki bar-

monq orasidagi bosh barmoqni ko'rib, qo'rqib ketdi, gavdasini orqaga oldi.

= Iye, - dedi u ko'zları ola-kula bo'lib ketib. - Bu hali tarbiya-

siz ham ekan-ku!

Qo'l ikki barmoq orasida turgan bosh barmoqni ko'rsatgan-cha mullaning burni tagida ancha turdi. Keyin yana laganga qarab shor ng'idi, hech narsa bo'magandek oshni "havoga ko'tarishda" davom etdi.

- Biron kechirilmas gunohingiz evaziga bu! – dedi mulla ni-hoyat.

- Bir tandirchi bo'lsam, – tandirchi nolindi, – esimni taniga-nimdan beri tegrimon toshini aylantirman, oyog'im loydan chiq-maydi. Mening qanday kechirilmas gunohim bo'lishi mumkin?

- Bandasi qilgani gunohini bilmaydi, ammo Tepaga hammasi ayon! – dedi mulla xuddi amri ma'ruf qilayotgan ohangda. – Ham-masini hisoblab o'tiruvchi va bunday ofatlarni yuboruvchi Robbi-miz bor. Tovba qiling, shunda qutulasiz.

- Ikki oydan beri tovba qilib yotibman, – alamlı ohangda dedi ham berdim. Foydasi bo'lmadi.

Tandirchingin bu gapi mullani hushyor torttirdi. Hozir un-chalik mavridi bo'lmasa-da, lekin ham kelajakni, ham cho'ntakni o'ylab, joyida tanbeh bermoqni va bu adashgan bandaga to'g'ri yo'l ko'rsatishni o'zining burchi deb hisobladi.

- Sadaqani, awalo, og'zida ilmi bor odanga berish kerak.

Tandirchi soddha edi. Mullaning tagdor gapini to'g'ri tushundi.

- Qishlog'inizdag'i qiynalayotgan talabalarga ham sadaqa o'mida yo'lkira berdim...

Tandirchingin soddaligidan mullaning ensasi qotdi.

- Talabalar og'zida ilmi borlarga qo'shilmaydi. Ular har x'il nopol ishlarga ham arakashib yurishadi. Shuning uchun ularga berigan sadaqa o'tmaydi. Sadaqani toat-ibodati, ilmli kishilarga bermak joizdur...

Tandirchi bu gapdan ancha izza tortdi.

- Buni bilmas ekanman, – tan oldi u. – Mulla Ablaz musofirchilik-dayurgan talabalarga bergen sadaqalaringiz o'tadi, degandi.

Mullaning bu gapdan ham ensasi qotdi.
– Mulla Ablaz madrasa talabalari niazarda tutgan chog'i, siz tushumagansiz.

- Qishlog'imizda unaqalar yo'q-da.

Mulla Keldiyor endi bu go'lbandasiga ochiqroq ishora qilishi-ga to'g'ri keldi.

- Unaqa talabalar bo'lmasa ham, ertayu kech ibodat bilan mashq ul kishilar bor, – dedi biroz zarda bilan.

Bu orada laganda osh tugagan, qo'l endi o'rtaga qo'yilgan me-valardan totinardi. Mullaning esa ishtahasi bo'g'ilgandi. Shu sa-

habbi ham qo'ning bezbetligidan handa o'ziga atalgan mevalarga habibi qilayotganidan jahli chiqdi.

- Bi

rostdanam ochofatnинг o'zi ekan, – dedi u. – Hammasi-ni yonalmay yutuyapti. Xo'sh, bunday qilamiz. Andak chiqimdon-ing' u, ammo ish berishi aniq. Men qirq kun kechasi bilan qay-tima qilib o'qiyman. Shu bilan tinchib ketasiz, xonadoningizga nomi kiradi.

Jahom xursand bo'lib ketdi: zora qaytarma ish berib, qo'ldan qutuba, Tandirchiga qaytarma qilish bir to'qliga tushgan bo'lsa-qidatida turdi: qirq kunda qaytarma qilish bo'qib berdi. Tandir-chi endi "shayton qo'l"ning uydan g'oyib bo'lishini sabrsizlik va intlik bilan kuta boshladi. Zero, qo'l paydo bo'lganidan beri to'g'or sekin qarzga kira boshlagandi. Bu holat tandirchingin ko'nglini g'ash qilib turgani uchun qaytarmadan umidi katta edi. Anno qo'l mulla Keldiyor aytgandek, qaytarma qilingandan in'ning bir hafta emas, uch hafta o'tsa ham yo'qolmadi. To'rtinchini hanada ro'zg'orni eplab turish uchun yana qarz olishga to'g'ri heldi.

Heshinchchi haftaga kelganda u o'zini mulla Keldiyor bir to'qli-

gi chu'v tushirganiga, qaytarmasi ish bermaganiga amin bo'ldi. Ishonung uchun dardini yorish uchun ishonchiroq odam izlay hoshladi. Bu paytda baraka ketib, faqat qarzga kun ko'rayotgan bo'la da, Panji muallimdan maslahat olishga qaror qildi: qo'pol, qo'ris bo'lsa ham u to'griso'z odam, bir tomoni ayligiga qarindosh-hig' hor. Panji muallim ham atoyi xudoynining daragini eshitib, mahdal qilmasdan yetib keldi. U ham xuddi Azim raisday ilkoni o'g'li olunga qo'yib yeyishga chog'langan ham ediki, qo'l o'tgan gal uchun ham undan alamini oldi: ilkini uning oldidan tortib oldi-da, havoya ko'tarildi va xuddi o'tgan gal Azim rais paqpos tushirgan-day ilkidagi etni yamlamay "yuta" boshladi.

Huni ko'rgan Panji muallim esi og'ganday havodagi qo'liga qa-ga to'g'ri keldi.

– Unaqa talabalar bo'lmasa ham, ertayu kech ibodat bilan mashq ul kishilar bor, – dedi biroz zarda bilan.

Bu orada laganda osh tugagan, qo'l endi o'rtaga qo'yilgan me-valardan totinardi. Mullaning esa ishtahasi bo'g'ilgandi. Shu sa-

= Qo'lligini ko'yapman, – zarda qildi muallim. – Kimning

qo'lli? Egasi nega ko'rinnmayapti?

- Sizni shunga chaqirdim. Egasi kimgilini aniqlab, haydab yubormasak, meni xonavayron qiliyapti, domla...

Bu gaplarni aytayotganda tadirchining ko'zlaridan yosh chiqib ketdi: uning sabr kosasi ham, ko'ngli ham to'lib bo'lgan-di. Suyagi qora mehnatda qotgan, qishloqda ziqla va qahri qattiq deb nom chiqargan kap-katta odamning ko'zida yosh ko'rib, Panji muallimning ham yig'lagisi kelib ketdi.

- Anchadan beri?

- Anchadan beri... Ikki oydan oshdi, - tan oldi tadirchi bolasday piqliarkan.

- Yig'lamang, - taskin berdi muallim. - Hammasi yaxshi bo'la-

di.

U eti tobora shilimib borayotgan havodagi ilikka alam bilan qarab turar, agar shu qo'l bo'lmaganda bu ilik ham, undagi et ham hozir o'ziniki bo'lshini ichdan his qilib turardi. Muallim bid'atchi emasdi va har bir masalaga ilm ko'zi bilan qarardi. Bu gal ham shunday qildi: o'zicha chamalab ko'rди. So'ng o'midan turdi - qo'l ilikdan etni ajratib olish bilan ovora edi - tadirchini hayron qoldirib, qo'lining orqa tarafiga o'tdi va, aftidan, qo'l egasining ketini mo'hallab, xuddi o'n bir metrda to'p tepayotgan futbolchiday, bor kuchi bilan tepdi: tepki shunchalik kuchli ediki, unda ilik alami ham mujassam bo'lgandi - ammo Panji muallim kutganidek oyog'i qo'l egasining ko'rinnayotgan ketiga tegmadi, aksincha, uning zarb bilan tepilgan oyog'i havoni vizillab kesib o'tdi, ochiq havoda naq shiftgacha ko'tarildi: muallim o'zini tutolmay shundoq qo'lining tagiga gursillab dustaman yiqlidi. U birpas o'ziga nima bo'lganini bilmay yotdi. Tadirchi ham qo'rqib ketdi: hozir diyyijo qilib o'tiradigan payt emasligini anglab, ko'zdagi yoshni artdi-da, yerda murdaday cho'zilib yotgan muallimning yelkasidan ko'tara boshladi.

- Buning keti qani?! - dedi yotgan yerida muallim o'zining harakatiga izoh bergandek, xuddi muhabbatni rad etilgan o'n sakkiz yashar yigitdek ozurdalik bilan. - Boplab tempoqchi edim-da o'ziyam. Agar tekkanda naq do'zaxga borib tushardi...

Dasturxonga ilik tap etib tushdi: unda bir tishlam ham et qolmagandi. Qo'l cho'zilib yotgan muallimning ustiga kealdi va kafalarini yopib olib, musth qildi, so'ng muallimning savoliga javob o'rnida naq boshiga kelib, uchi-to'rt marta baland-past bo'ldi,

natiyada muallim ham, tadirchi ham qo'l nima demoqchiliginin dioxov tushundi: agar qo'ning qolgan qismlari ham, egasi ham ko'ringonda, unda u chap qo'lining tirsagidan ushlab, muallimga ko'pabilit biladigan chapani ishorani ko'rsatayotganini angalmalikning iloji yo'q edi.

Muallim o'midan turganda qo'l g'oyib bo'lgandi. Aftidan, u qori, shung'i va injiq odam bilan talashib, obro'sini ketkizgisi kelmay, havoga singib ketgandi.

Shunday bo'lsa ham muallim tadirchiga eng oqilona, bepul maslahat berdi: qo'l haqida rasmiy idoralar bilan, dastlab mahalla raisi bilan gaplashish kerak: "Mahallaning baland-pastiga mas'ulini, u nimalar bo'layotganini, fuqarolarni qanday o'marisha-yotganini bilsin va yordam bersin. Shusiz ham yordamga muhtoj otilang'a ajratilgan pulni o'zi "gum" qilib, semirib yotibdi". Salom tadirchiga bu maslahat ma'qul kealdi: u o'tgan yili o'ttiz yil maktaba ishlab, direktor bo'lmagach, raislikha nomzodini qo'ygan Alimning xufya iltimosi bilan qarindoshlarini unga ovoz berishga ko'ndurgen edi. Shu sababli oqsoqol o'zini qazdor his qilib, zora yordam qo'lini cho'zsa..."

Salom umid bilan mahalla idorasiga yo'l oldi.

Uning gaplarni batatsil eshitigan Azim rais tadirchini mahallaning aksar tirikchilikka o'ralashib qolgan odamlari kabi ruhan charchagan, deb o'yladi. Ammo oraga mulla Keldiyor ham arabolqani va qo'lini ko'rganini eshitgach, o'yaniq qoldi.

- Uta, - dedi u niroyat o'ylab bo'lgach. - Men bunaqa cho'pechaklarga ishommayman. Lekin, bilishimcha, sizning uyinuzda jinoyat sodir bo'yapti. Kimdir uyingizza xuddi kinolardagi dekk ko'rinas qiyofaga kirib, hozirgi texnikada buning iloji ko'p, o'g'irlik bilan shug'ullanayapti. Shundaymi?

Tadirchi o'ylab ko'rsa, masalani rais tushuntirganday izohla-

si ham bo'larkan. Shuning uchun boshirg'adi.

- Umuman, shunday... Uyimdan o'g'irlik sodir bo'yapti.

- O'g'irlik haqidagi shikoyat bilan menga emas, huquqni himoya qilish muassasalariga murojaat qilishingiz kerak. Tadirchi umrida biron marta ham huquqni himoya qilish muassasalariga shikoyat qilmagandi, zero ular ham "Nima shikoyatingiz bor, mana biz huquqingizga mas'ulmiz?", - deb oldiga kelmagan. Shuning uchun raisning taklifiga tushunmadidi. Rais ma-

hallaga yordam so'trab kelgan har qanday muhtolga yordam qo'li-ni cho'zish uchunadolatli tarzda saylamaganmi, tadirchiga o'zi aytib turib, ariza yozdirdi.

– Qani, shunday deb ariza yozing Menkim, Salom tadirchi... uyimda shunday-shunday... noma'lum shaxslar tomonidan...

– Shaxs degani nimasi? – so'radi tadirchi egri-bugri yozish-dan to'xrab.

– Shaxs – bu kimsa degani.

– Men hech qanday shaxsni, ya'ni kimsani ko'rganim yo'q. Biznikiga faqat egasiz qo'l keladi...

– Rusumi shunaqa... "Shaxs", dumsiz qilib yozing. Xo'sh, davom etamiz, o'g'irlik sodir etilmoqdakim, yordam berishingizni so'ravman. Ana bo'ldi. Endi mahalla nozirining oldiga boramiz...

Salom tadirchi bilan rais aji-buji qilib yozgan arizani ko'ta-rib, shundoq mahalla idorasida joylashgan nozirining xonasiga kirishi.

Arizani o'qib ko'rgan nozir hech narsa tushunmadi, tadir-chining o'zidan so'rav boshladi, soddalik qilib, tadirchi yana qo'l haqida gapirib berdi. Nozir o'midan turib, Salom tadirching oldiga keldi-da, uning ko'zlariga uzoq qarab turdi. Keyin kompyuterga o'tirib, uni uzoq tiddi. Izlaganini topolmadi, hafsalasi piro'lib, yana Salom tadirchiga o'girildi.

– Aka, to'g'risini aytинг, har xil radiolarni ko'p eshitaszimi? – dedi dabdurustdan.

– U qayerda bo'ladi? – dedi tadirchi savolga tushummay.

Nozir uni o'zini go'llikka solyapti deb o'yadi.

– Baloday tushunib turibsiz. Egasiz o'g'ri qo'lni ko'rgan odam tushummasligi mumkin emas. Radiongiz bormi deyapman? – dedi savolga javob bermay.

– Bor, – dedi tadirchi. – Eskirib ketgan. Xotin ustiga bolalar ning kitobini taxlab qo'yadi.

– O'sha ustiga kitob taxlangan radioni ko'p eshitaszimi? Har xil davlatlarkiniki...

Salom tadirchi umuman radio eshitmasligini, qolaversa, radiosи otamzamonalardan buyon ishlamasligini, Asrorqulning montyor o'g'li titib ko'rgandan so'ng quruq qutining o'zi qolgani ni aytdi. Nozir unga ishommay qarab turdi:

– Qiziqi, – dedi u stolni chertar ekan. – Unda bu ariza bilan noma demeoqchisiz?

– Shu... Uyimda qandaydir qo'l paydo bo'lgan. U meni kasoda uchra tyapti, baraka ketdi. Ortiqcha xarajat deganday... Xullas, uni deb ro'zg'orni butlay olmayapman. Tirkchilik og'ir bo'lib qoldi.

Nozir o'midan turib ketdi.

– Bu bilan nimaga ishora qiliyapsiz? A? Nimaga? Menni? – deb so'radi tadirchi nozirining kutilmagan savoli-

ta tushunmay.

– Ha, siz... Mana bu arizani yozgan sizmisiz?

– Men...

– Unda savolimga javob bering. Bu gapingiz bilan nimaga va kimi ishora qiliyapsiz?

Tadirchi derazadan tashqariga qarab oldi. Nozir "nimaga va kimi" deganda tashqarida imtiyoz bilan yog'-pog' olish uchun to'plumb turganlarni nazarda tutyaptimikin, deb o'yaldi.

– Halgilarga... – dedi nozir. – Ya'ni bizni yomon ko'radianlar...

Uning savolidan oqsoqolning ham rangi oqarib ketdi.

– Men unaqa odamlarni tanimayman, – dedi tadirchi. – Men mana oqsoqol guvoh, arizani birga yozdik.

Nozir oqosqolga sinovchan ko'z tashladi.

– Tuhammati qaranglar! – dedi rangi oqarib ketgan rais. – Hali meni ham sherik qilmoqchimisz?!

Oqsoqol nozirining qarashidan xavotirga tushdi. Tadirchi dovdirab qoldi.

– Arizani siz bilan yozdim-ku...

To'g'ri, men bilan yozdingiz. Men faqat siz aytgan gaplarni qol'ozga qanday tushinish kerakligini aytib turdim. Birga yozdik degasingizga o'laymi... Sal bo'limasa, birga jinoyat qilganniz ham deydi bular.

Keyin nozirga tushuntira boshladi:

– Bu kishi uyimda noma'lum o'g'ri paydo bo'ldi, deb keldi. Men esa bu gaplarni menga emas, nozirga yozing, deb oldingizga olib keldim, – dedi oqsoqol tadirchi yana bir narsa deb qo'yma-sin deb.

– Unda nega qanaqadir egasi ko'rinnagan qo'l deyapti... Yo'nidan-to'g'ri o'g'ri paydo bo'ldi desa o'ladimi?

- Arizaga rasamadi qilib yozilgan. Endi bu kishi yettinchi sinf-gacha o'qigan. Savod andak chatoqroq. Qolgan xalq o'zaki ijodi. Xalqimiz baxshilarni yaxshi ko'rishi shundan... Shunga sizzdan bu holatni o'rganib chiqsangiz deb kelgan edik.

Nozir endi yengil tortdi. Arizani olib, uni yana bir o'qib chiq-di-da, ko'ngli to'ldi chog'i, stolda yotgan papkaming ichiga solar-kan, oqosoqolga hurmat ohangida gapirdi:

- Siz mahalliy hukumatsiz. Tekshir desangiz, tekshiramiz. Bizni bu kursiga shuning uchun o'turg'izib qo'yishgan.

Xullas, ertasiga mahalla raisi bilan nozir "shaxsi nomalum kimsa tomonidan o'g'irlik sodir ettilayotgan obyektni" o'z ko'zlarini bilan ko'rishga boradigan bo'lishdi.

Salom tandirchi qarz-havola qilib, bozorlik qildi, uyiga oqso-qol ayvganidek, nozir xush ko'radian qovurdoq ostirdi, oqosoqol "nozirning tomog'dan ovqat o'tishi andak qiyin, shuning uchun o'russ shishasini suvga tashlab qo'ying", degandi, bir emas, uchta-sini tashlab qo'ydi.

Tushdan keyin oqosoqol bilan nozir qo'lting'ida bir talay qog'ozlar ko'tarib kirib kelishdi.

- Qani, o'sha o'g'ri qo'lni ko'rsating-chi! - dedi nozir xuddi jinoyatni nozir fosh etadigan shasht bilan.

Oqsoqol "Avval taom, bad az kalom!" deya nozirni taomga taklif qilib, tandirchini turtdi. Aslida, tandirchiga ham shu kerak edi. Mana endi to'kin dasturxon ustida o'grini o'z ko'zlarini bilan ko'rishsin. Shunda har xil radioni ko'p eshitadimi, yo'qmi, ham-masini o'zi ham bilib oladi.

Kutulgandek bazm boshlanib, nozir ustma-ust ikki piyola bo'shatgach, kutulgandek qo'l paydo bo'ldi. Nozir ozroq kaf-qilganidan qovurduq bilan ovora edi. Tandirchi oqosoqolni tur-chiqib, Panji muallimning "Yetimlarning haqini yeganilar qo'rqaqan payti oqarmaydi, rais ham yetimlarning pulini yeb yotibdi"; - degan g'iybatida jon bor chog'i, rangi ko'karib ketdi. Oqosoqolning dasturxonning chap burchagiga qarab bezrayib qolganini ko'rgan nozir ham u qarab turgan tomonga ko'z tashladi va u keyingi gal olib maza qilib chaynayman deb mo'ljallab turgan tuyurni egasi ko'rinnmayotgan qo'l olib, havoga ko'targanini ko'rdi: nozirning og'zini lang ochdirib, tuyur shundoq havoda g'oyib bo'ldi. Qo'l

endi boshqa bir tuyurni kartoshkaga qo'shib "paqqos" ko'tara hishlidi. Nozirning o'g'zi ancha paylgacha ochilib turdi - u ho'plab o'g'irliklarga shaxsan guvoh bo'lgandi, ammo o'g'irlangan ashvoyly dallining havoga aylanib ketishini birinchini marta ko'rrib turishi edi - uning gezargan tunji atrofida bir-ikkita pashsha ham ayvana boshladи. Hayaison payti tomog'i ham qitillab qoladi, she-killi, nozir o'zini bosish uchun yana ikki piyolani bo'shatdi.

- Mana shu o'g'ri, - dedi tandirchi paytdan foydalanib. - Siz menga Ishomagandingiz...

Nozir uning gapini deyarli eshitmadidi. U hali ham qo'iga qarab turor, qo'l esa birpasda yarim lagan go'shtni havoga "ko'tarib", chanchi ham chiqarmay yo'q qilib bo'lgandi.

Nihoyat nozir o'ziga keldi va kasbi esiga tushib, poylab tulib, qo'lni ushlab oldi. Qo'l hukumat vakilining qo'lida baliqday tipirechilay boshladи. Nozir yonidan to'pponchasini chiqarib, uni qo'lung kaftiga to'g'irлади va har qanday dushmanni yer tishlata-dijon qut'iyat bilan so'radi:

- Kimsan? Hozir otib dabdalangni chiqaraman!

Nozir bu gaplarni qanchalik vajohat bilan mardonovar aytgan bo'lsa qo'l pinagagini ham buzmay, tandirchi va oqsoqolni hayratga solgancha, ikkita barmog'i orasidan yana o'sha bosh barmog'ini chiqarib, noziriga ko'rsatdi, o'zining gapidan filday shishib turlijan nozirning yeli chiqib ketganday bo'ldi: u hali ikki barmoq orasidan chiqib turgan bosh barmoq ta'siridan o'ziga kelmasidan qo'l uning qo'lida havoga singib g'oyib bo'ldi. Nozir atrofga alang-lah, qo'lida to'pponcha bilan uni izlay boshladи. Yo'q, u g'oyib bo'lgанди. Keyin u tandirchiga g'azab bilan boqdi.

- Bu nima o'yin? Bu fokusni kim qilyapti? Kim qilgan bo'lsa ham pushaymon bo'ldi.

Unga bu fokus ham, ko'zboylog'ichning o'yimi ham emasli-jimi tushuntirish uchun ancha vaqt ketdi. Faqat ikkinchi shisha-bo'shogandan so'nggina nozir ularning gapiga ishondi. Uchinchi shishada esa nozir tandirchining yuzidan o'pib, "Buning-ku qo'lli ko'olib turibdi, umuman, o'zi yo'q jinoyatchilarni ham tovbasiga tayantiradiganlar borilgini" aytib maqtana boshladи. O'sha payti hu'gaplarni aroq ta'sirida aljirash deb tushunishgandi. Ikki kun-dan so'ng iskovuch it bilan bir to'da qurollangan odamlar kelish-jonda nozir rost gapirganiga amin bo'lishdi. Guruh haqiqatan

ham qilni qirq yoradigan, izlaganini topmasa q'ymaydigan barzangi va taaptortmas yigitlardan iborat edi: hovlida ham, molxon-a-qo'ralarlarda ham bironqa irga, bironqa burchak qolmadı: arining uyasigacha, hovli devorining tagidagi sichqon inigacha maxsus asbob-uskunalar bilan titib chiqidi, xullas, sichqonning inini ming tanga qilishdiki, kovlab ko'rilmagan joy qolmadi - tandirching hovlisi birpasda g'alvirday titib tashlandi - u endi naq

bomba tushganday xaroba manzilga aylangandi. Kamini itga qo'yib berishdi: it, aftidan, ularning ishonchini qozongan yoki rostdanam kuchli iskabtopar edi: u qayerni hiday boshlasa, guruh o'sha yerni kovlashga tushardi. Tandirching otasidan qolgan devorlarning tagida nimadir bormidi yoki rostdanam qo'l o'sha poydevor yoriqlarini o'ziga makon qilgannidi, har qalay, it uyning har ikki qadamini xuddi xazina topganday hidlab qolar, izidan kelayotganlar darrov kovlashga tushishar, bir xandaqcha chuqurlik kovlashgandan so'ng u yerdan so'nggi bir asrdan ortiq davr mobaynida vaqt tuprog'i yutib yuborgan turli ro'z'or buyumlar: sopol idishlarning simiqlari, choynak qopqoqlari, ar-qon yoki kigiz qoldiqlariga o'xshagan lash-lushlar chiqardi - hovli bunday noyob osori-atiqlar bilan deyarli to'lib bo'ldi: uyning ichida ham, tashqarisida ham, devor tagida kovlab ko'rilmagan bir qarich ham joy qolmadi, ammo qo'l o'ta ayyor yoki rostdanam makkor shaytonga tegishli edi chog'i, tutqich bermadi. Kechga borib, guruh ham, it ham holdan toydi.

- Bu yerda hech qanday o'g'ri ham, biz qiladigan ish ham yo'q. - dedi nihoyat ularning ichidagi norg'uli, chamasi u boshiq edi. - Menimcha, uy egalarnini shifokorga ko'rsatish kerak.

Uning shu gapimi kutib turishgandek, butun guruh hovli bo'ylab yoyib tashlashgan asbob-uskunalarini yig'ishtirib, haydovchisi toqati toq bo'lib kutib o'tirgan mashinaga solishdi-da, jo'nab qolishdi: mashina joyidan qo'zg'alib, muyluishga yetmasdan paxsadan qurilgan uyning poydevori titlib ketib, batomom qulab tushdi va undan ko'tarilgan chang Langarotadan ham ko'rini turdi.

Boshpanasiz qolgan tadirchi vayronaga aylangan uyi ustida bosini ushlagancha o'tirar, ko'rinishi aftodahol, yuz-ko'zida umidsizlik, nochorlik, tushkunlik bilan birga afsus-nadomat aks etar edi. Bolalar esa tashlab ketilgan jang maydonini eslatadigan

uy ustida allaqachon "urush-urush" o'yinini boshlab yuborishligi, tondirching ayoli esa tizzasini quchoqlagancha uy qulab tushayotganda devordan otilib tushib, yoniga dumalab kelgan tehlik eltagiga karaxt holda qarab turardi.

Mahalla idorasasi o'ziga yuklatilgan vazifani uddaladi: tandirching ollasini tang paytda o'z holiga tashlab qo'ymadı: unga lo'l uyini tiklab olishguncha amallab yashab tursa bo'ladigan chodi berishdi.

Tandirchi qancha harakat qilmasin, oyni etak bilan yopib bo'lmadi: egasi yo'q o'g'ri qo'l haqidagi qo'shiq chatilgan mish-mishlar butun viloyatga tarqab ketdi.

Indi turli joylardan, gazetlari nashrlardan, televide niye va radiordan muxbirlar, har xil ilmiy tekshirish dargohlaridan olinolur, hatto bu sirlari hodisadan o'zlariga naf chiqarishni o'yagan siyosatchilar kelishar, bu g'aroyib voqeani turli usullar bilan tadqiq va tahlii qilishar, sharhashar, qishloq ahlidan intervjular olishardi. Mahalliy aholi o'zlar hech qachon ko'rilmagan qo'l to'risida to'qib-bichib, qo'shib-chatib gapirib berishardi: daslabki intervjuvularda oddiy odamlarnikiga o'xshash bo'gan qo'l isrigi intervjuvularda ko'zga ko'rinnmas ulkan devning naq chinor-day keladigan qo'liga aylanib ulgurgandi. Faqat ular tandirching uyliga yaqinlashholmasdi. Tandirchi endi taqdinga tan bergen-di: u tobora darmoni qurib, kuchdan qolayotgan bo'tsa-da, egasi yo'q qo'l uchun ham ishlashta, uning yebto'ymas qormini bir iloi qilib to'ydirishga, undan ortganini bolalari bilan baham ko'rishga alabiqbat rozi bo'lgan, u endi qo'l haqida hech kimga gapirmsa, intervyu ham bermas, kelganlarni hovliga kiritmasdi ham. Chet-dan kelganlar ham, qishloq doshlari ham endi darvozadan narida turib, hovli o'tasida, vayronaga aylangan uy yoniga qurilgan chodir oldida turmush va tirikchilik bilan kuymalanib yurgan tandirching ollasiga ko'zlar tushardi...

Tanom.

Qissadan hissa yoxud yakunga qo'shimcha yakun. Idoranning majislar zali tersotaliklar bilan liq to'igan, g'ala-g'ovur, odam odamni tamimas, qandaydir baqir-chaqir, to's-to'po-hun hukmron edi.

Mulla Keldiyor zalgı kirishi bilan odamlar birdan tinchidi: hamma unga xuddi xaloskorini ko'rgandek najor bilan tikilib turishardi.

— Keldingizmi, mulla, — dedi mahalla noziri bilan minbarda o'tirgan Azim rais o'midan turib unga peshvoz chiqarkan. — Odamlar kutib qolishdi.

— Nima gap, oqsoqol? — dedi mulla ovoziga biroz bepisandlik qo'shib. — Bizni bunaqa majlislarga chaqirmsdingiz-ku!

— Bizga yordam bermasangiz bo'lmaydi. Siz ko'pni ko'rgan odamsiz. Yana og'zingizda ilmingiz bor. Qolaversa, siz bularni oldindan bilgansiz...

Mulla Keldiyor bu e'tirofdan bir qop shishgan bo'lsa-da, lekin butun qishloq nega o'zini kutib, to'planib turganidan xavotir olib, o'ziga tikilib turgan zal to'la odama ga yuzlandi.

— Egasi yo'q qo'l endi hammaning uyida paydo bo'tibdi! — dedi oqsoqol mullani masaladan tezroq xabardor qilish uchun.

Bu xabardan so'ng butun zalga o'lik sukunat cho'kdi: hamma mulla Keldiyorning og'zini poylab turardi...

Endi tamom.

HAYKAL

Maqolalarda tilga olingan odamlarning o'zlariga taqsimlanishi ham yetmay qoladigan nusxada chop etiladigan nashrlarda o'zi kabi unutishga mahkum etilgan tengdoshlaridan binontarining qachonlardir ko'rilgan alog'-chalog' tushlari kabi dorilarning davrlarni qo'msab aytilgan suhabatida yoki bugungi olatasir davring shiddati ichida yo'l chetida o'tirgan tilanchichalik ham qidri qolmagan keksa va o'zidek parti ketib, sharti qolgan, alloqachon maydonni tashlab ketgan aqlo idirokning mag'lubiyatini hamon tan olmay kelayotgan o'jar san'atshunoslarining davrga ho'ilgan munosabati monand hafsalasizlik bilan yozilgan taqrizlari nomi ko'rinish qolmasa, o'n-o'n besh yildan beri daydi it ham ko'chasiдан o'tmag'an, o'zining yulduzli pallasini kutaverib, holdan toygan, zada va ozurda ko'ngilining qirlarida umidsizlik tutuni burq'sib yotgan, na san'atdan, na davralardan, na zamondan topmagan hayotining mazmunini izlagandek keyingi yillarda konularini tog'-toshlarda o'tkazib yuradigan haykaltarosh N.Ning omudi birdan kelib goldi. Uning guruhiга bira to'la uchta haykal, haykal bo'lganda ham el-yurtning g'urur va faxriga aylanadigan uchta ulkan haykal yasashga buyurtma tushdi. Ancha yillardan boyiishi chappasiga ketib, bir paytlardagi shon-shuhrat dovrugi so'na boshilagan, kuni o'z otalarini sotib, martabalarini oshirib olijin, endi esa vijdon azoblaridan qutulish uchun uylarini bir chotiga padari buzuqvorilarining byustlarini o'rnatib qo'yagan qurumsoq va kalondimog' boyvachcha-yu amaldorlarining sadaqalariga kun kechirayotgan bir paytda bunday muhim boyurtma topshirilishining o'ziyoq qashshoqning kazina topib olibi bilan barobar edi. Mahkamada bo'lib o'gan, bir haftaga cho'zilgan turli darajadagi suhbatlardan so'ng unga ishning holdami va ahamiyati haqida batafsil izoh berishdi. Bu suhbatlarda buyurtma shaxsan rahbarning nazoratida ekani, aslida bu hokkollarni yaratish g'oyasi ham rahbarning o'zidan chiqqani, shu sababli ishga mas'uliyat bilan yondashish, ko'rsatilgan mudodda ulgurish, haykalning har bir misqoligacha, hatto qahramonlar tarmoqlari-yu qoshi kipriklarigacha rahbarning tasdig'i dan o'tishi shartligi haqida qayta-qayta uqtirishardi. N. qo'lliga olgan uchta dastlabki chizmani — tarixiy milliy qahramon, buyuk olim

va buyuk shoirning mutaxassislar tasdiqlab bergen o'cham-lari aks etgan chizgilarini olgach, hayajonlanib ketdi. Axir u bu siyomlarni ilgari ham bir necha marta o'zi yasamoqchi bo'lgan, ammo uning orzusi sahro qumlariga singib ketgan yoz yomg'irlari kabi umrining sarhadlarida beiz, benishon g'oyib bo'lgan-di: bu ulug'vor va abadiylilka muhlangan qiyofalarini yaratish uchun u umrining yarminni sarflab bo'lgan, qolgan yarmida ham bu orzusi turgan cho'qqiga chiqishi amrimahol edi. U orzusida-gi haykallarni yasash uchun na mablag', na rag'bat topoldi. O'z xalqning tarix sahnasida abadiy muhrlanib qolishinga xizmat qilgan milliy qahramonlar haykallari o'zga elatilarning katta-kichik shaharlariда ko'rik berib turganini ko'rgan kezlar "Nega bizning shunday haykalimiz yo'q, shunday haykal yasash menqa nasib qilarmikin?", degan o'y uning xayolidan yuzlab marta o'tgan bo'lsa ajab emas. Navqironlik paytidida g'ayrati ichiga sig'may bu gapni hatto o'zining juda martabali va baobro' keksa maslak-doshiga ham aytgandi. O'shanda ustoz unga: "Qornim to'yib yur-sin desang, bu fiqrni miyangdan chiqar, undan ko'ra, ana, qo'llari qabargan paxtakor haykalini yarat, o'sha ham milliy qahramon!", - deb tanbeh bergandi. U hammasiga qo'l siltab, otasi kabi sang-taroshlik qilish uchun tog'u-toshlar kezib yurganda, Yaratgan uning ko'ngil ohini eshitdi - birdan mo'jiza yuz berdi. Bu faqat o'zining emas, shaxsan rahbarning orzusi, rahbarning topshirig'i, davlat ahamiyatiga molik buyurtma edi! N. ana shundagina rosi-dan ham davr o'zgarganini va o'sha - ustoz bilan gaplashgan zamonalardan ancha ilgarilab, hatto ularning tushiga ham kirmay-digan emin-erkinlik, imkoniyatlar davriga yetib kelishganini his-qildi. Qolaversa, butun dunyo bir-birini chuv tushirib, o'zlarining ro'zg'or muammolari-yu, naflari bilan ovora bo'lib yorganda, butun bir xalqning g'ururi va faxri bo'lgan uchta buyuk siyomonig haykaliga buryutma tushishi - bu jiddiy voqeа, tarixiy hodisa deb baholaso ham bo'lardi. Darvoqe, N. bilan mahkamada gaplash-gan jikkakkina bir to'rabbachcha bu buyurtmani "tarixiy voqeа" deb izohladi ham. To'rabbachcha N. ga haykalning o'zidan ko'ra buyurtmaning qanchalar muhim va nozik vazifa ekanı haqidagi yarim soat tushuntirish berdi. "Rahbarning o'zi bu uch siyomo haykalini shaharlарimizга о'rnatish orqali bir paytlar dunyo mo haykalini shaharlарimizга о'rnatish orqali bir paytlar havas qilgan milliy g'ururimiz va faxrimizni o'zimizga qaytarib

hormoqchi. Bu haykallarni ko'rgan har bir fuqaro va shahrimiz-ki hejgan mehmon bizning qanday xalqqa mansubligimizni his-tilib turсин. Haykal milliy qiyofamiz va ulug'vorigimiz timso-li bo'lib, astilar osha bizning buyuklik va quadratimizni ko'z-ko'z qilib turishi kerak. Siz haykallarda ana shu jihatlarini aks ettrir. Haykalni ko'rgan har bir odamning ko'nglida ana shu haykal orzili shahrimizga va o'zligimizga bo'lgan ehtirom paydo bo'lsin! Ili haykal orqali buyuklikning va abadiylilknig milliy qiyofasi-ni yaratning! Rahbar ana shunday ko'rsatma berdi. "Buyuklikning milliy qiyofasini yaratсин", dedi! Tushunyapsizmi?! Buyuklikning va milliylikning!", dedi u bu so'zlarga yana alohida urg'u bie'ib. Jiddok to'ra ko'rinishiga va bo'yiga yarashmagan tarzda gapdon va notiq chiqib qoldi. U N.ga rahbarning ko'rsatmasi va haykal yasash haqidagi g'oyasining mohiyati haqida yana uzoq aytilachgina gapini to'xtatdi. Uni boshqa bir xonaga taroshlan-jiin tarashshaday ozg'in yigit kirib, aftidan, jikkakdan ko'ra ham yuqoriroq lavozimdagи amaldor N ni xonasiga chaqirayotganini aytilachgina gapini to'xtatdi. Uni boshqa bir xonaga olib kirishdi. Hu "arkonu davlat" ham xuddi jikkak kabi haykal haqida emas, ho'iproq haykal orqali aks ettilishi kerak bo'lgan xususiyatlar haqida gapirdi. "Siz faqat haykal emas, bu uch siyomo orqali tafakkurimiz, ijodiy salohiyatimiz va qahramonligimizning qiyofasini yanatib berishningiz kerak. Bu qiyofalar mangulikning qiyofasiga syloniishi kerak! Bu rahbarning buyurtmasi ekanligini unutmang! Topshiriq shunday!". Mahkamadagi barcha suhbatlarda deyarli bir asl gap takrorlandi: bular shunchaki haykallar emas, xalqimiz qiyofasi, o'zimizning qiyofamiz, milliy qiyofamiz. Haykal qan-day bo'lsin, bizning asl qiyofamiz, buyukligimizning qiyofasi ham shunday bo'la. Bizni bilmaganlar haykalga qarab, biz haqimizda tanavvurga ega bo'lsin, haykalni ko'rib, qudratimizga tan bersin. Hu shaxsan rahbarning ko'rsatmasi va hakozo... N. buyurtmaning shoniyatini o'zi bilsa ham va o'ta mas'uliyat bilan ishlash talab qiyoyotganini tushunib tursa ham bir haftacha turli doiradagi amaldorlarning bir xil va'zlariga chidashiga to'g'ri keldi. U bu gaplarni o'zin ham bilaman, bu haykallarni xuddi sizlar aytgan-day yasash bir umrlik orzuim deb aytilib yuborgisi kelar, ammo o'n yillardan beri hatto ko'chasidan ham o'tmagan, bir paytlar o'si ko'rgan amaldorlardan tubdan farq qiladigan boshqa toifada-

gi, yangi, sergap, hushyor va yana juda kibrli, izzattalab, nighohrari va nazarlari xudi o'tkir pichoqning tigiday "Kesaman!" deb turgan bu amaldorlarning g'ashini keltirgisi kelmasdi. Aslida buyuk olim va buyuk shoir, buyuk sarkardaning haykalini yasashni qaysi ijodkor orzu qilmaydi?! Omadning chopgani shuki, uchalasi ham o'ziga, uning guruhiga topshirilayapti. Bo'limasa, haykaltarosh kammi? N. iganlari ham, yashirin bo'lsa-da, ulug' shoir, milliy qahramon, daho olim yashagan davri, ularning qiyofalarini chizigilarini, o'ziga xos belgilarni o'sha davr miniyaturlari va tarixiy kitoblardan tasavvur qilib, ularning kichkina byustlarini yasab, qancha oshno-og'aynisiga sovg'a qilib yubormagandi - shu sababli ularning qiyofalariga qo'lli kelishib, ko'zi o'r ganib qolgan. N. o'zida yo'q xursand edi. Mana endi o'zining kimligini, dohiyona iste'dod egasi ekanligini ko'rsatib qo'yadigan payt keldi.

Bu xabar faqat N.ga emas, barcha san'at ahli uchun xush-xabar bo'ldi. Rahbarning buyurtmasini unga rasman topshirishgan kuni ancha yillardan beri o'zining na tirikligini, na o'lilikligini bildirmagan, go'yo uzlatga yashiringandek, daraksiz ketgan, bir paytlar uning ruxsatisiz adabiyotga pashsa ham uchib kirolgan keksa shoir sim qoqib qoldi. Keksa shoir keyingi yillardagi o'zgarishlardan, ayniqsa, o'ziga bo'lgan yosh avlodning shartak munosabatidan noroziligini shu yo'l bilan bildirish uchun ham hech kim bilan gaplashmay va hech kimni qabul qilmay qo'yanadi. Hamma narsaga qo'l siltab, ijoddan ham, eski tanishlardan ham, matbuot-u muxbirlardan ham qo'lini yuvib, qo'titig'iga urgan shoir qanday qilib, o'ziga berilgan buyurtma haqida buncha tez eshitdi, N.ning aqli yetmadidi. Shuning o'ziyoq o'zini uzlatga chekingan qilib ko'rsatgan shoirning san'at olamida bo'layotgan har bir xabar va voqeani aslida zimdan sinchkovlik bilan kuzatib turganini bildirdi. Keksa shoir unga shunday mas'uliyatlari vazifa topshirilgani bilan tabrikaldi. Uning tovushi ancha xirillab, xuddi tobuctdan chiqayotganday, uzuq-yuluq va xira edi.

- Men bu xabardan xursandman, - dedi shoir. - Bu madaniy hayotimizdag'i katta voqeа. Anchadan beri millat tarixiga burchalik katta e'tibor berilmagandi.

N. minnatdorchilik bildirdi, keyin birdan shoirning bugungi kunda unutilib ketish arafasiga kelgan tarixiy asarlari esiga tushdi.

gi, yangi, sergap, hushyor va yana juda kibrli, izzattalab, nighohrari va nazarlari xudi o'tkir pichoqning tigiday "Kesaman!" deb turgan bu amaldorlarning g'ashini keltirgisi kelmasdi. Aslida buyuk olim va buyuk shoir, buyuk sarkardaning haykalini yasashni qaysi ijodkor orzu qilmaydi?! Omadning chopgani shuki, uchalasi ham o'ziga, uning guruhiga topshirilayapti. Bo'limasa, haykaltarosh kammi? N. iganlari ham, yashirin bo'lsa-da, ulug' shoir, milliy qahramon, daho olim yashagan davri, ularning qiyofalarini chizigilarini, o'ziga xos belgilarni o'sha davr miniyaturlari va tarixiy kitoblardan tasavvur qilib, ularning kichkina byustlarini yasab, qancha oshno-og'aynisiga sovg'a qilib yubormagandi - shu sababli ularning qiyofalariga qo'lli kelishib, ko'zi o'r ganib qolgan. N. o'zida yo'q xursand edi. Mana endi o'zining kimligini, dohiyona iste'dod egasi ekanligini ko'rsatib qo'yadigan payt keldi.

Bu xabar faqat N.ga emas, barcha san'at ahli uchun xush-xabar bo'ldi. Rahbarning buyurtmasini unga rasman topshirishgan kuni ancha yillardan beri o'zining na tirikligini, na o'lilikligini bildirmagan, go'yo uzlatga yashiringandek, daraksiz ketgan, bir paytlar uning ruxsatisiz adabiyotga pashsa ham uchib kirolgan keksa shoir sim qoqib qoldi. Keksa shoir keyingi yillardagi o'zgarishlardan, ayniqsa, o'ziga bo'lgan yosh avlodning shartak munosabatidan noroziligini shu yo'l bilan bildirish uchun ham hech kim bilan gaplashmay va hech kimni qabul qilmay qo'yanadi. Hamma narsaga qo'l siltab, ijoddan ham, eski tanishlardan ham, matbuot-u muxbirlardan ham qo'lini yuvib, qo'titig'iga urgan shoir qanday qilib, o'ziga berilgan buyurtma haqida buncha tez eshitdi, N.ning aqli yetmadidi. Shuning o'ziyoq o'zini uzlatga chekingan qilib ko'rsatgan shoirning san'at olamida bo'layotgan har bir xabar va voqeani aslida zimdan sinchkovlik bilan kuzatib turganini bildirdi. Keksa shoir unga shunday mas'uliyatlari vazifa topshirilgani bilan tabrikaldi. Uning tovushi ancha xirillab, xuddi tobuctdan chiqayotganday, uzuq-yuluq va xira edi.

- Men bu xabardan xursandman, - dedi shoir. - Bu madaniy hayotimizdag'i katta voqeа. Anchadan beri millat tarixiga burchalik katta e'tibor berilmagandi.

N. minnatdorchilik bildirdi, keyin birdan shoirning bugungi kunda unutilib ketish arafasiga kelgan tarixiy asarlari esiga tushdi.

- Aytpanday, menga sizning yordamingiz kerak. Men bu uchashni qiyola haqida aniq bir to'xamga kelishim uchun siz asarlarini foydalangan qo'lyozmalarni ham bir ko'zdan kechirsam degandim, - N. shoirning rozi bo'lishiga umid ham qilmay tavsiyalat qildi. - Bir gapplashsak, nima deysiz? Menga maslahatingiz juna zarur.

Shoir kutilmaganda rozi bo'ldi. U ancha yillardan beri hatto eng yaqin shogirdlari bilan ham sim orqali gapplashardi.

- Kelishdik. Indinga kechga yaqin o'tib kelavering. Ungacha tafsily asarlardan ko'chirmalar yozilgan daftarmi ham topib qo'yaman.

N. xursand bo'lib ketdi. Shu kuni ham, ertasiga ham uni olimlati, shourlar, ijodkorlar, hamkasbleri, rassosmlar bu sharafi vazifa va katta ishonch bilan muborakbos etishdi. Go'yo butun mamolatda bu haykallarni yasashdan muhimroq vazifa qolmagan day barcha ziyorollar faqat shu haqda gapplashishardi. N.ning oldiga universitet tarixchilarini ham kelib ketishi. Ular Nga turli xil taklitlari va, tabiiyki, bu ulug' siyomolarning tarixiy qiyofalarini haqidagi o'qilgan tarixiy qo'lyozmalar-u asarlardan kelib chiqib, turli qurashlarini taklif qilishayotgan bo'lisha-da, ularning bu ulug' siyomolar qiyofasi haqidagi fikrlari bir-biriga yaqin edi. Chunki tafsily asarlarda ularning qiyofalarini nisbatan kengroq tavsiflangan, shu sababli haykallar qiyofasini tarixiy qiyofalariga yaqin qilib yaratishda muammo kam bo'lishi tayin edi. Shunday bo'lsa-da, N. shoirning asl qiyofalari haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lishni istar, bu borada har qanday mastahatga jon deb quloq tutardi.

N. keksa shoirnikiiga borganida unikida akademik va N. bilan domraqobatlashib yuradigan haykaltarosh T. ham bor edi. Shoir N.ni ochiq chehra bilan kutib oldi. Akademik ham uning kaftini quttrayotgan, xuddi o'zi kabi mana to'kilaman, ana to'kilaman debi turgan qaltiliq qo'llari bilan qisib, kuch-quvvat tilab qo'ydi.

Bu hayotimizdag'i katta voqeа, - dedi u. - Sizga olim va shoirning haykalini topshirishning o'ziyoq yuz berajak katta o'qilishlardan darak beradi. Men bundan xursandman.

Men ham shunga umid qiliyapman. Milliy qahramonni qo'ya turovlik, u yasalishi kerak edi. Ammo rahbar shoir va olimning haykalini shahar o'rtasiga o'matishni buyurdimi, demak, yaqin

kunlarda ziyolilarga katta imtiyozlar beriladi, shu paytgacha bo'gan e'tiborsizlik va loqaydlik shu bilan yakun topsa kerak. Rahbar niyoyat o'z xatosini tushungan, ijodkorlarsiz, olimlarsiz taraqqiyot bo'lmaydi, – dedi keksa adib yoshlangan ko'zlarini kir ro'molchasisiga artar ekan.

T. bunday katta mas'uliyatlisi yashirinib o'tirmadi. hasadi kelayotanini yashirinib o'tirmadi.

– Shuning uchun ham sizlarga hamma gap haykalning qanday chiqishiga bog'iq deyapman-da. Agar Xudo ko'rsatmasin, ish pachava bo'lsa, unda ijodkorlarga bo'lgan munosabat yana yomonlashadi.

– N. buni eplaydi. Bunga imonim komil. Ayganday, guruhga kimlarni taklif qildingiz? – so'radi shoir.

N. tuzgan va haykal yasashga jabol qilingan guruh a'zolarini sanab berdi.

Shoir bosh irg'adi.

– Yaxshi. Isste'dodli odamlarni jalb qilibsiz.

T. birdan norozilik bildirdi.

– N.ni guruhga olmaslik kerak edi. U iste'dodli bo'lgani bilan mas'uliyatsiz. Ishni rasvo qiladi. Uning ichmagan kunini qo'yatu raylik, soati ham yo'q.

– N.ga katta vazifa yuklatilmaydi. U eskizlar bilan haykalning muqoyasasiga javobgar. U boshqalar ko'rмаган jihatlarni tez ilg'agani uchun ham guruhga taklif qildim, – dedi N.

– Endi bor umidimiz sizdan, – dedi akademik. – Agar buyurtma ko'ngildagiday bajarilsa, ziyolilarning ham yelkasiga oftob tegib qolardi. Entimol, rahbar madaniyat va fanda bo'ladigan islohotlar ni ayman shu haykallarni tiklash bilan boshlab bermoqchidir?

– Men ham shunga umid qilyapman, – dedi shoir. – Olim bl'lan shoirning haykali san'at va jilm-fanning qadrini yana bir karra ko'taradi.

– To'g'ri, – dedi akademik. – Men ko'pdan beri bolalarimiz ga ko'rsatadigan milliy qahramonlarimizning aniq qiyofalar yo'qligidan tashvishga tushib kelardim. Hozirgi zamон bolalar o'zimizning qahramonlarimizni tasavvur ham qilish holmaydi.

– Ular qayerdan bilsin? Axir qahramonlarimiz haqidagi na film bor, na surat, na haykal bor?! Bunday o'qisang, bahri diling ochi ladigan kitob ham yo'q. – T. shu gapi bilan qovun tushirganim!

seali qoldi. Shoirning milliy qahramon, uning avlodlari haqida bir necha tarixiy asarlarli borligi esiga tushdими, birdan gapni burdi. – Horin ham bosib chiqarishmaydi. Bolalarga o'z qahramonlari yaratib berishimiz kerak.

T. uning gapidan og'rindimi yoki uning "Bosib chiqarishmayap" o'z degan gapidan so'ng esiga tushdими, shoir imillab o'midan turdi, mador ketgan oyoqlarini zo'r'ga sudrab, javondan qalin eski daffo olib kelib, N.ga uzatdi.

– Mana sizga aygan daftaram. Bu yerda yigirmaga yaqin tafliy anurlardan aynan siz yasamoqchi bo'lgan tarixiy shaxslarni qiyofatlar haqida ma'lumotlar ko'chirilgan. Sizga yordam beradi. U shu turishida bu daftarga yozilgan ma'lumotlar orqali har hini atabiyotda voqeя safatida qarshi olingen o'ndan ziyod asar yuzlani, bu asarlar bugun umutilish arafasiga kelganidan ko'ngli to'lib ketganini qanday yashirishni bilmay daftarga qarab turardi.

– O'qib bo'tgach, qaytararsiz, – dedi shoir niyoyat o'zini tutib olib. Keyin joyiga borib o'tirdi. Ko'zlarini yana o'sha kir ro'molcha bilan artdi. N. nega shoir ayman kir ro'molchaga ko'zlarini o'tayotganini tushunmadi. Yangisini olmagan taqdirda ham yuvdiroh olishi mumkin edi-ku. Shoirning ayman kir ro'molcha bilan o'tqidiha bir ma'nosezdi. Bu bilan "Mana, meni nimaga aylantilishdi, kunim shunga qoldit!", – degan iddiao ham bor edi.

– Ayganday, bu uchala haykalni qaysi maydonlarga o'rnatishor ekan? – savol berdi akademik. – Shahrimizda uchta xiyobon hafta, shu joylarga mo'jallashayotgandir?

– Yo'q, menga tushuntirishlaricha, uchala haykal ham bir joyda, shahrimizning bosh maydoniga o'rnatiladi, – dedi N. – Uchashami bir yaxlit asar sifatida, ya'ni xuddi suhbatlashib turgandek ishlash topshirilgan. Shahardagi eng haybatli haykal bo'lsin, usundordan ko'rinib tursin, shahrimizga kelayorganlar dastavval ana shu haykallarga ko'zi tushsin, deyishyapti.

– Oh-hu, – dedi T. havasi kelib, hasad bilan bosh chayqab qo'ydi.

– Unda yaxshi, – dedi akademik. Keyin shoirga yuzlandi. –

Ma'quil yo'i tanlashibdi. Uchalasi bir joyda bo'lsa, shunga yarasha mahobat bo'ladi. Millatning uch ustuni bir joyda turadi. Bu dono tashabbus.

Birdan shoir qih-qihlab, istehzo ohangida kulib yubordi. Kularkan, hadeb kiri ro'molchada ko'zidagi yoshti artardi.

- Mana... Axiri shu xulosaga kelishibdi-da.

O'tirganlardan hech kim bu istenzoli kih-khining ma'nosini tushumadi.

- Juda ajoyib bo'libdi... - dedi jiddiyashib shoir. - Aql, ijod va kuch bir joyga yig'ilibi. Ular nihoyat buni anglashibdi. Asli da, har qanday tamaddunning asoslari shular. Men ularga necha marta aytdim, shaxsan rahbarga yozib yubordim ham, kuch, aql, ijod ahli birlashib ishlaylik, deb. Men hatto o'sha xatlarim rahbarqa yetib borganiga ham ishonmayman, - keyin yoyilib kuld. O'rnatish kerak: kuch, aql, ijod - bu bizning quadratimiz timsolari.

T. bu gaplardan besaranjom bolib, barmoqlarini asabiy qar-sillatib o'tirardi. Shoir N.ga choy quyib uzatdi.

- Menga qarang, siz shoir qiyofasini ko'proq "Tavorixi axloq"

asariga tayanib yaratting. U yerda aniqroq yozilgan.

- Xo'p, - dedi N. - "Tavorixi axloq" ni kutubxonaga buyurtma berib qo'ydim. U yerdan ko'chirib olaman. Bundan tashqari, men qolidagi aso haqidha ham ma'lumot to'plashim kerak.

- Aso?! - ajablandi shoir. Akademik ham, T. ham hushyor torishdi. - Qanaqa aso?!

- Shoirming pirlik asosi, - N. buyurtma haqidha gap bo'gani-dan beri o'zi xayolidi pishitib yurgan gaplarni shoshib aytta boshladi. - Men qolida aso ushlab turgan holatda tasavvur qilyapman. Asosining bosh qismi qubballi bo'ladi. Xuddi globusga o'xshab, Qubba ustida yarim oy shakli beriladi. Asoning o'zi esa oq bilan sariq rang qorishmasida yaratiladi. Shoir go'yo nurni, ziyoni ushlab turgan, nur ustida yer yuzi va koinot jamuljam bo'ganda manzara paydo bo'ladi. Sarkardaning qolida qalqon bo'ladi.

- Faqat qalqomni? - shoshib so'radi T. N.ning har bir gapidan ayb izlayotganday va bu aybni to'satdan topganday zaharxanalik bilan gapirdi. - U axir umr bo'yil qilich taqib yurgan. Zo'r qilichboz bo'lgan.

Ullaman, - dedi N uning gap ohangiga e'tibor bermay. - Qili-minni dastasi ko'rinadi. Qalqon "Biz el-yurtni himoya qilamiz, kim unja daxi qilsa, qilichimiz ham bor", degan ma'noda bir qo'lli qilinib qopida turadi.

Shoir N.-ga qarab jim qoldi. U N. haykallar orqali tasawur qilayotgan ma'noni anglamoqchiday og'zini ochdi. Keyin bosh i'lli oldi.

- Yaxshi o'yabsiz, - dedi. - Agar maslahat kerak bo'lsa, tortin-may kelavering, Jon deb yordam beraman.

Albatta, - dedi akademik ham. - Bu endi faqat sizning ishini-jis emas. Bu barcha ziyyolilarining ishi. Haykallarning muvaffaqi-yati o'chiishi ziyyolilarining yelkasiga oftob tegishini bildiradi. Bu ishlari hammamiz mas'ulmiz. Olimlar ham sizga yordam berishiga tayyor.

N. ortasiga kutubxonaga bordi. U yerdan "Tavorixi axloq" bilan birga o'zi bir paytalar o'qigan kitoblarni olib, uchta tarixiy shovuning qiyofasi haqidagi ma'lumotlarni ko'chirib oldi. Keyin haykalga ulug' vorlik bag'ishlash uchun bir necha kun dunyoning mashhur haykallari suratlari, ularning yaratilish tarixini, shunday haykallar yaratgan haykaltaroshlarning ijodiy xotira va laboratoriyalarini sinchiklab o'rgandi. Guruh ro'yxatini yana qay-tadan tuzdi, unga taniqli, o'z ishining ustasi bo'gan eng istedodli haykaltaroshlarni jalb qildi. Bu guruh bilan belgilangan muddatda haykallarni yaratib ulgurishiga endi sira shubha qilmasdi.

Anno u olimlar va kitoblar orqali bir to'xtamga kelgan uchash-la boyktal eskizi tasdig'i negadir cho'zilib borardi. U haykal qiyofolari eskizini necha marta rahbarga kiritgan bo'lsa, shuncha marta qiyofalar ustiga qizil qalam tortilgan javob kelardi. Bu choraqar qiyofa rahbarga yoqmaganini bildirardi. N.o'z guruhini yonayam ko'proq ma'lumot to'plashga jalb qildi. O'sha oltin silsilah, milliy g'urur, tafakkur va silohiyat uyg'ongan davrga oid bartha xotiralar, xatlar, esdaliklar, shuningdek, kiyim, soqol qo'yish uchumtoni o'rganib chiqildi. Ana shular asosida yana eskiz tayyorlandi. Bu gal u xotirjam edi. U bor imkoniyatni ishga solib, ma'lumotlarni eng mayda tafsilotlarigacha o'rganib chiqandi, uch qahramonning tarixiy qiyofalarini deyarli to'liq tiklab bo'lgandi. H. okizlarni tarixchi olimlarga, so'ng tarixiy mavzuda ijod qiladigan rasommlarga ko'rsatib oldi: ularning maslahati bilan ba'zi tu-

zatishlarni amalga oshirdi. Keyin fotiha olish, ham yana bir karra fikrlashish uchun keksa shoirga ham olib bordi. Orada o'tgan ikki oy ichida shoir o'zini ancha oldirib qo'ygandi. U eskizlardagi qiyofalarga bandi sinib tushgan ko'zoynagi bilan uzoq razm soldi.

– Buni qarang-a, – dedi u nihoyat eskizlarga tikilganiga ham holdan toyib qolgannini yashirmay hansirar ekan. – Menga yoqdi. Hamma narsa hisobga olingan. Ularning qiyofasi aynan shunday bo'iganiga aminman. Sizni tanlab adashishmabdi. Qiyofalar ham milliy, ham ulug'vor. Faxrlansak arziydi.

N.ga maqtov yoqsa ham o'zini kamtar tutdi.

– Uch marta qaytarishdi, – dedi u noligannamo ohangda. – Hech qaysi qiyofa rahbarga yoqmabdi. Nima istayotganini ochiq aytmaydi, qizil chiziq tortib beradi. Bu – qiyofa ma'qul emas, degani ekan...

Shomr unga daldla bergen bo'ldi.

– Endi rahbarni ham tushunish kerak. Axir, u milliy qahramonlar qiyofasi yaratilishini istayapti. Bu oson emas. Bu qiyofalarga boshqa millatarning ham havasi kelishi kerak. Shuning uchun qaytargan. Bunisi a'llo darajada. Husn ham, viqor ham, qarashlaru kiyimlar ham joyida. Hammasi joyida. Bunisini qaytarishmaydi.

– Aytingizingiz kelsin! – dedi N. xuddi eskizi tasdiqdan allaqachon o'tgandek.

Eskizlarni idoraga N.ning o'zi olib borib berdi. O'z ishidan ko'ngli to'q qaytib, shu kuni buyurtma olganidan beri birinchimarta mayllariga erkinlik berdi: loylardan turli qiyofalar yasab, xayoliga kelgan ish bilan masng'ul bo'ldi. Oltasi bilan bog'aylandi, ularni buyurtma hisobidan olgan qarzlar evaziga shahar aylanirdi, eng sara yemakxonalarga olib kirdi. Uning kayfiyat chog', qushday yengil, loyihami o'z muddatida bajarishga kuch-quvvati yetarli edi. Oradan ikki kun o'tgach, unga qo'ng'iroq qilishib, madaniyat bo'llimiga tez yetib kelishini aytishdi. Telefondagi ovoz souvq va andak norozi ohangda edi. Idorada N.ni yana o'sha jikkak to'rabaychcha kutib turardi. N. buyurtma olayotganda ancha qolib ketgan xonaga kргganda jikkak amaldo stoli atrofida asabiy yurib turardi. N.ni ko'rib, bir nafas norozi bo'lib tikilib turdi. Ko'zlarida "Nima qilib qo'yaganingizni bilasizmi?" degen ifoda balqib turardi. N.uning qarashidan bu gal ham eskizi tasdiqlan-

mogenini his etdi. Birdan hafsalasi pir bo'ldi. "O'zi bular nima istahyapti? Haykalmi yoki biron farishtaning qiyofasini?" U mislli eskitning hech bir e'tirozsiz qabul qilinishiga ishongandi. Shuning uchun amaldor ishora qilmasa ham kelib, kursiga o'tirdi va "Qani, gapir-chi, nima karomat ko'rsatasan?" deganday boshi til egib oldi. Amaldor zarda bilan o'zini kursisiga tashladi. Stolga eshitilani "tars" etib qo'ydi. Eskizlar qizil bilan qalin qilib chizib, keyin undov belgisi qo'yilgandi.

– Mana, – dedi amaldor xuddi xo'rлиги kelgandek tovushi tit-tah. – Oling bu lash-lushlarigizni...

– Bu safar N. o'zini tutib turolmadı. U ikki oy rahbarlarning ta'yи va qovog'iga qarab, ularning ko'nglini olaman deb tirishib anabulari bo'shashib qolgan edi.

– Bu lash-lushlar emas. San'at asarining eskizlari.

Amaldor uning jizzakkiliga e'tibor bermadi. U N. bilan jophashishidan oldin uning fe'l-atvorini yaxshilab o'rganib chiqqan ko'rind turardi. U N.ning har qanday e'tirozi, hatto baqir-thoqiriga ham tayyor turardi.

– Buz sizga ishongandik, – dedi u xuddi ayni vaziyatda N.ning qizimi aybdor qilishni zimmasinga olgan tergovchidek o'smoqchilid. – Ammo siz uni suisite'mol qildingiz. Eskizingiz tasdiqlanmadı. Rahbarning hatto g'azabi qo'zib ketdi. "Nima, shuni ham mon chiziib berishim kerakmi? Shu basharalarni dunyoga ibrat qilib ko'rsatamizmi? O'n marta qaytardim bu eskizlarni. Ammo hall ham maqsad va mohiyatni anglamadi bu haykaltaroshlarining lishonib bo'ladimi?" dedi. Juda qattiq norozi bo'ldi.

– Men bu qiyofalarni tarixiy xotinlar va asarlar asosida yaratdim, – dedi N. o'ziga qilinayotgan muomaladan jahli chiqib. Bu qiyofalarni tarixchi olimlar, rassomlar ham tasdiqlashgan. Haliq oxirida ularning xulosalarini ilova qilingan.

– Ko'rdik. Ular ham masalaning qanchalik muhimligini, ham salqaro miyosda, ham milliy miyosda, tasavvur qilishmagan, – amaldo nimanidir aytishga qiynalayotganday yoki gapni nimadan bonhilashni bilmayotganday edi. – Rahbar esa qandaydir shubhali surʼatarga emas, masalaning ana shu jihatlariga e'tibor beradi.

– Xotiralar shubhali emas, – N.o'zining noroziligini bildirmoqchi bo'llib og'iz jutfladi. Ammo bu gaplar behuda ekanimi tushundan. Amaldo uning e'tirozini eshitishi bilan xuddi tipratikanga

o'xhab birdan xurpayib oldi. Rahbar "shubhali" dedimi, demak, har qanday tarixiy asar, hatto o'sha tarixning o'zi ham shubhali ekaniga shubha qolmaydi. Uning bu e'tirozi amaldorni hushyor torttirdi. Shu paytgacha ikkilanib, qymalib turgan ichidagi gapni aytishning payti kelganimi, shu bilan mabodo uni devordagi qulq orqali eshitib turishgan bo'lsa, rahbarga bo'lgan humatsizlikka vaqtida keskin javob qilgan bo'lishini tushundi. Endi cho'zib o'tir madi. Maqsadga ko'chib qo'ya qoldi.

– Shuning uchun biz sizni guruhdan chetlatdik. Rahbarning sizga bo'lgan ishonchi so'ndi. Siz haqingizda eshitishni ham istamayapti. Shu sababli loyihadan chetlatildingiz...

N.ning qayeridir og'rib ketdi. Ammo o'zini tezda tutib oldi. U irodali, qat'iyatli odam edi. Buyurtmasiz va loyihasiz ham hayot va san'at davom etishini yaxshi bilardi. Istezhzoli jilmaydi, qo'llari bilan o'siq sochlarni taradi. U negadir ich-ichida bu loyiha menga yanglishi topshirildi, qandaydir chalkashlik bor, bunaqa davlat miqyosidagi yuksak ahamiyatga molik loyihalarini menga ishonishmaydi, bir kuni baribir hushyor tortishib, qaytarib olishadi, deb o'zini ishontirib yurardi. Mana endi kutgan o'sha vaqt keldi. U amaldorni ajablantirib, bu xabardan ajablannadi. Aslida ham u xonaga kirib, stol ustida qizil chiziq tortilgan eskizlarni ko'rgan dayoq bu loyihadan chetga chiqishni istab qolgandi. Mana endi hammasi xamirdan qil sug'urgandek yuz berdi.

– Yaxshi, – dedi N. – Unda men bo'sh bo'lsam kerak.

– Boshqa biron loyiha chiqsa, albatta, sizni taklif qilamiz, – amaldor ham undan qutulganiga shukr qilgandek va bira to'la vijdonni ham tozalab olmoqchidek hamdaridlik bildirgan bo'ldi. – Bunaqa loyihalar o'zlariga buyursin! – dedi N. har doimgiday uni mashhur qilgan qo's va qo'pol tabiatiga qaytib.

U shu loyihami deb fe'l-atvoriga zid ravishda jini suymagan qanchadan qancha amaldoru haykaltaroshlar, adibu rassomlar bilan tilini tishlab muomala qilib yurgandi. Endi unga bu qobiqdan chiqishga hech narsa to'sqinlik qilmaydi. Shuning uchun qichigan tilini tiyishni ham istmadni.

– Mabodo o'zlariga qabr usti byustini buyurtma berishni igsataslar, jon-jon derdim...

Amaldorning yuzi gezzarib ketdi. N. amaldor stolning bir chelida turgan kuldronni o'zi tomon tortiganini eshik tomon burilayotib

ko'idi. Ishlik bilan yuzma-yuz holatda bir pas tik qotdi. U kuldron qayni torafdan uchib keladi, o'ngdamni, chapdamni, qay tarafli qarab chap beradi, hammasini soniyalarda hisoblab, otligan jismoning shuvillagan ovozini ilg'ashga o'zini tayyorladi. Ammo u hujigan shuvillagan tovush o'rniga gugurting "chirq" etgan sasi heldi va xonani tamaki hidi tutdi. Amaldor kuldorni otganda N. uni ehtimol hurmat qilgan bo'lardi. Hozir esa bor hurmati ham yo'qoldi. U "Otolmadi, otsa, amaldor bo'lmasdi", – deb o'yadi. Bu payida eshik butun binoni larzaga solib izidan qarsillab yopildi. N. qabulxonadan chiqar ekan, eshikda qo'litig'iga bir o'ram qog'oz ko'rib olgan po'rim kiyungan T. bilan yuzma-yuz keldi. Bir soniya ikkala bir-biriga xuddi ikkita och sherdek tikilib turib qolishdi. N. hammasini tushundi va indamay o'tib ketdi.

N. avvalgiday hammasiga qo'l siltab toqqa chiqib ketdi. U yelhasida asbob-uskunasi solingen xaltacha bilan xuddi sangtarosh otasi kabi mangu va abadiy qotgan ulkan toshlar orallab yurur; olardan ko'ngliga yoqqamini olib, haftalab yo'har, qirtish-hish, shakdi beras, ko'nglining ayni paydag'i holatlarini va suratalari o'ftobda chirsillab yotgan xarsanglarga o'yardi. Bu shakllarini qurab turib, bironatasida yarq etgan tik odam shaklini ko'rish qiyin edi: yiqilgan, surilgan, toyg'angan, og'ir va beedad musihotdan qaddini eggan, xuddi ko'tarishga uyalgandek boshini oyqolari orasiga tiqib olgan, tizzalab o'tirgancha osmonga ko'ztildi, og'ir gunohlariga ajr istab saida qilayotgan, qo'llari ko'kka cho'zilgan odamlar shaklini eslatadigan haykal – toshlarga to'la eddi. Agar tun sokinligida qulqutilsa, ingroq va uvvoslar kelardi bo'toshlardan: ularning hammasi xayolning, muztar va mazlum lo'ng'lining zuhurotiga, taxayyuruning uchi-quyrug'i yo'q, shamoyilini tutib bo'lmas manzaralariga o'xshardi. N. umriming olti oyin ni manu shu daraga bag'ishladi, bu yerda o'zinining horurini bosib oldi, olti oylik umri, kechimmalari, hissiyotlari toshlarga ko'chib, abudu bitiklar shaklini oldi. Har qalay, bu yerda u erkin ishladi, o'z bolqamini, tasavvur qilganini, anglaganini, xayoliga kelganimi yaroqdi. U eskkizlaridagi siymolarni ana shu toshlarning siyratiga singuturib yubordi. Agar osmon ko'zi bilan qaralsa, u bu toshlarga hayot, umr, jamiyat va insoniyat haqida butun mehrini, mahomatini, bilmimi berib ishlagan eskizlarini xuddi yuzini, hayotini, ishonch-e'tilqodini tilmlagandek qizil qalam bilan chizib tash-

lagen zamona haqida nimalar yozganini, nimalar deganini bilib olgan bo'lardi. Ammo bu anglash jarayoni ham tog'lar kabi man gulikka muhrlandi. Daradan chiqib ketar ekan, iziga, o'zining olti oylik xayollariga aylangan toshlarga so'nggi marta qara di. "Ehtimol, bu xarsanglar xuddi menga o'xshagan va qachon lardir yashagan yolg'iz haykaltaroshning asarları bo'lgandir va men uni yana odatdagiday buzib qo'ydim", degan g'ashlik o'tdi xayolidan. Qachonlardir abadiylilning nariqi chekkasidan xuddi o'ziga o'xshash yana bir haykaltarosh chiqib, ishlov bermaguncha bu xarsanglar abadiylilik elchilar bo'lib, shu yerda yotaveradi. Bu mangu toshlarga bitilgan qismat va hikmatni hech kim o'qiy olmaydi, uni o'qiydigan shaxs kelganda esa bu dunyoda uning xokining changi ham qolmagan bo'ladi.

N. shaharga kuzning o'rtalarida qaytdi. Yo'l ulovida kelar ekan, uzoq masofadan shahardan ham oldin ko'rinish turgan uchta baland tog'day ulkan ko'lankaga ko'zi tushdi. Ko'lanka- lar asta-sekin shakl olib, shaharga yaqinlashgan sayin bahaybat odamlar shakliga kirdi. N. shaharga kirganda bu shakkilar haykal ekanini anglatdi. "Axiyri o'mnatishibdi-da", deb o'yjadi u alam bilan. Bu haykallar qiyofasida o'ziga mag'lubiyati va omadsizligi tikilib turgandek his qildi. Ularga qaramaslikka trishdi. Ammo saldan so'ng u ichidagi g'urur va shaxsiyatini yengishga qurb, qudrat topdi. Chuqur nafas oldi. Nima bo'lganda ham, u umr bo'yig' o'z ona shahrida o'mnatislishini orzu qilgan buyuk millatoshlarining haykali o'rnatilgan. Shuning o'zi ulug' hodisa. U o'zini tutib oldi. Shaharning bir chetidan haykallarni tomosha qila boshladi. "Kim yasagan bo'lishidan qat'i nazar, baribir, o'mnati yaxshi qilishibdi", degan mammuniyat chirog'i uning olti oylik xira ko'ngli ni yoritdi. "Kim yaratganining qizig'i yo'q. Muhimi o'mnatiqani!" Haykallar rostdan ham butun shaharga ko'rk va mahobat berib turardi. Bir hisobi, shu yerdan uyiga jo'nab ketmoqchi bo'ldi. Ammo qiziqishi ustun chiqdi. Oyog'i beixiyor markaziy ko'chaga qarab tortib ketayotganini sezgach, o'zi ham o'sha tomonga yo'l oldi. Uni bu haykallarda men bilmagan va anglamagan nima bor edi, bu ishdan meni chetlatishdi, degan qiziqish ham bosholab ketayotgandi. Nima bor ediki, u o'sha narsani ko'rolmadi va yaratma omadi? Nima edi o'sha?! Umri bo'yig' o'zini barcha zamondosh haykaltaroshlardan ham mahorat, ham iste'dod, ham did ma-

g'asida oltun sezib yurardi. Ammo o'sha did va saviya qayerdi unga pand berdi? Hozir hammasi ma'lum bo'ladi, o'zining va unning yangi xulosasi bilan yuzma-yuz keladi. Ehtimol, uning buon umri ana shunday besamar mag'lubiyatdan iborat bo'lgan di va u huni haligacha tan olmay yashab kelayotgandir? Aslida, u haykaltarosh emas, tog'u daralarda daydishni yaxshi ko'radi. Iltin oddiy cho'pon bo'lishi kerak bo'lgandir-u, hayotining o'zani qolashib, haykaltaroshlik tomon burilib ketib, shundan beri bu o'indan chiqolmay, tirmashib-tamshanib, adashib kelayotgandir. H, ayni paytda mag'lubiyatini ham, umriming besamar o'gani ni ham, o'zining arzimas haykaltarosh ekanini ham tan olishga tayyor edi. Il borayotgan ko'cha haykallarning orqa tomonidan chiqib qoldi. Yaqinlashgan sayin haykallar yanada ulkanlashdi tog'day yoksaldi. Cho qqiday qad kerib turgan haykallarning buish qismaniga qarayman deb yiqlilib tushayozdi. Haykallar rostdiun sirli va ulug'vor qiyofa kasb etgandi. Ular xirqqa, sovut va unun rido kiygan holda tasvirlangandi. Axir, bu uning g'oyasi edi-hu... Bu kiyimlar, gardishdagi naqshlar, hammasi uning eskizida qonday bo'tsa, o'sha holatda tasvirlangandi. Riddo va xirqaning erak qismini shamol biroz ko'tarib, hilpratib turibdi. Bir-biriga yelto tutib turishari, butun millatni balo-yu ofattan asrayotgandok tasvirlangan qalqon va qilichga uzalgan qo'l. Hatto aso nom... N.du o'zining yo'qligida eskizini tasdiqlashgandek, o'sha pishdar avosida haykal yaratigandek taassurot paydo bo'lib, yuragi hayajondan gupillab ketdi. N. shoshib old tomonga aylanib o'tdi. U adashmagandi. Bu haykallar N. olti oy ilgari eng mayda ikki-chikrigacha chizib chiqqan eskiz asosida yaratilgandi. Uning shuba yo'q edi. Olimning olis osmonga tikilgan nigohi va inak sari cho'zilgan qo'l, shoirning assosidagi globus shaklidagi yarm oy tushirilgan gumbaz. Bugun unutilib ketgan, ammo N ga buken libos ustasi aytgan movut to'nlarning va allomalar xirqa-sining ko'tarma yodosi. Sarkardani jang maydonida uchratib, nafisligi va pishiqligidan g'oyatda hayratga tushgan hamda bu-niga yengil va qulay jang aniomlari hali o'zlarining mamlakatida ishlab chiqilmagan haqida katta risola yozgan elching xotirasini orqali qayta tiklangan mayda halqali sovut.. Ha, sovutning yengil va mustahkam metaldan olinganini, o'ta mayda halqalarni borat bo'lganini N. o'sha elching hal tarjima qilinmagan

xotirasidan atayin ona tiliga o'girtirib, bilib olgandi. Buni N.dan boshqa birontasi bilishi mumkin emasdi. Ulug' vorlik va salobat berish uchun qahramonlar yelkalarini atayin tik holda bo'rttirib tasvirlagan edi. Bu holatlarning hammasi uning eskizida qanday bo'lsa shunday va uchala haykal ham eskizida qanday joylashgan bo'lsa shunday, ya'ni buyuk kuchni aql va ijod o'rab turadi, buyuk olim va buyuk shoir ikki chetda, buyuk sarkarda o'rtada – o'zaro uyg'un, yakdil ko'rinishda edi. Nahotki T. uning eskizini o'g'irlab olgan bo'lsa? Ammo bu eskizlar uniki ekanimi rahbar ham, boshqa haykaltaroshlar ham, amaldorlar ham bilishardi-ku. Demak, yo'qligida uning esklizlari tasdiqlanib, o'sha asosida haykallar yaratilibdi-da. N. xuddi onasini topib olgan yosh boladay atrof-dagilarni ajablantirib haykalning har qarichini sinchikab tekshirar, u yerdan o'zini izlardi. Shubha yo'q edi, bu uning esklizlari asosida yaratilgan haykallari! Unda nega ishslash uchun uning o'ziga ruxsat berishmadi? Nega buyurtmani undan olib qo'yishdi? N. xuddi savoliga javob borday haykallarning yuziga va ko'zlariga tikildi. Tikildi-yu, toshday qotib qoldi. Ulkan yanog'u qoboqlarda hatto tosmpichoqning izigacha, qirilgan joylarigacha unga yaqqol ko'rinish turardi. Yuzni negadir o'ta silliqlashtirish uchun rosa ishlovi berishingandi. Bo'yashgan, keyin zarhal rang berishgan. Xud-di oltinday tovlaniib, ko'zbo'yamachilikari bilimmasligi uchun, Lekin qirish va yo'nish ishalridagi ko'zbo'yamachilikni N. davor anglatdi. Bu T.ga xos uslub edi. O'zining ko'zbo'yamachilikini hamisha ranglar va zarhal hil bilan yashirishga urinardi u. N.ni bu ko'zbo'yamachilik hayratga solgani yo'q edi. Uni uchta qahramoning qiyofasi hayratga solgandi. Uchta qiyofa bir-biriga juda o'xshash edi: milliy qahramonning ham, ulug' shoir va olimning ham yuzi bir xil edi. Go'yo ular xuddi egizakday, ustlaridagi kimlari va tashqi unsurlarini hisobga olmasa, bir xil qiyofada tasvirlangandi. N. hech narsaga tushummay qiyofalarga qayta-qayta qurar, uzoqlashib, yaqinlashib tikilar, adashmadimnikin, deb ko'zlarini ochib-yumardi. Yo'q. U adashmayotgan edi. Uchta haykal bir xil qiyofada edi. N. shu yerda ham hammanni laqillatgani uchun ichida T.ni buralab so'kdi. Nahotki shumi boshqalar pay-qashmagan bo'lsa? Bu so'qirga ham ko'rinish turibdi-ku. U yon tomondan qiyofalarga boqarkan, birdan titrab ketdi. Shu turishdu qiyofalarga uzoq tikilib qoldi. Tikilar, bexosdan nimanidi!

anglatdi. Ko'ngli nimanidi-sezdi. Ko'zlarini yana ochib-yumdi va shuhhasini yo'qqi chiqarish uchun yo'nинг narigi tarafidagi katta himonning old tarafiga osib qo'yilgan, naq ikki qavatni egallagan. "Holl ham tirkemisizlar?" degandek ko'zlarini lo'q qilib turgan jahonning suratiga qaradi, keyin yana haykallar – buyuk siyomlinga tildi. Yana suratga. Qaradi-yu hammasini – esklizlari nega tundiqlammaganimi, nega haykallar bir xil qiyofada ekanini, nega u ziskalarini tasdiqlatolmay ovorayu-sarson bo'lib, idorama-ido-fa yugurganini, rabbarning nega norozi bo'lganini, esklizlarni o'n mortalab besabab qaytarganining sababini tushundi. Haykallar ning qiyofasi hammasini gapirib turardi. Hammasi tushunarli edi. Haykallagi uch siymoda ham rabbarning qiyofasi, qoshu ko'zi, hatto har ko'rganda, suratiga qaraganda N.ni hayratga soladigan shu sil burun teshigi ham aslidagiday edi. Uchta haykal qiyofasi da unga rahbar boqib turardi...



MUNDARIJA

Urush odamlari (*Qissa*) 3

Farishta 104

Qo'l 137

Haykal 157

Adabiy-badiy nashr

NAZAR ESHONQUL

URUSH ODAMLARI

(*Qissa va hikoyalar*)

«Ochun» nashriyoti
Toshkent-2021

Muharrir
Nizomjon ISLOMOV

Badiiy muharrir
Umid SAPAYEV

Rassom
Isomiddin ESHONQULOV

Musalhibh

Ruhshona ASHUROVA

Sahifalovchi
Shaxboz SIROJIDDINOV



— 780 —

10.000

15.01.2021-yilda bosishga ruxsat etildi.

Qog'oz bichimi 84×108¹/₃₂ «Cambria» garniturasi.

Shartli bosma tabog'i 5,5.

Adadi 3 000 nusxa. Buyurtma raqami № 4-21.

Bahosi shartnoma asosida.

«Ochun» nashriyotida nashriga tayyorlandi.

Toshkent sh., M.Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.

Tel: +998 99-791-75-55, +998 71-262-21-54

«Yangiyul Poligraph Service» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, Yangyo'l shahri, Samarqand ko'chasi, 44,